ISSN: 2181-3035
15.06.2022
№ 5



TALQIN VA TADQIQOTLAR

respublika ilmiy-uslubiy jurnali

Aniq fanlar
Tabiiy fanlar
Tibbiyot fanlari
Texnika fanlari
Iqtisod fanlari
Filologiya fanlari
Pedagogika fanlari
Ijtimoiy-gumanitar fanlar
Psixologiya fanlari
San'at va madaniyat fanlari
Jismoniy tarbiya va sport

talqin@bk.ru
+99891-152-93-14
www.talqinva tadqiqotlar.uz

@TALQINVATADQIQOTLAR

TALQIN VA TADQIQOTLAR

RESPUBLIKA
ILMIY - USLUBIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO‘YICHA

5-son 3-qism
15.06.2022

Talqin va tadqiqotlar

ilmiy-uslubiy jurnal

scientific-methodical journal

научно-методический журнал

Bosh muharrir:
I.I.Abdumannonov

Mas'ul muharrir:
O.S.Isroilov

Jurnal bir oyda ikki marta chop etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2022- yil 12 - fevralda 1540 raqam bilan ro'yxatga olingan.

ISSN 2181 - 3035

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

Tel: +99891-152-93-14
E pochta: talqin@bk.ru
Сайт: www.talqinvatadqiqotlar.uz

Tahrir kengashi:

Qo'ldashev Sherali Temiraliyevich
O'z FA Sharqshunoslik instituti
tarix fanlari nomzodi, dotsent
Bazarov Odiljon
Filologiya fanlari doktori
Qo'qon davlat pedagogika instituti
Abdukarimov Jamoliddin Ahmadaliyevich
Xo'jand davlat universiteti dotsenti (Tojikiston)
Masharipova Gularam Kamilovna
Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti
Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich
Namangan davlat universiteti
tarix fanlari nomzodi, dotsent
Abdullayev Ravshanjon Inomjon o'g'li
O'z FA Tarix instituti
Tojiyeva Gulnora Akramxonovna
Xalq ta'limi a'lochisi
Abdullayeva Maftunaxon Umidjon qizi
Qo'qon davlat pedagogika instituti
Raximova Zuxraxon Maxmudovna
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Jo'rayeva Sobira Eshqurbonovna
O'zMU jurnalistika fakulteti, o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Akbarov Qobuljon Yakubovich
Qo'qon davlat pedagogika instituti, tarix fanlari nomzodi
G'ofurovTo'lqinjon Zafarjon o'g'li
Qo'qon davlat pedagogika instituti, matematika fani o'qituvchisi
Baymenova Kamshat Saparbayevna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Bazarov Otabek Odilovich
Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD
G'ulomova Nargiza Sa'dullayevna
Navoiy VXTXQTMOHM Tillarni o'qitish metodikasi katta o'qituvchisi
Rahimova Maftuna Odilovna
Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD
Mirzaahmedova Kamola Toxirovna
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti farmakologiya, fiziologiya kafedrasi dotsenti
Djumaniyozova Enajon Kutimovna
Toshkent arxitektura qurilish instituti xorijiy tillar kafedrasi katta o'qituvchisi

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	БЎЛАЖАК ТЕХНОЛОГИК ТАЪЛИМ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ Гадаймуратов Шухрат Мамаюсупович	5
2.	O‘SMIRLARNING PSIXIK RIVOJLANISHIDA YANGI XISLATLARNING PAYDO BO‘LISHI Kudaynazarova Sayyora Kungratbayevna	8
3.	“TO BE” FE’LI XAQIDA Qarshiyev Nurbek, Jumanova Gulirano Mnsurjnovna	11
4.	DARS JARAYONLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TALABLAR Xamidova Yulduz	13
5.	BILIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR Matkarimova N.X, Tulyaganova N.X	15
6.	TA`LIM JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISH Dexqonova Sadbarxon Xusanbayevna	19
7.	LISTENING IS AN INTEGRAL PART OF COMMUNICATION PROCESS Turdiyeva D.Z., Obrueva G.Kh.	21
8.	BOLADA SHAKLLANADIGAN O‘G‘RILIK MA’NAVIY ILLATINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Serjanova Zamira Utepbergenovna	25
9.	ZARDUSHTIYLIK DINING VUJUDGA KELISHI Eshamanova Sanobar Abdusamadovna	28
10.	FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI Komilova Umida Kaxramon qizi, Qosimova M	33
11.	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI O‘RGATISH USULLARI Mustafoyeva Sitorabonu	38
12.	TASVIRIY SAN’AT FANIDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISHNI AHAMIYATI Ochilova Dilrabo Karomatovna	43
13.	BIMIY VA UNING ADABIY MEROSI Abdurazzaqova Shoiraxon Pulatjon qizi, M.Tojiboyeva	47
14.	AMIR TEMUR DIPLOMATIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI Oxunov Abdulla	51
15.	OJIZ IJODIDA TASAVVUFNING TUTGAN O‘RNI Sotvoldiyev Davronbek Xasanboy o‘g‘li, M.Tojiboyeva	55
16.	ҚАРАҚАЛПАҚ ТОЙ ҚОСЫҚЛАРЫНДАҒЫ АЙЫРЫМ ЭТНОГРАФИЗМЛЕР Айнура Сайманова Мадреймовна	59
17.	ЎҚУВЧИЛАР КАСБИЙ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ТИЗИМИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ АМАЛИЙ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАР Камолахон Жу́раева Мамиржоновна	63
18.	Tilavov Yunus, To'xtamishova Durdona GILAM TO'QISH SIRLARINI O'QITISHDA "MAHORAT DARSI" USULINI QO'LLASH	68
19.	SONNING OXIRGI RAQAMIDAN FOYDALANIB 9, 11, 13, 17, 19, 20, 21, 23, 27, 29, 31 SONLARIGA BO‘LINISH BELGILARI Parpiyeva Dilobar Abdumannayevna, Hayitov Muzaffar Jaloliddinovich	72
20.	BOLALAR VA O‘SMIRLAR SPORT MAKTABLARIDA KURASH MASHG‘ULOTINI PEDAGOGIK TAKOMILLASHTIRISH Atajonova Gulyor Komiljon qizi	76
21.	DO‘STLIK VA O‘RTOQLIK - INSONPARVARLIKNING YUKSAK AXLOQIY ME’ZONI SIFATIDA Avazbekova Shohsanam Nurmamat qizi	81
22.	O‘ZBEKISTONDA DEMOGRAFIK MUAMMOLARNING O‘RGANILISHI Madaminov Ulug‘bek Maxamadjon o‘g‘li	87
23.	BIOLOGIYA — HAYOT HAQIDAGI FAN Ollaberganova Muhabbat Jumanazarovna, Tairova Klara	93
24.	HAMZA HAKIMZODA NIYOZIYNING O‘LMAS IJODIY MEROSI Ataxodjayev Muhammadjon Muzaffarjon o‘g‘li	96
25.	DRAMATURG VA AKTYOR HAMKORLIGI – AKTYOR UCHUN YOZILGAN SAHNA ASARLARI Qudratov Orifjon Alimovich	100
26.	MODERN HEAT MADE ON THE BASIS OF LOCAL RAW MATERIALS INSULATION MATERIALS A.Allambergenov, Y.Yuldasheva	105
27.	СТРУКТУРА ПОТЕРЬ ЭЛЕКТРОЭНЕРГИИ В ЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СЕТЯХ УЗБЕКИСТАНА Худаяров Музаффар Бурхонович, Сухенёв Роман Александрович	108
28.	O‘QUVCHILARGA PYTHON TILIDA REKURSIV DASTURLASHNI O‘RGATISH VA UNING SAMARALI USULLARI Kaipbayev Dauletbay Oralbayevich	116
29.	TALABALARGA TAQRIBIY HISOBLASHNING QOIDALARINI CHUQUR O‘RGATISH USULLARI VA METODIKASI Daulbayev A.	119
30.	BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O'QITISHNING ZAMONAVIY AXBOROT KOMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIGI Mengdovulova Zarnigor Botir qizi	122
31.	DEVELOPING STUDENTS' SPEAKING SKILLS BY TASK BASED LANGUAGE TEACHING Otaboyeva Naimaxon Narimon qizi	126
32.	ДИЗАЙНЕРСКИЕ ПРИНЦИПЫ ВИЗУАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ГОРОДСКОЙ СРЕДЫ Жуманазарова Райхан	129

БЎЛАЖАК ТЕХНОЛОГИК ТАЪЛИМ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Гадаймуратов Шуҳрат Мамаюсупович
Термиз давлат университетининг педагогика институти
https://doi.org/10.5281/zenodo.6693557

Анататция: Мазкур мақола бўлажак касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини ривожлантиришга бағишланган.

Калит сўзлар: Технология, кампетентлик, кўникма, малака, мутахасис, касб таълими, касбий кампетентлик, педагогика, дизайн.

Anatatsiya: This article is dedicated to the development of professional competence of future teachers of vocational education

Keywords: Technology, competency, skill, qualification, specialist, vocational training, professional competence, pedagogy, design.

Мамлакатимизда замонавий ижтимоий – иқтисодий шароитда рақобатбардош кадрлар тайёрлашни мукаммалаштиришнинг муҳим шарт-шароити замонавий фан, техника ва технологияларнинг ютуқларига асосланган таълим тизимини ташкил қилишдан иборатдир.

Бугунги кунга келиб мамлакатимизда таълим соҳасининг янада ривожланиши туфайли дурадгорлик соҳаси бўйича жаҳон талабларига ва бозор механизми талабларига жавоб берувчи мутахассисларга, технологик таълим бўйича педагогларга эҳтиёж ортиб бормоқда.

Бўлажак технологик таълим йўналиши бўйича касбий фаолиятга тайёрлашда ўзига хос салмоқли ҳиссаси бор. Улар эгалланиши лозим бўлган мутахассисликни ўрганишнинг асосини ташкил этади.

Таълимнинг асосий вазифаларидан бири аниқ бир касб бўйича талабаларда шакллантирилиши керак бўлган касбий кўникмалар асосини ташкил этувчи билим, кўникмалар ва малака тизимини ҳосил қилишдан иборат. Мазкур фанлар блокининг асосий мақсади тайёрланадиган мутахассисларни касбий фаолиятга тайёрлашнинг асосини ташкил этиб, улар бўлажак технологик таълим мутахассисларнинг амалий фаолияти учун шарт-шароит яратишдан иборат. Бунда ушбу блокка кирувчи фанлар мазмуни, ўқитиш мақсади ва вазифалари, методлари, шакллари, воситалари, ўтказилиш жойи, жиҳозланиши, улар учун ажратилган вақт бўйича бошқа фанлар блокларидан фарқли бўлади, чунки бу блок бўлажак технологик таълим мутахассисларни касбий фаолиятга тайёрлашда муҳим аҳамиятга эга. Шу сабабли бўлажак мутахассисларни тайёрлашда доимо ушбу соҳага тегишли моддий-техник база, ўқув-ахборот

таъминоти ва малакали ўқитувчилар билан таъминлаш касбий таълимда устувор вазифадир.

Умумкасбий ва ихтисослик фанларини ўқитишда психологик – педагогик қонуниятларни ҳисобга олиниши бевосита бўлажак технологик таълим ўқитувчининг касбий фаолиятини юзага келиши ва ривожланишида муҳим аҳамиятга эга. Бўлажак технологик таълими ўқитувчисининг касбий фаолияти – бу ўқув тарбиявий жараёнга ўзининг фаол муносабатларини билдириб, қўйилган мақсад ва вазифаларни амалга оширишда ижтимоий – иқтисодий нуқтаи назардан ёндашиб, комил инсон сифатлари билан бирга ақлий касбий тафаккурини ривожлантиришга ёрдам берувчи фаолиятдир. Шунинг учун ҳам касбий компетентликни ривожлантиришда, албатта, ҳар томонлама такомиллашган чуқур касбий билим зарурдир. Бўлажак технологик таълими ўқитувчиларига касбий фанлардан бериладиган билимларнинг ўзига хос синтезини аниқлаш ва бу синтезда қатнашаётган билимларнинг табиати, уларнинг ўзаро алоқадорлиги, тузилиши ва бошқа фанлар билан алоқадорлиги ҳақида маълумотларнинг таълим жараёнида бериб борилиши мақсадга мувофиқдир.

Ихтисослик фанлар блокига кирувчи фанларни ўқитишда назария билан амалиёт бирлиги муҳим аҳамият касб этади. Шу сабабли ҳам ихтисослик фанларидан ўқув услубий мажмуаларни яратишда уларга оид ўқув ахборотли услубий мажмуа ва мультимедиали таълим технологияларини жорий этишни эътиборга олиш лозим, чунки ҳозирги давр ахборот асридир.

Технологик таълимида амалий билимлар, кўникмалар ва малакалар назарий билимлардан кам эмас ва албатта улардан кўзланган мақсад бўлажак мутахассисларни касбий фаолиятга тайёрлашнинг самарали йўлларини яратиш ва жорий этишдан иборатдир. Бўлажак технологик таълим мутахассисларнинг касбий фаолиятида уларнинг касбий компетентлиги жуда қўл келади.

Ҳозирги даврда таълим тизими олдида турган долзарб вазифалардан бири ўқитишда замонавий педагогик технологиялар ва ютуқлардан кенг фойдаланиш, уларни таълим тизимида жорий қилиб бориш ҳамда ривожланган мамлакатларнинг тажрибаларини мамлакатимиз таълим тизимига тадбиқ қилиш муҳим ҳисобланади.

Бўлажак технологик таълим ўқув режага киритилган ва фанларининг мазмуни таҳлил қилиб чиқилганда, шу нарса маълум бўлдики, бўлажак ўқитувчиларнинг касбий компетентликларини ривожлантириш учун киритилган фанлар талабанинг касбий билим, кўникма ва малакаларини ҳар томонлама кенгайтиришга қаратилган.

Хулоса қилиб айтганда бўлажак технологик таълими ўқитувчилари таълим олувчиларга янги техника ва технология ютуқларидан ахборотлар берувчи асосий шахс ҳисобланади. Бунинг учун бўлажак технологик таълими ўқитувчиси олий ўқув юртида ўқиш даврида умумкасбий ва ихтисослик фанларидан чуқур билимларни эгаллаши, уларни ўз фаолиятида қўллай олиши керак. Шунингдек, бўлажак ўқитувчи-бакалаврларни тайёрлашда ихтисослик фанларидан замонавий таълим технологияларидан фойдаланиб илмий ёндошилган ҳолда билим бериш тақозо қилинади.

Фойдаланилган адабиётлар

1.Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантириш. -Т.: Фан нашриёти, 2004. -130 б.

2. Муслимов Н.А., Зупарова Д.Д., Каримова Н.Н. Становление дизайн образования в Узбекистане // Касб-ҳунар таълими. – Тошкент. 2017. - №3. – Б. 65-69.

3. Муслимов Н.А. Бўлажак ўқитувчиларни касбий фаолиятга тайёрлаш жараёнида компетентлик // Меҳнат ва касб таълими ўқитувчилари касбий компетентлигини таъминлашнинг интегратив технологиялари: Республика илмий-амалий конференция материаллари.- Тошкент: ТДПУ, 2010. - Б. 114-118.

4.Каримова Н.Н. Касбий компетентлик тушунчаси ва унинг мазмун-моҳияти // Касб-ҳунар таълими. – Тошкент. 2011.-№ 3.-Б. 20-23.

5. Каримова Н.Н. Касб таълими ўқитувчиларини амалий компетентлигини шакллантириш технологияси. Услубий қўлланма. – Т.: Иқтисодиёт нашриёти, 2012.- 59 б.

6. Педагогика назарияси (Дидактика) / Ҳасанбоев Ж., Тўрақулов Х.А. ва б.; Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2011. - 420 б.

7.Рашидов Х.Ф. Теоретико-методологические и социально-педагогические основы развития среднего специального, профессионального образования в Узбекистане (на материалах реализации Национальной программы по подготовке кадров): Дис.... докт. пед. наук. - Т.: ИПК и ПКСССПО, 2005. - 311 с.

O‘SMIRLARNING PSIXIK RIVOJLANISHIDA YANGI XISLATLARNING PAYDO BO‘LISHI

Kudaynazarova Sayyora Kungratbayevna
Qo‘ng‘irot tuman 40-maktab psixologi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6693759

Annotatsiya: ushbu maqola o‘smirlarning psixik rivojlanishida yangi xislatlarning paydo bo‘lishi haqida yozilgan bo‘lib, yoshlarni kata hayotga tayyorlash uchun ham yordam beradi.

Kalit so‘zlar: psixika, tafakkur, firklash, o‘smir, bolalik, maktab.

O‘smirlik davrida asosan bilish jarayonlari rivojlanadi. Bu yillarda o‘smirlar uchun hayot davomida kerak bo‘ladigan asosiy shaxsiy va tadbirkorlik xususiyatlari ochiq ko‘rina boshlaydi. Xotira, mexanik xotira darajasidan mantiqiy xotira darajasiga ko‘tariladi. Nutq rivojlangan, xilma – xil va boy tafakkur esa o‘zining barcha ko‘rinishlari: harakatli, obrazli, mantiqiy darajasida rivojlanadi. O‘smirlarni endi turli amaliyot va aqliy faoliyatlarga o‘rgatish mumkin. Shuningdek, bu davrda umumiy va masxus layoqatlar shakllanadi va rivojlanadi.

O‘smirlik davriga juda ko‘p ziddiyatlar va qarama – qarshiliklar mos. Maktab dasturini o‘zlashtirish va boshqa ishlar bilan bog‘liq turli masalalarni yechishda ko‘zga tashlanadigan o‘smirlarning intellektual rivojlanganligi kattalarni ular bilan birga jiddiy muammolar bo‘yicha fikrlashga undaydi, o‘smirlarning o‘zlari ham bunga harakat qiladilar. Boshqa tomondan esa, ayniqsa, kelajak kasb, xulq – atvor etikasi, o‘z majburiyatlariga mas’ullik kabi muammolar muhokamasida yosh bolalarga xos jismoniy va psixologik holatni kuzatish mumkin.

5 – 6 –sinf o‘quvchilariga sinfdagi o‘zi egallagan mavqeiga katta e’tibor berish xususiyati xos. Ayniqsa, 6 – sinfdan boshlab, o‘quvchilar o‘z tashqi ko‘rinishlariga, shuningdek, qarama – qarshi jinsdagi bolalar va ular bilan o‘zaro munosabatlariga e’tibor bera boshlaydi. 7 – sinf o‘quvchilarida esa, o‘z layoqatlarini rivojlantirishga xos qiziqish yuzaga keladi. 8 – sinf o‘quvchilari esa mustaqillik, o‘ziga xoslik, do‘stlik va o‘rtoqlik bilan bogliq bo‘ladigan shaxsiy xislatlarni yuqori baholashadi. O‘smirlarning ana shunday ketma – ket yuzaga kelib qoladigan qiziqishlariga asoslangan holda faol ravishda irodaviy ishbilarmonlik va boshqa foydali sifatlarni rivojlantirishi mumkin.

O‘smirlik davrida o‘quv fanlarini turli o‘qituvchilar o‘qitishlari bilan kattalar shaxsi va faoliyatini baholashning yangi mezonlari ham shakllana boshlaydi. O‘smirlik, asosan, bilimli, talabchan, haqqoniy, o‘quv materialini qiziqarli va tushunarli yo‘l bilan yetkaza oladigan, o‘quvchilarni ajratmaydigan o‘qituvchilarni

koʻproq hurmat qiladilar va yaxshi koʻradilar. Ular oʻqituvchilar bilan munosabatlariga ham katta e'tibor beradilar.

10 – 15 yoshli bolalarning faoliyat motivlarida ham oʻzgarishlar amalga oshadi. Ilk oʻsmirlik davrida koʻpchilik oʻsmirlar oʻzlariga salbiy shaxsiy xarakteristika beradilar. Katta boʻlgan sari oʻsmirning oʻz – oʻziga bergan bahosi differensial xulq – atvoriga, ijtimoiy vaziyatlarda oʻzini tutishga va ayrim xatti – harakatlarida namoyon boʻla boshlaydi.

Oʻsmirlik yoshidagi oʻquvchilarning emotsional xususiyatlari, oʻsmirlik yoshida, tahminan 13 – 14 yoshlarda, bolalarni emotsional kechinmalarida katta oʻzgarishlar boshlanadi. Shu yoshdagi bolalarda ta'lim ta'siri ostida abstrakt – mantiqiy va tanqidiy tafakkur ancha oʻsadi. Oʻsmirlar dunyoqarashi bilan bogʻliq boʻlgan masalalar bilan qiziqa boshlaydilar. Mana shularning hammasi intellektual va axloqiy hislarni oʻsishi uchun manba boʻlib qoladi. Oʻsmirlarda hayol kuchli ravishda oʻsadi. Hislarning oʻzi hayolning oʻsishiga yordam beradi va hayolning oʻzi ham xilma – xil chuqur emotsional kechinmalarning manbai boʻlib qoladi. Kelajak toʻgʻrisidagi orzular, qahramonlik, romantika shularning hammasi emotsional kechinmalarning manbaidir. Bu yoshda oʻziga baho berish hissi kuchli ravishda oʻsadi.

Oʻsmir yoshidagi bolalarning aloqa doirasining kengayishi va ularda ijtimoiy – siyosiy masalalarga qiziqish oʻsishi tufayli axloqiy hislar oʻsmirlar hayotida katta oʻrin oladigan boʻlib qoladi, ularda vatanparvarlik hissi yorqin namoyon boʻladi. Shu yoshda organizmda fiziologik oʻzgarishlar sodir boʻlishi sababli emotsional qoʻzgʻolishlarningxarakterida ham oʻzgarish roʻy beradi. Hislar kuchli ravishda namoyon boʻlaveradi, lekin koʻpincha bu hislar barqaror boʻlmaydi. Boshqa yoshdagi bolalarga qaraganda oʻsmirlarda injiqlik va arazlash koʻp boʻladi.

Oʻsmirlik davrida shaxslararo munosabatlar ham keskin oʻzgaradi. Oʻsmirlik davrida yetakchi faoliyat – bu oʻqish, mulqot hamda mehnat faoliyatidir. Oʻsmir uchun tengdoshlari bilan boʻlgan muloqot u mustaqil harakat qiladigan oʻzining shaxsiy munosabatlari muhitiga ajaraladi. U bungga haqliman deb oʻylaydi, oʻz huquqlarini himoya qiladi va aynan shuning uchun ham oʻrtoqlari bilan boʻlgan munosabatga kattalarning oʻrinsiz, qoʻpol aralashuvi oʻsmirning hafagarchiligi va noroziligiga olib keladi.

Oʻsmirda tengdoshlar bilan muloqot qilish va hamkorlikdagi faoliyatga intilish yaqqol namoyon boʻladi.jamoa hayoti bilan yashash, yaqin oʻrtoqlar, doʻstga ega boʻlish xohishi - doʻstlar tomonidan qabul qilingan, tan olingan, hurmat qilingan boʻlishdek kuchli xohishdir. Bu oʻsmirning muhim talabiga aylanib boradi. Oʻsmir uchun eng yoqimsiz vaziyat – jamoa va oʻrtoqlarining noroziligi, muloqot qilishni istamaslik, eng ogʻir jazo esa, ochiq yoki nooshkor aloqa uzish, gaplashmaslikdir.

O‘smirda psixik jarayonlarning keskin o‘zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burilishlar seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatd, o‘quvchi bilan o‘qituvchi munosabatida, kattalar bilan o‘smirlarning muomalasida qat’iy o‘zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar paydo bo‘ladi. Bular avvalo ta’lim jarayonida ro‘y beradi, yanggi axborot, ma’lumotlarni bayon qilish shakli, uslub va usullari o‘smirni qonitirmay qo‘yadi.

Odobli, dilkash o‘smir kutilmaganda qaysar, intizomsiz, qo‘pol, serzarda bo‘lib qoladi. O‘smir xulqidagi bunday o‘zgarishlar tajribasiz o‘qituvchi va ota – onasini qattiq tashvishga soladi.

O‘smirning ota – onasi, kattalar bilan qiladigan muloqoti, xarakteri ularning katta bo‘lganlik hissi asosida tuzilgan bo‘ladi. Kattalar tomonidan qilinadigan o‘smirlarning haq – huquqlarini cheklashlariga bildirgan qarshilik va e’tirozlariga o‘zlari ham qattiq ayg‘uradilar. Ular muloqotda kattalarning qo‘llab – quvvatlashlariga ehtiyoj sezadilar. Birgalikdagi faoliyat o‘smirga kattalarni yaxshiroq tushunishlari uchun yordam beradi. O‘smir o‘zida bo‘layotgan o‘zgarishlar, unitashvishga solayotgan muammolar haqida kattalar bilan bo‘lishishga katta ehtiyoj sezadi, lekin buni hech qachon o‘zi birinchi bo‘lib boshlamaydi.

Ota – onalar o‘smirga erkinlik bermasligi yoki o‘smirning shunday deb bilishi natijasida ular ota – onaga qarshi pozitsiyada bo‘ladilar.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, muloqot va munosabat asosida o‘smirlarda g‘urur hissi shakllana boshlaydi. Albatta, g‘urur me’yor yoki qoidalari kattalardan o‘rganiladi, lekin o‘z g‘ururini qanday himoya qilishi o‘smirlarning alohida nazoratida bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. T.,TDPU, 2002.
2. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. 1-2 tom. T., Fan, 2002.
3. G‘oziyev E.G‘. Ontogenez psixologiyasi. – T.:Noshir. 2010.
4. Davletshin M.G, Do‘stmuhammedova Sh.A., Mavlonov M.M., To‘ychiyeva S.M., “Yosh va pedagogik psixologiya” T. TDPU, 2004

“TO BE” FE’LI HAQIDA

Qarshiyev Nurbek
Beshariq Abu Ali ibn Sino nomidagi
Jamoat salomatligi texnikumi ingliz tili o‘qituvchisi
Jumanova Gulirano Mansurjonovna
56- maktab Ingliz tili o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6693914

Anotatsiya: "To Be" fe'li ingliz tilida eng ko'p qo'llaniladigan fe'llardan biri hisoblanadi. Ko'pgina qo'llanmalar ham aynan ana shu fe'lni o'rgatishdan boshlanadi. Men ham shu an'anani davom ettirgan holda, "to be " fe'lini dastlabki mavzu sifatida yoritmoqchiman. Maqolada "to be" fe'li haqida so'z yuritamiz.

Kalit so‘zlar: to be, ko‘plik, am, is, are, zamonlar.

1) "To be" fe'li ingliz tilidagi barcha fe'llar kabi bir xil funksiyani bajaradi, ya'ni gapning kesimi bo'lib keladi. Masalan: to be - bo'lmoq, to have - ega bo'lmoq, to come - kelmoq, to tell - aytmoq. Biroq "to be" fe'lini fe'l zamonlarida qo'llaganimizda uning shakllaridan foydalanamiz.

2) Shunday qilib, Hozirgi noaniq zamonda 'to be' fe'lining 3 ta shakli mavjud: am, is, are. Quyidagi jadvalga e'tibor bering:

"To be" fe'lining shaxs-sonda tuslanishi

Shaxs-son	Birlik	Shaxs-son	Ko'plik
1) I	am	1) We	are
2) You	are	2) You	are
3) He/She/It	is	3) They	are

Ko'rib turganingizdek, birinchi shaxs birlikda "am" ni ishlatamiz, ya'ni I am. Bu bilan siz tuzmoqchi bo'lgan gapingizni yarmini tuzib bo'ldingiz. Endi faqat "am" dan keyin keladigan so'zni qo'ysak bo'ldi. Masalan, biror kishini kasbini aytishda "to be" fe'lidan foydalanamiz. Demak, "I am a musician" deb aytishimiz mumkin. Jadvalni o'rganib chiqing va quyidagi gaplarni o'qing:

- I am a teacher - Men o'qituvchiman.
- You are tall - Sizning bo'yingiz baland.
- He is clever - U aqlli.
- She is 29 - U 29 yoshda.
- It is big - U katta.
- We are doctors - Bizlar shifokorlarmiz.
- They are students - Ular talabalar.

Quyida "to be" fe'lini qo'llash mumkin bo'lgan holatlar keltirilgan.2) "To be" fe'lining qo'llanilishi.

• am/is/are + kasblar: My father is a taxi-driver.

• am/is/are + sifatlar: She is very beautiful.

• am/is/are + sonlar: Anvar is 29 years old.

• this/that/these/those + is/are: This is a cat but that is a dog. These are computers but those are TV sets.

• There is/are: There are seven books on the table. There is box under the table. There are some bags behind the door.

Yuqorida to be fe'li yordamida bo'lishli gaplarni tuzishni o'rgandingiz. Shunday ekan quyidagi gaplarni tarjima qilishga harakat qiling.

Positive Sentences - Bo'lishli gaplar

I am a doctor. You are a bad student. He is a dentist. She is happy. It is cold today. We are at home. They are in the USA. You are good doctors. The cats are in the garden. Tom is ill today.The house is small. The nurse is an old woman.

Bo'lishli gaplardan tashqari inkor gaplar ham mavjud. Ularni yasash juda oson. "am/is/are" dan so'ng "not" so'zini yozsangiz kifoya. Demak: am not/ is not/ are not. Quyidagi gaplarni tarjima qilib ko'ring.

Negative Sentences - Inkor gaplar

She isn't my friend - U mening do'stim emas.They aren't here. I am not a fat girl. It isn't old. You aren't happy. He isn't at work. We aren't ready. It isn't big. My mother isn't old.The notebooks aren't on the desk. The man is not short.

So'roq gaplarni yasashda am/is/are ni gapning boshiga chiqarasiz. Berilgan gaplarni tarjima qiling.

Questions - So'roq gaplarAm I number 3? - Men 3 - raqammanmi?Is she your sister? Is it my bicycle? Are they at school? Is he a fat man? Aren't you doctors? Are we short? Isn't he ready? Is your father at home? Are Ted and Sam happy? Is your friend here?

DARS JARAYONLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TALABLAR

Xamidova Yulduz
Toshkent shahar Chilonzor tumani 178-IDUM
informatika fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6694010

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim jarayonlarida interfaol metodlarning tutgan o‘rni va ahamiyati haqida ma‘lumotlar keltirilgan.
Kalit so‘zlar: Interfaol ta’lim, reproduktiv, o‘quv reja, an’anaviy dars.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining ustuvor vazifalaridan biri mamlakat kelajagi bo‘lgan yoshlarni bilimdon, jismonan baquvvat, ma’naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashga qaratilgan. Ta’lim tizimida olib borilayotgan va izchil davom ettirilayotgan islohotlar zamirida bu buyuk maqsad mujassamdir.

Ma’lumki, tez o‘zgarayotgan axborotlashgan jamiyatda ta’lim muassasalarida bir tomonlama ta’limdan shaxsni har tomonlama rivojlantiradigan ta’limga e’tiborni kuchaytirish talab qilinmoqda.

Ta’limning bugungi vazifasi o‘quvchilarni kun sayin ortib borayotgan axborot — ta’lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko‘rsata olish, turli sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo‘llash va axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan, dars mashg`ulotlarining oson o`zlashtirilishi va ularning mazmun mohiyatini hayotda qo`llay olish, barcha fan dasturlarini to`liq o`zlashtirilishiga erishishdan iborat.

Hozirgi kunda barcha fanlar kabi informatika fani o`qituvchilariga ham darslarni zamonaviy pedagogik talablar asosida tashkil etish, darsga innovatsion yondashuvni, o`quvchilarni mustaqil fikrlashga o`rgatishni dars davomida shakllantirish kabi ilg‘or pedagogik texnalogiyalardan foydalanishni talab etadi. Interfaol metod – ta‘lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interaktiv (interfaol)-inglizcha so‘z bo‘lib, «interact»-«inter»-bu o‘zaro, «act» -bu -harakat qilmoq ma‘nosini anglatadi.

Umumlashtirganda esa —Interaktiv (interfaol) o‘zaro harakat qilmoq ma‘nosini anglatadi. An’anaviy hamda Interfaol dars orasidagi farqlar :

1. O‘quv rejadagi fanlarni o‘qitishda qaysi mavzular bo‘yicha interfaol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur. Bunda bir mavzu bo‘yicha mashg`ulotning maqsadiga to‘liq erishishni ta‘minlaydigan interfaol yoki an‘anaviy mashg`ulot turlaridan foydalanish ko‘zda tutiladi.

2. Interfaol mashg`ulotning samarali bo‘lishi uchun o‘quvchilar yangi mashg`ulotdan oldin uning mavzusi bo‘yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma‘lumotlarni bilishlarini ta‘minlash zarur.

3. Interfaol mashg`ulotda o‘quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun an‘anaviy mashg`ulotga nisbatan ko‘p vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.

Interfaol ta‘lim usuli – har bir o‘qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o‘z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Ta‘lim jarayoni faqat o‘qituvchi tomonidan boshqariladigan jarayon emas, u o‘quvchilar faoliyati bilan ham chambarchas bog‘langan. O‘quvchining o‘z-o‘zini boshqarishi natijasida o‘quv jarayoni faollashadi. Informatika darslarida o‘quvchining o‘zini o‘zi nazorat qilishi, yo‘l qo‘ygan xatolarini o‘zi aniqlashi va bartaraf etishi, mustaqil holda xulosalar chiqarishi, reproduktiv, qisman izlanuvchanlik va ijodiy topshiriqlarni bajarishda ishtirok etishi o‘quvchi faolligini oshirdi va uni amalga tatbiq etilishiga samarali ta‘sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol ta‘lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi-o‘quvchilarning muloqot olib borish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini rivojlantiradi, o‘quvchilar orasida emostional aloqalar o‘rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o‘z o‘rtoqlarining fikrini tinglashga o‘rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta‘minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Moliya. 2012.

2. R.Ishmuhammedov, M.Yo‘ldoshev. Ta‘lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (Ta‘lim tizimi hodimlari metodistlar, o‘qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o‘quv qo‘llanma) – T: 2013.

BILIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Matkarimova N.X
Toshkent shahar Chilonzor tumani 178-IDUM
informatika fani o‘qituvchisi
Tulyaganova N.X
Toshkent shahar Uchtepa tumani 203- maktab
informatika fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6694400

Annotasiya: ushbu maqolada bilim samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalar haqida yozilgan, unda bilim berishdagi turli xil texnologiyalar haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: texnologiya, bilim, tajriba, Verbal vositasi, ta’lim, metod.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar ta’lim tizimida sezirarli darajada o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Mustaqil O‘zbekistonimizning ustuvor vazifalaridan biri mamlakat kelajagi bo‘lgan yoshlarni bilimdon, jismonan baquvvat, ma’naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashga qaratilgan. Ta’lim tizimida olib borilayotgan va izchil davom ettirilayotgan islohotlar zamirida bu buyuk maqsad mujassamdir.

Ma’lumki, tez o‘zgarayotgan axborotlashgan jamiyatda ta’lim muassasalarida bir tomonlama ta’limdan shaxsni har tomonlama rivojlantiradigan ta’limga e’tiborni kuchaytirish talab qilinmoqda.

Zamonaviy ta’lim muassasasidagi o‘quv jarayonining asosiy vazifasi - bu o‘qitish sifatini yangi pog‘onaga ko‘tarishdir. Shunga ko‘ra, o‘quvchiga munosabat, ularga yondashish tamoyillari o‘zgardi. Zamonaviy dars jarayonida har bir o‘quvchiga uning o‘ziga xos xususiyatlari va shaxsiy tajribasini hisobga olgan holda o‘quv jarayonida ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratildi. Bunday yondashishda o‘quvchilar o‘z tengdoshlari bilan muloqot qilish, olgan bilimlarini amaliy qo‘llash, ushbu bilimlarni kundalik hayotimizda qayerda, qanday va qaysi maqsadlarda qo‘llanilishini anglab olish imkoniyatlariga ega bo‘ldi.

Endilikda o‘quvchi nafaqat bilim, ko‘nikma va malaka oluvchi, balki mustaqil fikr yurita oladigan, axborot, internet va qo‘shimcha manbalardan yangiliklarni izlovchi, tahlil qiluvchi hamda tadqiqotchidir. Yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda ta’limdagi o‘qitish metodlarining zamonaviy to‘plamini, metodik va didaktik materiallarni yaratish hamda mavjud darslik va o‘quv qo‘llanmalarni o‘rganishga o‘zgacha yondashishni talab qiladi.

Turli o‘quv fanlardan bunday tajriba-sinovlarni tashkil etish va o‘tkazishning mohiyati o‘quvchining salohiyati va uning o‘ziga xosligini to‘laligicha ochib berish imkoniyatini yaratuvchi yangi metodikalarni sinovdan o‘tkazish va joriy etishdan iboratdir. Ta’lim jarayonida tajriba tadqiqotlarni o‘tkazishdan ko‘zlangan asosiy maqsad ta’lim berishning sifatini yangi pog‘onaga ko‘tarishdir.

O‘quvchilarning fanlar bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi darsning sifati va samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchiga beriladigan ta’limning sifatini oshirishda darsni to‘g‘ri rejalashtirishi, eng avval, darsning maqsadini to‘g‘ri va aniq belgilab olishi zarur.

Maqsadni belgilashda quyidagilarni belgilab olishi zarur:

1.Natijaga erishish uchun ketadigan vaqtni;

2.O‘quvchining ehtiyoji va imkoniyatlarini;

3.O‘quvchini shu maqsadga erishishga harakat qilishga undaydigan metodlarni;

4.Natijani aniqlaydigan nazorat turlarini.

Yuqorida qayd etilgan maqsadga erishishda asosiy talablardan biri - o‘qitish jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilishdir.

Pedagogik texnologiya, tor ma’noda - axborotlarni o‘zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi ma’no-mazmunlarni hamda axborotlar orasidagi turli bog‘liqliklarini ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o‘rgatish jarayonidan iborat. Pedagogik texnologiya, keng ma’noda esa - ta’lim metodlari, usullari hamda tarbiyaviy vositalar yig‘indisi, u pedagogik jarayonning tashkiliy- uslubiy vositalar majmuidir. Umuman olganda, pedagogik texnologiya bu butun o‘qitish va bilimlarning o‘zlashtirish jarayonini texnik resurslar va insonlarning o‘zaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish, qo‘llash va aniqlashning tizimli metodidir. Pedagogik texnologiya dars jarayoniga qo‘llanganida o‘quvchining mustaqil o‘qishga, bilim olishga, fikrlashga o‘rgatish kafolatlanadi. Bu jarayonda o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchi mustaqil ravishda bilim oladi, o‘rganadi, o‘zlashtiradi. Demak, pedagogik texnologiya insonga oldindan belgilangan maqsad bo‘yicha ta’sir o‘tkazish faoliyatidan iboratdir. Bu faoliyatni amalga oshirish, uni tashkil kilish, olib borish, takomillashtirish, tahlil qilish, tadqiq qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, boshqarish, nazorat qilish, baholash kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish uchun o‘ziga xos vositalar zarur bo‘ladi. Verbal vositaning asosini axborot tashkil qiladi. Shu axborotlarni o‘quvchilar tushuna oladigan mantiqiy shakllarda ifodalash o‘quvchi bilan o‘qituvchining verbal muloqotini tashkil qiladi. Verbal muloqot shakllari har xil bo‘lib ularning asosiylari nutq so‘zlash, ma’ruza, suhbatlashish, savol so‘rash, savolga javob berish, bahs-munozara, xabar berish kabilarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda o‘quvchilar diqqatni jamlash, tinglash, eshitish, anglash, tushunish, idrok etish, mantiqiy fikrlash, xotirada

saqlash, qayta eslash faoliyatlari bilan band bo‘ladilar. Bunda o‘quvchining qiziqishi, havasi, ehtiyoji, manfaatdorligi, qobiliyati, iste’dodi, iqtidori uning muvaffaqiyatiga asos bo‘ladi.

Noverbal vositalar imo-ishora, qo‘l, gavda harakatlari orqali biror ma’no-mazmunni ifodalash yoki ta’kidlashdan iborat. Insonning har bir harakati ma’lum ma’noga ega bo‘lib, ularning o‘rnini boshqa narsa bosa olmaydi. Bu harakatlarni noverbal nutq deb nomlash qabul qilingan. Noverbal nutq insonning u yoki bu muskullarining harakati orqali amalga oshiriladi.

Vizual vositalar pedagogik texnologiya jarayonida o‘quvchilar ko‘z bilan ko‘rishlari uchun mo‘ljallangan barcha vositalarni o‘z ichiga oladi. Bular: tasvirlar, kitoblardagi yozuv va tasvirlar, tarqatma materiallar, o‘quv plakatlar, fotosuratlar, video, kino tasvirlar, turli buyumlar va boshqalardir.

Bu jarayonda o‘quvchining faolligi, diqqatni jamlash, ko‘rish, kuzatish, tasavvur qilish, fikrlash, idrok etish, xotirada saqlash va shu kabilardan rivojlanadi. Audio vositalari eshitish orqali axborotni o‘rganish, o‘zlashtirish imkoniyatini beruvchi magnitafon tasmasi, turli disklar va boshqa tabiiy ovozlar bo‘lishi mumkin. Bu pedagogik vositalardan samarali foydalanish uchun o‘quvchining qobiliyati, imkoniyati xususiyatlarini hisobga olinishi maqsadga muvofiqdir.

Tabiiy vositalarga pedagogik texnologiya jarayonida o‘rganish ko‘zda tutilgan mazmunga tegishli barcha tabiiy narsalar kiradi. Bular: qurilmalar, asbob-uskunalar, buyumlar va shu kabilar. O‘qituvchi va o‘quvchi uchun zarur bo‘lgan o‘quv qurollari ham pedagogik texnologiyaning zarur vositalaridan hisoblanadi. Pedagogik texnologiyaning sifat va samaradorligi hozirgi kunda ko‘p jihatdan barcha turdagi zaruriy vositalarning sifati va ulardan yuqori samaradorlik bilan foydalanishni bilishga bog‘liq. Bu vositalardan to‘g‘ri va unumli foydalanish o‘qituvchining malakasi, mahorati, ijodkorligi va izlanuvchanligiga bog‘liq.

Demak, ilg‘or pedagogik texnologiya ta’lim tizimining ratsional yo‘llarini ishlab chiqaruvchi va loyihalashtiruvchi jarayon bo‘lib, unda o‘qituvchi asosiy mas’ul shaxs hisoblanadi. Chunki, uning asosiy vazifasi axborotlarni o‘quvchilarga tez, aniq va tushunarli tarzda etkazib berishdan iboratdir.

O‘quvchilarning yangiliklarni qabul qilishlari va bunga moyilliklari hamda fe’l atvori har xil bo‘lishiga qaramay, o‘qituvchi o‘quvchilar fikrini o‘rganiladigan ob’ektga jalb qilish, undan muammo topish yoki imkoni bo‘lsa o‘quvchilarning o‘zlarini mazkur ob’ektdagi muammoni mustaqil holda o‘ylashga rag‘batlantirishi muammoli vaziyat yaratib, ularning diqqatini safarbar qilishi, tafakkurni faollashtirishi, o‘quvchilarga o‘zlaricha mulohaza yuritib zarur xulosalar va umumlashtirishlar chiqarishida yordam berishi, ularni kuzatishga, eslab qolishga, ijodkorlikka o‘rgatish, olgan bilimlari bilan kuzatilgan hayotiy dalillar va hodisalarni

taqqoslash shu asosida to‘g‘ri xulosalar va umumlashmalar chiqarishga yo‘naltirilmog‘i kerak.

Bugungi kundagi o‘qituvchi tayyor elektron resurslar asosida dars o‘tish bilan chegaralanmasdan balki, ta’limiy resurslarni yaratish hamda uni amalda qo‘llovchi o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari imkoniyatlardan samarali foydalanish fan va uning tarkibiga kiruvchi bilimlar mazmunini o‘quvchilarga etkazish malakasiga ega shaxs sifatida faoliyat olib borishi lozim.

TA`LIM JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Dexqonova Sadbarxon Xusanbayevna
Toshkent shahar Chilonzor tumani 178-IDUM
informatika fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6694498

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim jarayonlari samaradorligini oshirish yo‘llari haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, interfaol uslublar, kommunikativ faoliyat.

Ta`lim jarayoni samaradorligini oshirish, ta`lim oluvchilarning mustahkam nazariy bilim, faoliyat, ko`nikma va malakalarini shakllantirish, ularni kasbiy mahoratga aylanishini ta`minlash maqsadida o`quv tarbiya jarayonida interfaol metodlardan foydalanish davr taqozosi hamda ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibiga qo`yilmoqda.

Hozirgi kunda o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish, uning mazmun mohiyatini bilish, uni ta‘lim jarayoniga tadbiq qilish va metodikasini yaratish juda muhimdir. Pedagogik kadrlarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashda ularning metodik tayyorgarligini shakll antirish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish mazkur jarayonning samaradorligini orttirishga zamin tayyorlaydi.

Innovatsiya inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib yangilik kiritish, yangilik degan ma‘nolarni bildiradi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol usullaridan foydalanadi. Interfaol- bu o‘zaro, harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo‘lishni anglatadi1.

O‘qitishning interfaol usulubiyotlari bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo‘lib, unda ta‘lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo‘ladilar, ular biladigan va o‘ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Interfaol darslarda o‘qituvchining o‘rni qisman o‘quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo‘naltirishga olib keladi. Bu uslublarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchilarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bundan pedagogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularga o‘quvchining dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi, o‘quvchilarning o‘quv jarayonida fanga bo‘lgan qiziqishlarini domiyligini ta‘minlanishi, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir

masalaga ijodiyo yondashgan holda kuchaytirilishi, pedagogik va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etishlari kiradi.

Ana‘naviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta‘lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta‘lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayonini oqilona tashkil etilishi, o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta‘lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va o‘quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Ta‘lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularning manfaatdorligini (motivasiyasini) oshirishga ko‘maklashish imkoniyatlariga ko‘ra, shuningdek, har xil turdagi multimediali o‘quv axborotlarining uyg‘unlashuvi, interfaollik, moslashuvchanlik sifatlariga ko‘ra multimedia foydali va mahsuldor ta‘lim texnologiyasi hisoblanadi. Interfaollikning ta‘minlanishi axborotlarni taqdim etishning boshqa vositalari bilan taqqoslaganda raqamli multimedianing muhim yutuqlaridan hisoblanadi. Interfaollik ta‘lim oluvchining ehtiyojlariga mos ravishda tegishli axborotlarni taqdim etishni nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.R.Ishmuhammedov, M.Yo‘ldoshev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (Ta‘lim tizimi hodimlari metodistlar, o‘qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o‘quv qo‘llanma) – T: 2013.

2. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Moliya,

LISTENING IS AN INTEGRAL PART OF COMMUNICATION PROCESS

Turdiyeva D.Z.
Master student of Samarkand State Institute of Foreign languages
Scientific adviser: **Obrueva G.Kh.**
https://doi.org/10.5281/zenodo.6694562

Abstract: Listening is used in any verbal communication subjected to different purposes. It is impossible to study and use foreign language without listening skills. This article is devoted to peculiarities of listening comprehension.

Key words: listening comprehension, script, audio and video text, monologue, dialogue, listening practice, linguistic skills, sociocultural skill, interlocutor, teaching listening skill.

Listening is ability to accurately receive and interpret messages in the communication process. Listening is key to all effective communication. Apart from that listening is one of the main sociocultural skills, which takes an important place in the development of communicative competence and sociocultural knowledge. Sociocultural knowledge and skills are developed during communication, reading, writing, listening and discussions in a target language. Listening is the ability to identify and understand what others are saying. This includes understanding a speaker's pronunciation or accent, his grammar and vocabulary, and grasping his meaning [6, 287].

All the main language skills: reading, writing, speaking, listening are interrelated. So, it is impossible to develop one particular skill separately from others. Thus, learners should be able to communicate in a foreign language to be understood by native speakers. Teaching listening in a secondary school is aimed at the development of the following listening skills that learners should acquire to understand the main information in authentic expressions of everyday situations, to understand native speaker's spontaneous speech, to extract particular or specific information from audio and video texts of different genres and styles. The guarantee for the development good listening skills may be the development of necessary sociocultural knowledge about the target language country, matching the facts of native and target language culture. They should try to avoid faulty pronunciation, errors in grammar or vocabulary, inappropriate or offending style, otherwise, they confuse interlocutor. It is important for a teacher to have a clear understanding of what listening is, why foreign-language learners have difficulties in it, and what solutions we can find. The burning question is how to fill a gap between peculiarities of listening and up-to-date classroom teaching. Traditionally, much classroom

practice consisted of the teacher reading aloud a written text, one or more times, slowly and clearly, and then asking a number of comprehension questions about it. In such approach much attention is not given to the skill itself, or the characteristics of natural spoken English. There is nothing wrong with this approach in itself, but it could claim to be teaching listening comprehension. There are many current listening materials that can be found in the Internet and brought into the classroom. They manipulate both language and tasks, and take into account a range of skills, listener roles, topics and text types. Such approach will be more useful for learners.

Listening is very motivating for language learners, because it gives them information about current world events and the target culture, and puts them in touch with the world outside the borders of classroom and the school. A capable listener is able to perform these four things simultaneously. The most important aspect in listening is ‘comprehension’. ‘Comprehension’ involves extracting meaning from a text, from participating in a conversation or from listening to a person or people speaking [1,14].

When listening to the recording learners often believe that everything that is said is important. This leads to ineffective comprehension, feelings of fatigue and failure. So, learners need practice in selective ignoring of heard information. The ability to understand the main message is of primarily importance for effective listening in a communicative situation. Need to hear things more than once. When students listen to the types of text such as radio and television programs, audio books, lectures, and so on it is often difficult or impossible for them to stop speakers and ask them to repeat or clarify something they have missed or failed to understand. Foreign language learners tend to read more than to listen, because teachers devote very little time to listening in the classroom that is why it creates a need to listen a passage more than one time.

From pedagogical point of view, it is useful for learners to listen to the same texts more than once. But in real life they often have to cope with ‘one-off’ listening; and teachers should improve their ability to do so. For this purpose, teachers can use texts with ‘redundant’ passages in which the important information is presented more than once and not too intensively. Speaker’s facial expression, posture, eye direction, gesture, tone of voice enriches the content and implications of what is said. Such items contribute spoken information and facilitate listener’s comprehension [5,115].

We should also define such factor as is lack of sociocultural and contextual knowledge of the language studied that creates some difficulties for learners in listening comprehension. First of all, a teacher should classify listening materials from the easy to more difficult ones and use materials according to their level. A teacher also should familiarize students with authentic material as well as former sentences and expressions. From time to time listening material should become more

and more complicated and totally authentic. It is important and facilitates listening comprehension when students are provided with background information and various inputs, such as lectures, films, interviews, everyday conversation, TV programs, storytelling, English songs, and so on. According to Brown and Yule audio texts can be divided into three types: static, dynamic and abstract [2,272].

To static texts they refer texts of descriptive and instructive character; dynamic texts are the texts of narrative character which recount an incident; those that express someone's ideas or beliefs refer to abstract texts. All types of texts present different kinds of difficulties, so, to prevent them three types of input should be provided. One more important feature is to provide feedback on learners' performance and observe students' reaction. Thus, a teacher can keep activities purposeful. It can help fulfill error correction and learners' encouragement. Following students' feedback a teacher is aware how the class succeeds and should be managed [2,274].

Listening exercises are divided into three stages: pre-listening, while listening, post-listening. Each stage contains different types of activities. For example, activities (warm-up exercises) referring to pre-listening stage are discussion, prediction about the topic (based on visuals), brainstorming, games, guiding questions.

While-listening stage may include the following activities: comparing passage with prediction, filling in gaps, repetition of the phrases, completion utterances recorded, monitoring mistakes or differences, search of the information, paraphrasing, information transfer, filling in blanks.

Post-listening exercises are: true/false or multiple choice questions, problem solving, summarizing, jigsaw listening, writing based on listening material – letters, telegrams, messages, postcards, speaking as a final stage of listening activities – interview, debate, discussion, dramatization, role play related to listening material. It is a teacher who can arrange listening process with the help of various pre-listening, while-listening and post-listening tasks so that students were completely engaged and benefit from the listening process. A teacher should try to make listening exercises success-oriented. When students succeed they feel more confident in their listening ability. Students should be aware of listening goal. If a teacher conducts a lesson in a foreign language using audio and audiovisual means, he creates a prototype of foreign environment, approaching learning process to real foreign language communication.

In conclusion, listening takes a significant place in language learning and teaching, that is why it is important for language teachers to help pupils become effective listeners, capture their interest, stimulate their imagination and motivate them. However, listening is to be the most difficult skill for students to acquire. The problem is that students lack skills in listening, motivation and memory retention.

Due to different approaches to language teaching that commonly used today a teacher can motivate learners, help them develop listening skills and cope with challenges.

Reference:

1. Anderson, A. and T. Lynch. Listening. London: Oxford University Press. 1988. -14 p.
2. Brown, G. and G. Yule. Teaching the spoken language. Cambridge: Cambridge University Press.1983. -272-274 pp.
3. Cameron L. Teaching Languages to Young Learners. - Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
4. Chaudron, C. Foreign talk in the classroomAn aid to learning. In Classroom oriented research in second language acquisition: Newbury House. -1983
5. Larsen-Freeman D. Techniques and principles in language teaching. – Oxford. – 1986. -115 p.
6. Soler E.A., Safond Jorda. Intercultural Language Use and Language learning. – Springer, 2007. -287 p.

BOLADA SHAKLLANADIGAN O‘G‘RILIK MA’NAVIY ILLATINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Serjanova Zamira Utepbergenovna
Qaraqalpig‘iston Respublikasi Qo‘ng‘irot tumani
31-sonli maktab psixologi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6694629

Annotatsiya: ushbu maqola bolada shakllanadigan o‘g‘rilik ma’naviy illatining psixologik xususiyatlari haqida yozilgan bo‘lib, unda o‘simlikda paydo bo‘ladigan hususiyatlar, ularda kechadigan psixik jarayonlar yoritilgan.
Kalit so‘zlar: individual, tarbiya, kasb, xulq-atvor, Kurt Levin.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, huquqbuzarlik sodir qilgan yoshlarning 62,2 foizi bo‘sh vaqtlarini ko‘chada, bemaqsad va nazoratsiz o‘tkazar ekan. Voyaga yetmaganlar hamda yoshlar huquqbuzarliklarining oldini olishda ota-onalarning ishtiroki tahlil etilganda, ularning 42,8 foizi farzandlari tarbiyasiga e’tiborsiz ekani, 48,7 foizi bolalarini yetarli darajada tarbiyalay olmasliklari aniqlangan.

Bugungi kunda bolalar orasida o‘g‘rilik sodir etish holatlari tez-tez uchrab turadi va shu bois ham bu muammoni har bir aniq holatda jiddiy tarzda o‘rganib chiqish talab qilinadi. Bunda bolalarning yosh va individual xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etishini unutmaslik lozim. Masalan, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar o‘g‘rilik qilishi, yolg‘on gapirishi mumkin. Ba’zida bolalar ota-onasidan «yo‘q», «mumkin emas» kabi javoblarni eshitishdan xavfsirab, o‘z hayotiga doir xatti-harakatlarga ruxsat so‘ramaslik uchun yolg‘on gapiradi. Birovning narsasini olgan har bir bolani ham o‘g‘ri deb bo‘lmaydi.

5-6 yoshgacha bolalar o‘zining va begonaning narsalari o‘rtasidagi farqni to‘liq anglab yetmasligi mumkin. Bolalar sodir qilgan o‘g‘rilik ota-ona uchun, ayniqsa, u sistemali tus olganida, o‘ta og‘riqli holatdir. Bola xulqidagi bu kabi og‘ish ota-onalarni qo‘rqitadi va turlicha namoyon bo‘ladigan ojizlik reaksiyasini keltirib chiqaradi. Bu kabi holatga duch kelgan ota-onalar ko‘pincha bolani, shu xatti-harakatga undagan sababni so‘rab ham o‘tirmay, jismonan jazolashadi. Biroq bunda ota-onalar «bolalar o‘g‘riligi» kattalarnikidan farq qilishini, bola hali qanchalik yomon ish qilayotganini to‘liq anglab yetmasligini yodda tutishlari kerak. Bola tasavvurida, u shunchaki o‘ziga yoqqan narsani oladi, xolos. Shunday bo‘lishi ham mumkinki, bola begonalar narsasini olish mumkin emasligini anglab yetadi, ammo shaxsning irodavay sifatlari hali rivojlanmagani bois e’tiborini tortgan o‘yinchoqdan voz kecholmaydi, uni egallash fikridan qayta olmaydi va o‘g‘rilik qiladi. Ota-onalar bolaning xulqiga munosabati bilan unga yaxshi yoki yomon ish qilganini bildiradilar.

Shu sababdan, o‘z bolasini birovning narsasini olgani uchun jazolashdan avval, ota-ona uning yaxshi va yomonni farqlay olishiga ishonch hosil qilishi lozim. Aks holda qo‘llangan jiddiy jazo bola ruhiyatiga jiddiy jarohat yetkazishi, bola o‘zi bilan o‘zi bo‘lib qolishi, tegishlicha xulosalar chiqara olmasligi mumkin.

Bu bilan bola xatti-harakatiga bee’tibor bo‘lishga chaqirmoqchi emasmiz, biroq unutmaslik lozimki, o‘g‘rilik sabablari turlicha bo‘lishi mumkin. Shunday oilalar borki, turli sabablarga ko‘ra bola ota-ona e’tiboridan tashqarida qolib ketadi, ota-ona bola haqida faqat sirtdan g‘amxo‘rlik qiladi (yediradi, kiydiradi), bola ixtiyori esa o‘zida bo‘ladi. Uning ma’naviy ehtiyojlari, axloqi va qiziqishlariga e’tibor berilmaydi, ustiga-ustak uning yurish-turishi, o‘qishi nazoratsiz qoladi. Ilk marta mayda o‘g‘rilik qilgan bola ko‘proq ota-ona e’tiborini tortmoqchi bo‘ladi va ular reaksiyasini kutadi. Bolani qoralashdan oldin uni o‘g‘rilikka nima undayotganini tushunishga urinmoq lozim. Ko‘p hollarda bu muammo ota-onaning farzandini xatti-harakatlariga e’tiborsizligi oqibati bo‘lib, bola shu yo‘l bilan atrofidagilarni o‘ziga e’tibor qaratishga majbur qiladi. Biroq u o‘zining jazosiz qolishini bilsa, o‘z yomon ishini takrorlashi, uni jazolashlari mumkinligiga shubha ham qilmasligi mumkin. Bola bilan nima sodir bo‘lsa-da, undan yuz o‘girmaslik, aksincha o‘zini o‘nglab olishiga imkoniyat berish kerak.

Chunki keyinchalik bola o‘sishi bilan o‘g‘rilik muammosi murakkablashib boradi, kichik bolalikdagi tasodifiy epizod yoki xato o‘spirinlikda (12-16) anglab qilingan harakat, hatto bolaga bolalik va o‘smirlik davrida hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadigan zararli odat tusini oladi. Bu yoshda ota-onaning va yaqinlarining shaxsiy namunasi xulq-atvor reaksiyalari va xarakterga oid xususiyatlarning ma’lum bir stereotipi shakllanishida hal qiluvchi omillardan biri sanaladi.

Nemis psixologi Kurt Levinninig ehtiyojlar dinamik nazariyasiga ko‘ra, insonning butun hayoti qandaydir «psixologik maydonda» o‘tib, insonni o‘rab turgan predmetlar unga jalb etuvchi va uzoqlashtiruvchi ta’sir o‘tkazadi (K.Levin terminologiyasida-predmet valentligi). Bunda predmetlar u yoki bu darajada insonda mavjud ehtiyojlarga bog‘liq holda ta’sir etadi. Inson predmet bilan hayotiy makonda qanday munosabatga kirishishiga ko‘ra K.Levin irodaviy va maydonga oid xulq-atvorni farqlaydi. Irodaviy xulq-atvor maydonda mavjud kuchlarni yengishda namoyon bo‘lsa, maydonga oid xulq-atvor inson maydon ta’siriga berilishi, undan yuqori bo‘la olmasligi bilan xarakterlanadi.

Oddiy misol keltiramiz: avtobusda bola yonida turli xil chiroyli toshlar yopishtirilgan yorqin rangli sumka ko‘targan ayol turibdi. Bola uni ushlab ko‘rgisi keladi. Shu tariqa bola o‘zini tortgan ob’ekt maydoniga tushadi. Biroq u buni qilish mumkin emasligini biladi. Bola havasini yenga olmay sumkaga yopishsa maydonga oid xulq-atvor namoyon bo‘ladi, kuchli xohishga qaramay, unga tegmasa, irodaviy xulq-atvor haqida gapirish mumkin bo‘ladi.

Bola baribir sumkaga tegib, o‘ziga yoqqan toshni olmoqchi bo‘lsa, bolaning individual xususiyatlariga irodaviy xulq-atvor jarayonlarining tormozlanishi va kuchli ifodalangan maydonga oid yoki vaziyatli xulq-atvorni kiritish mumkin. Bola o‘z harakatlarini qiyinchilik bilan ongli boshqaradi va u har safar u yoki bu predmet ta’siri ostiga tushib qolishi mumkin.

Albatta, yuqoridagi xatti-harakatlar sabablari faqat kuchli ifodalangan maydonga oid xulq-atvor emas, balki bola axloqiy ongi yetarlicha rivojlanmaganidir va bu holat bolaga shu kabi ish tutish imkonini beradi. Shubhasiz, 7-8 yoshli ko‘plab bolalar hatto kichikroq yoshdagilar ham boshqaning narsasini olmaydi, zero bu axloqiy me’yor unga «ona suti bilan kirgan ». Biroq ko‘plab bolalar axloq masalalariga umuman e’tibor berilmaydigan oilalarda tarbiya oladilar. Ular ko‘pincha kattalarning ishxonadan biror nimani olib kelishlarini oddiy hol deb bilishlari va buni muhokama etilmaydigan narsa deb qabul qilishlarining guvohi bo‘ladilar. Bu kabi sharoitda katta bo‘lgan, impulsiv xulq-atvorga moyilligi bo‘lgan bolalar o‘z xatti-harakatiga beparvo bo‘ladilar, oqibatlarini o‘ylab o‘tirmaydi va fikr yuritmaydi, o‘g‘rilik deb atash mumkin bo‘lgan ishni qilish uning uchun qiyin bo‘lmaydi ham.

Yuqorida keltirilgan xatti-harakatni o‘g‘rilik deb bilmasdan, bolaga ko‘ngilsiz xususiyatlarini yengishga yordamlashilsa, uning shaxsi va axloqini rivojlantirilsa, bolaning rivojlanishida garchi bunga zamin bo‘lgan bo‘lsa-da, u asotsial yo‘ldan bormasligi ehtimoli ko‘proq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Yo‘ldoshev U.A., Po‘latov M. Amaliy psixologning ish kitobi. - Navoiy, 2000.

2. Muomala treningi (Tuzuvchilar: G‘oziev E., Toshimov R.) – T.:«Universitet», 2014 y.

3. Adizova T.M. O‘quvchilarning shaxslararo munosabatlari psixologik diagnostikasi va korreksion ishlar. –T., 2005 y.

4. Anikeev N.P. Jamoada ruhiy muhit. –T.: - O‘qituvchi, 1993 y.

ZARDUSHTIYLIK DINING VUJUDGA KELISHI

Eshamanova Sanobar Abdusamadovna
Yakkabog‘ tumani 50-maktabning
tarix fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6694688

Annotatsiya: ushbu maqola zardushtiylik dining vujudga kelishi haqida yozilgan bo‘lib, unda zardushtiylik dini, urf-odatlari, zadusht haqida ma’lumotlar mavjud. O‘rta Osiyadagi dinlar haqida ham ma’lumotlar yozilgan.
Kalit so‘zlar: din, zardusht, xorazm, Avesto, Firdavsiy.

Zardushtiylik eng qadimgi dinlardan bo`lib, bu din eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda dastavval O`rta Osiyoda-Xorazm vohasida paydo bo`lgan. Uning payg`ambari Zardusht tarixiy shaxs edi. U mazdaiylik dinini isloh qilib, uning asosida yangi Yakkaxudolik dinini ijod etgan.

Zardushtiylik-ilgarigi diniy tasavvurlar va ko`p xudochilikka asoslangan diniy e`tiqodlarni takror Zardusht isloh qilishi oqibatida yuzaga kelgan dindir. Bu qadimiy din haqida bir-birini istisno etuvchi fikrlar hanuz davom etib keladi. Ko`p tadqiqotchilar Zardusht tarixiy shaxs bo`lib, milodgacha 589-512 yillarda yashab ijod etgan birinchi ilohiyotchi, faylasuf, tabiyotshunos va shoir ekanini e`tirof etadilar. Bu haqiqatga yaqindir.

Zardushtiylik paydo bo`lgan davr dastlabki sinfiy jamiyat, ya`ni quldorlik tuzumi endigina paydo bo`layotgan davr edi. U urug`-qabilachilik tuzumi yemirilib aholi qullar va quldorlarga, zolim va mazlumlarga bo`linayotgan davr bo`lgan. Bu din eng avval O`rta Osiyo, so`ng Eron, Ozorbayjonda qaror topgan edi.

I.A.Karimov “O`z kelajagimizni o`z qo`limiz bilan qurmoqdamiz” degan asarida biz o`zbek xalqi mansub bo`lgan xalqning tarixi g`oyat uzun, beqiyos, betakror ekanini ta`kidlab, bunday degan edilar; “Biz jahon maydonida kuni kecha paydo bo`lgan xalq emasmiz. Bizning millatimiz xalqimiz ko`xna Xorazm zaminida “Avesto” paydo bo`lgan zamonlardan buyon o`z hayoti, o`z madaniyati, o`z tarixi bilan yashab keladi”.

O`zining “Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q“ degan asarida bu fikrni yanada kengaytirgan va terranlashtirgan akademik olimimiz yana bunday degan edi: “Eng mo`tabar, qadimgi qo`lyozmamiz “Avesto” ning yaratilganiga 3000 yil bo`lyapti. Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oralig`ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma`naviy, tarixiy merosidir”. Bu, ta`bir joiz bo`lsa shaklan diniy, mazmunan boshdan oyoq dunyoviy yozuvning qadr-qimmatini teran anglab, uning o`zbek yozma madaniyatining ilk

sarchashmalaridan biri sifatida Xorazmda yaratilgan durdonaga yuksak baho berib, yana bunday deb yozgan edi muallif: “Avesto” ayni zamonda bu qadim o`lkada buyuk davlat, buyuk ma`naviyat, buyuk madaniyat bo`lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi”.

Butun O`rta Osiyo xalqlari, jumladan o`zbek xalqi moddiy va ma`naviy madaniyatining beshigi Xorazm vahasi va u yerda yashagan turkiy elatlar bo`lgan. Shulardan keyinchalik o`zbek elati, so`ng xalqi, millati tashkil topgan.

I.A..Karimov yuqorida qayd etilgan asarida juda o`rinli qayt qilganidek, Xorazm davlati tarixini biz 2700 yillik tarix deb bilamiz. Bu o`rinda birinchi davlat tashkil topgandan keyingi “yozma tarix” nazarda tutilgan. Yunon, Xitoy tarixchi sayyohlari o`z xotiralarida yozib qoldirgan,keyin Zardushtiylik yozuvlarida berilgan tarixiy dalillar g`oyat o`rinli tarzda nazarda tutilgan.

Xorazmda o`troq hayot undan ham birmuncha oldin yuzaga kelgan; davlat esa uning maxsuli tarzida tashkil topgan. Bu haqda bundan tahminan 3 ming yil avval yaratilgan “Avesto”ning qo`lyozmasi, binobarin, yozma tarixning ilk debochasi ishonchli dalolat bergan. Yuqorida qayd qilganimizdek, yurtboshimiz “Avesto” Xorazmdek qadimiy o`lkada buyuk davlat, boy ma`naviyat, qimmatli madaniyat yodgorligi ekanligi hech kim inkor eta olmasligi ham ta`kidlagan.

Zardushtning diniy islohotini tushunish uchun o`sha davr Turonning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va siyosiy vaziyatni e`tiborga olish kerak. Gap shundaki, Turon iqlimining kontinental, ya`ni nisbatan mo`tadilligi, geografik jihatdan ikki katta qit`a o`rtasida, Amu va Sir daryolari oralig`ida joylashgani sababli savdo-sotiqning kuchayishi bu mintaqada sun`iy sug`orishga asoslangan dehqonchilik ertaroq vujudga kelishiga sabab bo`lgan. Xuddi shu tarixiy davrda hunarmandchilik va ovchilik ham anchagina rivojlangan. Bu hududda yilqichilikning rivojlanishi, ayniqsa Farg`ona vodiysida qorabariy zotiga o`xshash otlar boqish keng ko`lam olgani ham ijtimoiy hayotda katta rol o`ynagan. Buning ustiga mis va qo`rg`oshin konlariga boy bo`lgan Oltoyning yaqinligi bu yerda temirchilik, misgarlik rivojiga asos bo`lgan.

Zardusht yashagan davrda o`troqlik hayoti afzalligi yaqqol namoyon bO`lgan. Ammo unga qabilalar o`rtasidagi qirg`inbarot urushlar raxna solayotgan edi. Urushlar ko`pincha har bir qabila va elatning o`z xudolariga ko`plab qurbonliklar qilish odatlari zaminida ham yuzaga kelardi. O`z davrining kohinlari, sehrgarlari va mo`tabar qariyalari bilan keng munozaralar olib borgan Zardusht yuqoridagi odatlarni bartaraf etish va halqlarga tinch mehnat bilan shug`ullanish imkonini yaratish uchun ko`pxudolik e`tiqodlariga va otashparast-likka barham berib, yakkaxudolikka sig`inishni targ`ib etish deb bilgan va shu vazifani bajargan.

Shunday qilib, Zardushtiylik eradan avvalgi VII-VI asrlarga xos bo`lgan din sifatida undan oldingi urug`-qabilachilik dinlari negizida paydo bo`lgan yakka xudolik dini bo`lgan. U eramizning to VII-IX asrlargacha turli shaklda davom etib,

so`ngra uning o`rni islom egallagan. U dastavval Xorazm vohasida shakllanib, Yaqin va O`rta Sharqgacha tarqalib, ayrim asoratlari haligacha saqlanib kelmoqda.

Avesto faqat diniy manbagina emas, balki dunyoviy bilimlar, tarixiy voqealar, o`zi tarqalgan o`lkalar, elatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniy va ma`naviy qarashlari, diniy e`tiqodlari, urf-odatlari haqilagi manba hamdir. Unda bayon etilgan asosiy g`oyalar diniy e`tiqodning ilk sodda bilimlari Zardusht degan payg`ambar nomi bilan bog`langan. U “Avesto” ning eng qadimiy qismi “Gat” (xat nomi) ni ijod etgan. “Avesto” tarkibiga kirgan bilim, ma`lumotlar qariyb milloddan avval 3000-yillik oxirlari va 2000-yillik boshlaridan to milodning boshlarigacha o`tgan davrda yuzaga kelgan; avloddan-avlodga og`zaki o`tib olingan, uning buqa terisiga yozilgan ko`p qismi yo`qolgan, yettidan bir qismi saqlangan. U miloddan avvalgi 3 asrda Ashrakiylar sulolasi davrida to`plangan.

Zardushtiylik dini ta`limotini quyidagi uch tarixiy qismga bo`lish mumkin;

1.Eng qadimiy qismi miloddan avvalgi 3-ming yillikda vujudga kelgan Yashtlardir; ularda urug`chilik tuzumidagi e`tiqodlar, ko`p xudolik tasavvurlari tasvirlangan;

2.Gatlar deb atalgan qismidir. Bunda Axuramazda nomli xudo haqida fikrlar yozilgan;

3.Qadimiy ko`pxudolilik va keyingi yakkaxudolik g`oyalari orasidagi kurash sharoitlarida eramizdan avvalgi V asrda har ikkisini kelishtirgan mazdahiylik dini shakllangan. “Avesto” bu dinning oxirgi va asosiy qismini bayon etgan.

Shoh Vishtasia farmoniga binoan “Zardusht 1200 bobdan iborat pandnomasi “Avesto”ni oltin taxtachalarga yozib, shohning otashkadasiga topshirgan” deb yozgandi Firdavsiy. Keyinchalik bu “Kitob” 12 ming buqa terisiga bitilgan, makedoniyalik Iskandar Zulqarnayn Sharq ulamolari bir qismini zabt etganda uning nodir nusxasini Elladaga eltib, kerakli joylarini tarjima qildirgan, qolganini yondirgan”. “Avesto” yuqorida aytilganidek, eng qadimiy yakka xudochilikka asoslangan dinning birinchi muqaddas kitobigina bo`lib qolmay hozirgacha, e`tiborli tarixiy manba va madaniyat yodgorligi hisoblanadi. Unda dastlabki oddiy ijtimoiy-falsafiy qarashlar bilan diniy-mifologik tasavvurlar uyg`unlashib ketgan; shu zaminda ma`naviy, jumladan ahloqiy barkamol odam ezgulikni barqaror qila oladigan kurashchan, adolatparvar insonni shakllan-tirish g`oyasi markaziy o`rinni egallagan. “Avesto”da tabiiy bilim-lar-agronomiya, meteorologiya, zootexnika, meditsina, falakiyot, astronomiya, geografiyaga doir bilimlar ham mavjud.

Zardushtning diniy islohoti bo`sh joyda yuzaga kelgan emas. /arbiy Yevropa va rus tadqiqotchilarning fikricha, milodgacha bo`lgan 3-2 ming yilliklarda Markaziy Osiyoda oriy deb atalgan qabila yashagan. A.P.Primakning aytishicha, oriylar ko`chmanchi chorvadorlar bo`lishgan. Ularda yozuv bo`lmagan, ammo hayratomuz og`zaki ijod iste`dodiga ega bo`lib, ular yaratgan o`ziga xos ashula, gimn, pand-

nasihat shaklidagi qo`shiqlar avloddan avlodga o`tib borgan. Umuman Sharqda qadimdan inson ichki olamini munavvar etish, niyat bilan amal mushtarakligiga jiddiy ahamiyat berish diniy va falsafiy fikrlarning markazida turgan. Angliyadagi Oksford universiteti-ning professori Maks Myuller Pomir atrofida yashagan Oriy qabilalarining bir qismi bundan 3,5 ming yil muqaddam Hindistonga, bir qismi Yevropa va Eronga ko`chib ketganini ta`kid-lagan. Ular albatta o`zlari bilan birga shu yerdagi osoriatiqalarni (mifologiya) ni ham olib ketishgan, deb hisoblagan. Demak, Yevropa va Hindistonga hamda Yaqin va O`rta Sharqqa tarqalgan ko`p xudolik asoslari avvalo Markaziy Osiyoda vujudga kelgan Shu bilan birga Zardusht asos solgan yakka xudolik dini ham boshqa joyda yashayotgan xalqlar e`tiborini o`ziga jalb etgan. Zardushtiylikning muqaddas yozuvlar to`plami “Avesto” mintaqada Iskandar asos solgan hokimiyat tugagach, eramizgacha bo`lgan 250-yillarda arshohiylar sulolasi hukmronligi davrida yana tiklana boshlagan; u yangi matnlar bilan to`ldirilgan. Sosoniylar sulolasi hokimiyati davrida (milodning III-VII asrlari) bu ish nihoyasiga yetkazilgan. “Avesto”ning uchta kitobi (bobi) qadimgi turon tilda va bittasi pahlaviy tilida tiklangan. Uning birinchi kitobi “Vadovdot”, ya`ni devlarga qarshi qonun, deb atalgan. “Yosin” va “Visparad”ni qo`shgan holda “Vadavdot-Sade” nomi bilan yuritilgan. “Vadovdot”ni poklanish qonun-qoidalari majmuasi deyish ham mumkin. “Avesto”ning ikkinchi kitobi “Yosin” bo`lib, Zardusht Xat (noma)lari uning asosiy mazmunini tashkil etgan. U 72 “ha”- bashoratdan iborat bo`lib, birinchi bashoratda tabiat va halolliklar hukmdori, hamma narsani biladigan va hamma narsaga qodir Oxuramazdaning vahiylari haqligiga imon keltirishga doir duolar bor. 19- bashoratda olam yuzaga kelmasdan ilgari mavjud bo`lgan xudolar sha`niga shukronalar bayon etilgan.

“Avesto” ning uchinchi kitobi “Visporat” deb nomlangan. Unda olamni yoki hamma narsani bilishga doir pand-nasihatlar o`rin olgan. U ibodat namozlari yig`indisi bo`lib, 25 qismdan iborat. Oxirgi kitob “Bundaxash” qadimgi Eron tili - pahlaviy tilida yozilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Avesto kitobi» «tariximiz va ma’naviyatimizning ilk yozma manbai». Mavzusidagi ilmi amaliy semenar materiallari.
2. Bibliya. Moskva, 1997.
3. Isxoqov M. Xalk daxosining qadimgi ildizlari va kurtaklari. Til va adbiyot ta’limi jurnali №2 1992 y.
4. Kulakov A.YE. Religii mira. M., 1996.ss 150-173.
5. Yaxudiy oy-quyosh kalendari. M., 1990.
6. Beruniy Abu Rayxon. Tanlangan asarlar. V tom. T., 1973, 157-167-betlar.

7. Beruniy Abu Rayxon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar, Tanlangan asarlar. I tom. T., 1968.
8. Jo‘rayev U., Saidjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. T., “Sharq“, 1998.
9. Maxmudov T. «Avesto» xaqida. T., 2000 y.

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

Komilova Umida Kaxramon qizi
Andijon davlat universitetining Pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.n. **Qosimova M**
https://doi.org/10.5281/zenodo.6696228

Annotatsiya: Lingvokulturologik ahamiyat kasb eta oluvchi o‘ziga xos birliklardan biri bu frazemalar hisoblanadi. Frazemalar turg‘un birikmalar hisoblanib, ularda ma’lum bir xalqning o‘ziga xos dunyosi va qiyofasi obrazli tarzda namoyon bo‘ladi. Frazeologizmlar tarkibidagi biror so‘zi bilan yoxud anglatayotgan ma’nosi bilan o‘zi mavjud til tegishli bolgan millat haqida milly-madaniy axborot beradi. Maqolada frazeologik birliklarning lingvokulturologik birlik ekanligi tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlari: frazeologizm, lingvokulturologiya, obrazlilik, madaniyat, qiyosiy aspekt, idioma, milliy kolorit.

Annotation: Phrases are one of the unique units that can have linguoculturological significance. Phrases are stable combinations in which the unique world and image of a particular people are represented figuratively. Phraseologisms provide national-cultural information about a nation to which the existing language belongs, in a word or meaning. The article examines whether phraseological units are lingvoculturological units.

Keywords: phraseology, linguoculturology, imagery, culture, comparative aspect, idiom, national colorite.

Аннотация: Фразы являются одной из уникальных единиц, которые могут иметь лингвокультурологическое значение. Фразы представляют собой устойчивые сочетания, в которых образно представлен неповторимый мир и образ того или иного народа. Фразеологизмы дают национально-культурную информацию о народе, к которому принадлежит существующий язык, в слове или значении. В статье исследуется, являются ли фразеологизмы лингвокультурологическими единицами.

Ключевые слова: фразеология, лингвокультурология, образность, культура, сравнительный аспект, фразеологизм, национальный колорит.

Ma’lumki, har bir milliy til o‘z taraqqiyotida mukammallashib boradi. Uning grammatik va fonetik normalari barqarorlashadi, lug‘at tarkibi esa boyib boradi. Shuning natijasida til eng murakkab fikrlarni chiroyli va har xil shaklda ifodalash xususiyatiga ega bo‘ladi. Tilning rivojlanish jarayonida frazemalar tizimi shakllanadi, boyiydi, nutqning obrazliligi va emotsionalligi oshib boradi [1.:181]. Frazemalar

hayotning hamma xususiyatlarini o‘zida aks ettiruvchi til birliklaridir. Har xil kasb egalari o‘z fikrlarini yorqin ifodalash uchun original so‘z birikmalarini, bo‘yoqdor metaforalarni mohirlik bilan topib qo‘llaydilar.

Keyinchalik ularning ko‘pchiligi boshqa soha vakillari nutqida ham qo‘llana boshlaydi. Ular adabiy tilda o‘z o‘rniga ega bo‘ladi va shu bilan umumxalq til vositasiga aylanadi. Har bir tilning frazemalari o‘sha til egalarining asrlar mobaynida yaratgan madaniyati, ma’naviyati, tarixi, turmush tarzi bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois har bir tilning frazemalari milliyligi bilan xarakterlanadi. Tilda so‘zlovchining tinglovchiga bo‘lgan ekspressiv munosabatini ifoda etuvchi bir talay vositalar mavjud. Frazeologizmlar nominativ va qo‘shimcha (kesatish, jirkanish, nafrat, so‘kish, qarg‘ish singari salbiy; erkalash, hazil, rag‘batlantirish kabi ijobiy) ma’no – munosabat aks ettiruvchi nutqiy birliklardir.

Frazeologizmlar biror narsa – hodisani atash, nomlash vazifasinigina bajarmaydi, balki shu predmet yoki hodisani aniqlashtirib, ularni emotsional va obrazli tarzda baholaydi. Ayni shu jihati bilan ham ular lingvokulturologiya fani uchun ahamiyatli hisoblanadi. Frazeologik iboralar zamirida ma’lum obraz, konkret hodisa, predmet tasavvuri yotadi. Bunday obrazlilik frazeologizmlarning uslubiy imkoniyatlarini oshiradi, ularni tilning kuchli ifoda vositalaridan biriga aylantiradi.Frazeologik birlik yoki frazema, ibora kelib chiqish jihatidan juda qadimiy bo‘lsa-da, frazeologiya fani tarixi bir necha yuz yilni o‘z ichiga oladi.

Rus tilshunosligida frazeologik birliklar bilan tadqiqotchilar XVIII asrdan boshlab shug‘ullanib kelishmoqda. Jumladan, M.V.Lomonosov rus adabiy tili lug‘ati rejasini tuzar ekan, bunda so‘zlar bilan bir qatorda “xalq (Rossiya) maqollari”, “frazeslar” va “idiomatizmlar” o‘z ifodasini topishi lozimligini alohida ta’kidlagan edi. XX asrning 60-80-yillariga kelib frazeologiya chet el tilshunosligida bo‘lganidek, o‘zbek tilshunosligida ham tez sur’atlar bilan o‘sdi.

Frazeologiya nazariyasining ilk tadqiqotchisi, shubhasiz, shveysar-fransuz tilshunosi Sharl Balli (1865-1947) hisoblanadi. U o‘zining “Stilistika ocherki” (1905) va “Fransuz stilistikasi” (1909) nomli asarlariga so‘z birlashmalari, ya’ni frazeologizmlarni tadqiq etuvchi maxsus boblar kiritgan edi. U frazeologik birlashmalarning tashqi va ichki belgilarini bir-biridan farqlagan edi. Uning ta’limotiga ko‘ra, bunday birlashmalarning struktural xususiyatlari tashqi belgilari, semantik tabiati esa uning ichki belgilari sanaladi. Frazeologiya asosan frazeologik birlashmalarning semantik tabiatini, ichki belgilarini o‘rganish bilan shug‘ullanishi lozim[2.:157]. F.de Sossyur esa “Umumiy tilshunoslik kursi” (1916) asarida sintagma, uning belgilari haqida so‘z yuritar ekan, tilda shunday tayyor birikmalar («готовые речения») borki, ularning uzual xarakteri ma’nosi va sintaktik xususiyatidan kelib chiqadi. Ularni improvizatsiyalash (tayyorgarliksiz qo‘llash)

mumkin emas, chunki bunday birikmalar tayyor holda, an’anaga ko‘ra qo‘llanadi, degan edi [3.:157].

Mashhur tatar tilshunosi G.X.Axunzyanov “frazeologiya” termini ko‘p ma’noli bo‘lgani uchun unchalik ma’qul emas, uni “idiomatika” yoki “idiomalogiya” terminlari bilan almashtirish zarur, deb hisoblaydi. Olimning fikricha, “leksikologiya va idiomatikaning o‘zaro aloqasi shunda ko‘rinadiki, so‘z, ya’ni leksik birlik tilning leksik sistemasi elementi va leksikologiya sohasining o‘rganish obyekti sanaladi, idioma esa o‘sha tilning idiomatik sistemasi tarkibiga kiradi hamda u idiomatika yoki idiomalogiya (idiomashunoslik) sohasining o‘rganish obyektidir [4.:6]”. Umuman olganda, G.X.Axunzyanov tadqiqotlarida “idioma” tushunchasini nihoyatda keng ma’no ifodalaydi. Uning “Idiomalar” nomli asari keng ko‘lamli xarakteri, mazmunining chuqurligi bilan frazeologiya sohasi uchun ahamiyatlidir.

N. M. Shanskiy, Ye. A. Bistrova va T. Aliqulovlar hamkorlikda yaratgan “Rus tilidagi 700 frazeologik ibora” lug‘atida qayd qilinishicha, “agar tilni frazeologik iboralar bilan “buloq suvi” ga qiyoslash mumkin bo‘lsa, iboralar qatnashmagan tilni distillyatsiya qilingan suvga tenglashtirish mumkin. Nutq jarayonida ibora qo‘llanmasa, u “o‘ta qoidali”, hatto “sun’iy” bo‘lib ko‘rinadi”. Frazeologizmlar o‘zida muayyan millat madaniyatini gavdalantiradi. Tilning hech qaysi bir birligi frazemalarchalik milliy koloritga ega bo‘lmaydi.

Frazeologizmlar xalq boyligi bo‘lganligi sababli ham uning manbalari u yoki bu xalq yashayotgan joyining tabiati, iqtisodiy tuzumi, tarixi, madaniyati, hayot tarzi, og‘zaki ijodiyoti, badiiy adabiyoti, san’ati, fani, urf-odati kabilar bilan chambarchas bog‘lanadi.

O‘zbek tili leksikasida mavjud frazemalarning deyarli hammasi lingvokulturologik xususiyatga ega. Chunki Masalan, “Qo‘li ochiq” frazemasi saxiy ma’nosida qo‘llanuvchi belgi bildiruvchi frazema bo‘lib, aynan tanti va mehmondo‘st xalqimizning vakillariga nisbatan ishlatiladi. Yoxud “Do‘ppisini osmonga otmoq” iborasini oladigan bo‘lsak, uning aytilishi va eshitilishiyoq ko‘z o‘ngimizda o‘zbek xalqini va uning samimiy, sodda, tanti bir vakilining xushchaqchoq qiyofasini gavdalantiradi.

“Qo‘y o‘gzidan cho‘p olmagan” [5.:295]– nihoyat darajada beozor, mo‘min iborasi fe’l-atvor bildiruvchi frazema bo‘lib, yuvosh, xushfe’l insonlarga nisbatan ishlatiladi.

Ha, shunaqangi dog‘uli edi u, yiqiladigan joyiga oldindan ko‘rpa to‘shab qo‘yar, ishigayam, so‘zigayam hamisha birovlarni qalqon qilardi, o‘zi qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan, buzoqning haqi bor deb sigirning sutini ichmaydigan faqir. (A.Yo‘ldoshev, Puankare)

Bu frazemaning ham lingvokulturologik ahamiyati mavjud. Bunda ham shaklan, ham mazmunan xalqimiz madaniyati va ma’naviyatiga xos belgilar mavjud. Xalqimiz

turmush tarzida azaldan chorvadorlik ishi muhim o‘rin tutgan. Iborada aynan yuvosh jonivor qo‘y obrazining keltirilganligi ham mana shu omilga bog‘liq.

Umuman, lingvokulturologiyada frazeologizmlar:

- Muayyan til tabiatiga xos milliy realiyalarni aniqlash (bosh-oyoq sarpo, do‘ppisini osmonga otdi, ko‘rpasiga qarab oyoq uzatmoq, xamir uchidan patir, to‘nini teskari kiyib olmoq va hokazo);
- Fikrni obrazli ifodalash (do‘ppisi yarimta, ko‘ngli tog‘day ko‘tarildi, ko‘zini yog‘ bosgan, yog‘ tushsa yalaguday...);
- So‘zlovchi shaxs dunyoqarashini ko‘rsatish (qo‘yday yuvosh, itday qaysar, quyonyurak, bag‘ritosh, yuzi shuvut...);
- Muayyan mentalitet-millatga xos hududiy, madaniy, ijtimoiy, diniy o‘ziga xos voqea-hodisalarga, shaxslarga ishora (Almisoqdan qolgan, qiyomat qarz, oqposhshoning laychasi, afandiga ulfatbashara, daqqiyunusdan qolgan, alifni kaltak deyolmaslik...);
- Jonli muloqot muhitini shakllantirish kabi maqsadlarga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, frazeologizmlarni biz chinakam etnomadaniy birliklar deb atashimiz mumkin. Bunday etnomadaniy birliklarni o‘rganish va shu asosda muayyan xalq madaniyati, mentalitetidan xabardor bo‘lish kabi masalalar lingvokulturologiyada frazeologizmlarni o‘rganishdan kelib chiquvchi bosh maqsadlarimizdan biridir. Ayniqsa, frazeologizmlarni qiyosiy aspektda o‘rganish asosida xalqlar, mentalitetlar o‘rtasidagi o‘ziga xosliklar yoki aksincha, mushtarakliklarni aniqlash oson kechadi. Bugungi kun lingvokulturologiyasida ayni shu aspektdagi ishlar katta miqdorni tashkil etadi.

Umuman, frazeologik birliklarni o‘rganish o‘zbek tilshunosligi, xususan, lingvokulturologiya fani oldida yangi imkoniyatlarni ochadi, til lug‘at tarkibining kengayishiga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Вопросы изучения и преподования романо-германских языков. Труды Самаркандского государственного университета им. А.Навои. Выпуск 326. – Самарканд.: 1976
2. Балли Ш. Французская стилистика. – М.: Наука 1984
3. Фердинанд де Соссюр. Курс общей лингвистики // Фердинанд де Соссюр Труды по языкознанию. – М.: 1977
4. Ахунзянов Г.Х. Идиомы (исследование на материале татарского языка). АДД. – Казань.: 1972
5. Shavkat Rahmatullayev. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – T.: O‘qituvchi. 1978

6. Yo‘ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari. – Samarqand, 1999

7. Қосимова М. Бадиий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари (Тоғай Мурод асарлари асосида): филол.фан номз. дисс... Т. 2007

8. Usmanov F.F. Linguocultural competence as the means of identifying images in fixed similes // Theoretical & Applied Science. №5 (73). 2019. p. 17-20. URL: http://www.t-science.org/arxivDOI/2019/05-73/05-73-4.htm

9. Ф.Усманов. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи.URL:http://library.ziyonet.uz/static/lib/reader-pdf/web/viewer.html?file=http://library.ziyonet.uz/uploads/books/251467/5e1c61965017c.pdf

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI O‘RGATISH USULLARI

Mustafoyeva Sitorabonu
Jizzax pedagogika instituti maktabgacha va boshlang‘ich talimda xorijiy til (ingliz tili) yo'nalishi 2 -kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6696329

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatish usullari yozilgan bo‘lib, hozirda ingliz tili dunyo tili bo‘lib bormoqda shu bois uni maktabgacha ya’ni boqcha yoshidan boshlash kerak maqola shu haqida ma’lumot beradi.

Kalit so‘zlar: chet tili, so‘zlar, fanetika, qoida, dog, rebbit, Ritmik musiqa, metodika.

So'nggi bir necha yil ichida chet tilini o'rganish o'z-o'zini rivojlantirishning bir usuli emas, balki zarurat bo'lib qoldi. Chet tili nafaqat maktablar va universitetlarda, balki ko'plab qo'shimcha maktabgacha ta'lim muassasalarida ham ta'limning majburiy tarkibiy qismiga aylandi.

Jamiyatda chet tiliga bo'lgan talab, bir tomondan, shuningdek, ota-onalar tomonidan til nafaqat zamonaviy insonni tarbiyalashning omili, balki uning jamiyatdagi ijtimoiy va moddiy farovonligining asosi ekanligini tushunishi boshqa tomondan bu lahza chet tilini erta o'rganishni ayniqsa mashhur va dolzarb qilish. Agar 20 yil oldin tilni bilish faqat ba'zi sohalar ishlarida talab qilinadigan bo'lsa, endi kamida bittasini o'zlashtirish kerak edi.

Chet tilini o'qitishning asosiy muammosi talabaning yoshi. Ma'lumki, bolalar o'rganish uchun qulayroqdir. Yaqin vaqtgacha o'qitish metodikasi bolalarga qaratilgan edi maktab yoshi, endi ota-onalar chet tilini o'rganishni iloji boricha erta boshlashga intilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarni chet tiliga o'rgatishning asosiy maqsadlari:

- bolalarda chet tilida boshlang‘ich muloqot qobiliyatlarini shakllantirish;
- o'z maqsadlariga erishish, hayotiy aloqa sharoitida fikr va hissiyotlarini ifoda etish uchun chet tilidan foydalanish qobiliyati;
- chet tillarini yanada o'rganishga ijobiy munosabat yaratish;
- boshqa mamlakatlar hayoti va madaniyatiga qiziqishni uyg‘otish.

Maktabgacha yoshi, ayniqsa, chet tilini o'rganishni boshlash uchun juda qulaydir. Bu yoshdagi bolalar til hodisalariga nisbatan sezgirligi bilan ajralib turadi, ular o'zlarining nutq tajribalarini, tilning "sirlarini" tushunishga qiziqishadi. Ular

kichik hajmni osongina va qat'iy eslashadi til materiali va uni yaxshilab ko'paytiring. Yoshi bilan bu qulay omillar kuchini yo'qotadi.

Chet tilni o'rganish uchun erta yosh afzalroq bo'lishining yana bir sababi bor. Bola qancha yosh bo'lsa, shuncha kamroq bo'ladi. So'z boyligi yilda mahalliy til, ammo shu bilan birga uning nutqiga bo'lgan ehtiyojlari ham kam: kichik bolada aloqa sohalari katta yoshdagilarga qaraganda kamroq, u hali murakkab aloqa muammolarini hal qilishi shart emas. Bu shuni anglatadiki, u chet tilini o'zlashtirganda, ona va chet tillaridagi imkoniyatlar orasidagi bunday katta farqni sezmaydi va uning muvaffaqiyat hissi kattaroq bolalarnikiga qaraganda yorqinroq bo'ladi. Bolalarni o'qitish - bu maktab o'quvchilari va kattalarga qaraganda mutlaqo boshqacha uslubiy yondashuvni talab qiladigan juda qiyin masala. Agar kattalar chet tilida gaplashsa, bu uning boshqalarga o'rgatishi mumkin degani emas. Uslubiy jihatdan nochor darslarga duch kelganda, bolalar uzoq vaqt davomida chet tilidan nafratlanishlari va o'z qobiliyatlariga bo'lgan ishonchlarini yo'qotishlari mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan faqat tajribali mutaxassislar ishlashi kerak.

Maktabgacha yoshda, ingliz tilini o'qitishda, bolalar asta-sekin kommunikativ kompetentsiya asoslarini rivojlantiradilar, bu ingliz tilini o'rganishning dastlabki bosqichida quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

• fonetik nuqtai nazardan to'g‘ri takrorlash qobiliyati inglizcha so'zlar o'qituvchi, ona tili yoki ma'ruzachining orqasida, ya'ni eshitish diqqatini, fonetik eshitish va to'g‘ri talaffuzni bosqichma-bosqich shakllantirish;

• inglizcha so'z boyligini o'zlashtirish, birlashtirish va faollashtirish;

• ma'lum miqdordagi sodda grammatik tuzilmalarni o'zlashtirish, izchil bayon tuzish.

Metodika to'g‘ridan-to'g‘ri ta'lim tadbirlarini o'tkazish bolalarning til qobiliyatlari tuzilishining yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda qurilishi va ularning rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Chet tilida muloqot motivatsiya va yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bolada chet tiliga nisbatan ijobiy psixologik munosabatni yaratish kerak va bunday ijobiy motivatsiyani yaratish usuli o'ynashdir. O'yin - bu ham tashkil etish shakli, ham bolalar ma'lum miqdorda to'planadigan darslarni o'tkazish usuli inglizcha so'z boyligi, ko'plab she'rlar, qo'shiqlar, qofiyalarni sanash va boshqalarni o'rganing.

Darslarni o'tkazishning ushbu shakli til ko'nikmalarini va nutq qobiliyatlarini o'zlashtirish uchun qulay sharoit yaratadi. O'yin faoliyatiga ishonish qobiliyati chet tilida nutq uchun tabiiy turtki berishga, hatto eng oddiy iboralarni ham qiziqarli va mazmunli qilishga imkon beradi. Chet tilini o'qitishda o'ynash ta'lim faoliyatiga zid emas, balki u bilan organik ravishda bog‘liqdir.

To'g‘ridan-to'g‘ri ta'lim faoliyatidagi o'yinlar epizodik va yakka bo'lmasligi kerak. Tilni o'rganish jarayonida boshqa tadbirlarni birlashtiradigan va

birlashtiradigan uchidan uchigacha o'yin texnikasi zarur. O'yin metodikasi xayoliy vaziyatni yaratishga va bola yoki o'qituvchi tomonidan ma'lum bir rolni qabul qilishga asoslangan.

Ritmik musiqa o'yinlari- bu har qanday an'anaviy o'yinlar, masalan sheriklar tanlovi bilan raqs tushadigan raqslar, bu muloqot qobiliyatlarini o'zlashtirishga emas, balki nutqning fonetik va ritmomelodik jihatlarini yaxshilashga va til ruhiga botish uchun yordam beradi, masalan: " Yongʻoqlar va may ", "Siz nima? ism "," Menga do'stlarim yoqadi "," Eshitgan, elkama, tizza va oyoq barmoqlari "va boshqalar.

Badiiy yoki ijodiy o'yinlar. Bu o'yin va badiiy ijod chegarasida turgan faoliyat turi bo'lib, unga yo'l o'yin orqali bolaga to'gʻri keladi. Ular, o'z navbatida, bo'linishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishning o'ziga xos xususiyati shundaki, u shunchaki stolda o'tirib, kitob va daftarlarni varaqlamaydi. Jarayon zerikarli bo'lmasligi kerak va bolalar o'zlari bilimga intilishlari kerak. Bolalar aniq o'ylashadi, hamma narsani so'zma-so'z qabul qiladilar, gapirishadi oddiy jumlalar… Agar o'qituvchi nimanidir tushuntirsa, u aniqlik, misol keltirishi kerak. Shuning uchun ingliz tili maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin. Faqatgina ushbu shakl orqali siz ijobiy natijalarga erishishingiz va bolada chet tiliga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishingiz mumkin.

Ta'lim shakllari iloji boricha ko'proq leksik birliklarni o'zlashtirishga emas, balki mavzuga qiziqishni tarbiyalashga, bolaning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga va o'z fikrlarini ifoda etishga qodir bo'lishi kerak. Bolaning kompetentsiyasida til birliklarining keyingi o'sishini o'z zimmasiga oladigan bolani minimal mablagʻ bilan ta'minlashga imkon beradigan, materialni o'zlashtirishning ma'lum fazilatlariga erishish muhimdir, ulardan vaziyat va mazmunli foydalanish.

Treningning boshidanoq bolalar bilan ingliz tilida ishlashning ma'lum bir uslubini rivojlantirish, muloqotning eng odatiy holatlariga mos keladigan marosimlarni joriy etish kerak. Bunday marosimlar (salomlashish, xayrlashish, qisqa mashqlar, ingliz tilida qabul qilingan xushmuomalalik formulalaridan foydalanish) bolalarga chet tili aloqasini o'rnatishga imkon beradi, ingliz tiliga o'tishni osonlashtiradi, bolalarga dars boshlanganligini, endi darsning ma'lum bir bosqichi o'tishini ko'rsatadi.

Trening muvaffaqiyatli bo'lishining eng muhim sharti bolalarning nutq-fikrlash faoliyatini faollashtirish va ularni chet tili muloqotiga jalb qilishdir. Bolalar so'zning ma'nosiga munosabatda bo'lishlari va ovozli ketma-ketlikni mexanik ravishda eslab qolmasliklari uchun nutq harakatlarining tartibini (savollar tartibi, manzillar, ob'ektlarning nomlari va boshqalar) doimiy ravishda o'zgartirish kerak. O'yinlarni takrorlashda har xil bolalar etakchi, faol ishtirokchi bo'lishlari shart, shunda hech

bo'lmaganda bir marta barcha bolalar o'quv vazifasida ko'zda tutilgan nutq harakatlarini bajaradilar.

Qishloq joylardagi boshlang‘ich maktab o'quvchilari odatda ingliz tili muhitidan ancha uzoq bo‘lgan sharoitda o‘sishadi va bolalarning fikrlashi mavhum shaklda qolaveradi, bolalarning yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni doimo hissiyotlarga tayangan holda kechadi. Shuning uchun, bog‘cha yoshidagi bolalarga ingliz tili o'qituvchilari o'qitishda oson metodikalar orqali, o'quvchilar atrofidagi buyumlardan, kartochkalardan va boshqa o'quv qo'llanmalaridan to'liq foydalanishadi. “Banana” va “apple” kabi so'zlarni o'qitishda o'qituvchilar banan va olma kabi mevalarni ko‘rsatib birdaniga rangni bildiruvchi yangi so‘zlarni ham o‘rgatib ketishlari mumkin. Bolalar o'quv mashg‘ulotlarini tashkil qilish uchun sinfdagi narsalar orqali ularni chet tilida qo‘llanilishini o‘rgatib borishadi.

Albatta, o'qitish mobaynida buyumlardan foydalanishda o'qituvchilarning metodikasi katta ro‘l o‘ynaydi. Misol uchun, tegishli so'zlarni o'rgatayotganda, siz avvalo buyumni bolaga ko‘rsatib uni gapirishga undaysiz, o‘quvchilar so‘zlarni talaffuz qiladi va ular talaffuz qilgan so‘zni mustahkamlash uchun kartochkalardagi rasmlardan foydalanib yana bir bor yangi so‘zni takror talaffuz qildiriladi. So‘zlarni o'qitishda o'qituvchilar matn mazmunini belgilab olishlari va o'quvchilar e'tiborini jalb qilish uchun tarbiyachi ular bilan birgalikda so‘zlarni talaffuz qilib doskaga suratini chizish orqali ularning e’tiborini tortishlari mumkin bo‘ladi.

Shuning uchun hozirda Xitoyda tarbiyachidan rasm chizish mahoratiga ega bo‘lish talab qilinadi. Bu nafaqat o'qitishning qiyinchiliklarini qisqartiribgina qolmay, balki o'quvchilarni o'rgangan bilimlarni asta-sekin mustahkamlashga yordam beradi. O‘quvchilar ingliz tilini o'rganish jarayonida o‘zlaridagi yutuqlarni his etishlari uchun har bir o'quv mashg‘ulotiga mukammal yondashish kerak. Ana shundagina bolalarda o‘rganishga motivatsiya uyg‘onadi. Hozirgi kunda Xitoylik bog‘cha yoshidagi bolalar yangi bilimni qabul qilish imkoniyatlari juda ilgarilab ketganligi sababli bog‘chalardagi o‘qitish dasturlari shunga mos ravishda intensivlashtirilgan.

Sinf muhitini yaxshilash uchun qo‘shiq va harakatli o‘yinlardan foydalanish.

Moslashuvchan sinf atmosferasini yaratish, ba'zida har qanday ta'lim usulidan ko'ra muhimroqdir. Sinfda dars boshida inglizcha yoqimli qo'shiq bilan o'qituvchi boshchiligidagi barcha bolalar birgalikda qo'shiq kuyladilar va uning ohangiga mos ravishda biroz raqsga tushadilar. Bu o‘z-ozidan ularning tanalarini chiniqtirib, yanada tetik bo‘lishga va qo‘shiqni so‘zlarini tezroq yod olishga yordam beradi. Inglizcha muhit, muhimi, yaxshi o'quv atmosferasiga tabiiy ravishda kirishga imkon beradi. Bolalarning o'zini-o'zi boshqarish qobilyati sust bo‘lib, butun mashg‘ulot davomida e’tiborini jamlashi va egallab olishi qiyin. Shuning uchun, o'qituvchi bolalar tinglashni yaxshi ko'radigan qo'shiqlarni, she'rlarni yoki tilni chiniqtirish uchun tez

aytishlarni, yoki bo‘lmasam bolalar yaxshi ko'radigan animatsion multfilmni taqdim etishi kerak.

Multfilmlar. Bolalar chet tilini o‘rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasa-da, multfilmdagi qahramonlarning harakatlari orqali ular ishlatayotgan so‘zlarni tushunishga harakat qiladi. Bu esa bolalar uchun til o‘rganishda qiziq va samarali yo‘l hisoblanadi.

Hozirgi kunda Xitoydagi barcha bog‘chalar multimedia qurilmalari bilan ta’minlangan. Bolalar uchun ingliz tili qo‘shiqlaridan tortib she’r va hikoyalar, videoroliklar orqali o‘rgatib kelinmoqda. Bu zerkilarli til darslarini qiziqlarli kunlik o‘yinga aylantiradi. Xitoy bog‘chalarida bir gruhda 10 ga yaqin tarbiyalanuvchi bo‘lib, tarbiyachi muntazam har bir bolani pisixologiyasidan kelib chiqqan holda ularga tarbiya usuli qo‘llaniladi. Bu tarbiyachidan faqatgina tarbiyachi bo‘lib qolishni emas bir vaqtning o‘zida rassom, musiqachi, chet tili o‘qtuvchisi, va yaxshigina psixolog ona bo‘lishni ham talab qiladi. Albatta hozirgi rivojlanib borayotgan zamonda Xitoyliklar yosh avlodlarga bu borada juda katta qulayliklarni yaratib berishmoqda.

Multimedia orqali o‘qitish tarbiyachiga katta imkoniyatlarni beradi. Bunda bollalarning qiziqishini yuqori darajagacha ko‘tarish va ularning e’tiborini uzoq vaqt jalb qilib turish mumkin. Bu orqali bollarning tilga bo‘lgan ko‘nikmalarini yanayam ortganini korishimiz mumkin.

Agarda mavzuyimiz “Animals” bo‘lsa biz har xil hayvonlarni nomlarini o‘qitishda avval ularning tovushlaridan foydalanamiz bolalar bunga qattiq e’tibor qaratishadi, va shu zahotiyot cat、tiger、bear….deb hayvonlar nomlarini ayta boshlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. David A. J, Eggen, P Kauchak. Methods for Teaching: Promoting student learning [M] 2002.

2. Liu wang. ertong xinglixue kaocha[J]. 2017-18.

3. Feng Wang, Applying Technology to Inquiry-Based Learning in Early Childhood Education [J]. Early Childhood Educ

TASVIRIY SAN'AT FANIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNI AHAMIYATI

Ochilova Dilrabo Karomatovna
Toshkent viloyati Nurafshon shahar 10-umumiy o'rta ta'lim maktabining tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6696470

Annotatsiya: ushbu maqola tasviriy san'at fanida didaktik o'yinlardan foydalanishni ahamiyati haqida yozilgan bo'lib, unda darsda qo'llanadigan didaktik o'yilar va ularni qo'llash usullari yozilgan. O'yinlar orqali darslarni bolaga tez va oson yrtkazish usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: didaktik o'yilar, bolalar, Domino o'yini, Tasviriy faoliyat, texnika, yo'l.

Ma'lumki, bolalar jim o'tirolmaydilar, ular doimo harakatda bo'ladilar, ya'ni o'ynaydilar. O'yin bolalarning tabiiy hamrohi bo'lib, ularga olam-olam hayojonli quvonch keltiradi. Bolalar o'yinlar orqali dunyoni, ya'ni tevarak – atrofni o'rganadi, shu bilan bir qatorda ma'lum darajadagi tarbiyani ham oladi. O'yin orqali mehnat qilishga o'rganadi. O'yin davomida o'zining sevgan qahramoni obraziga kirib, o'zida haqqoniylik, yolg'on gapirmaslik, zehn o'tkirlik, chaqqonlik, kuchli bo'lishlik, bardosh berishlik, tez topqirlik, g'alaba qilishga intilish kabi fazilatlarni tarbiyalaydi.

O'yin qoidalari asrlar davomida xalq tomonidan qonunlashtirilib ularning tarbiyaviy ahamiyatiga ko'p e'tibor berilgan. Shuning uchun maroq bilan ko'p o'ynaydigan bolalar zehni o'tkirligi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Umuman olganda, o'yinni go'dak boladan tortib mo'ysafitgacha o'ynashi mumkin. O'yinlarni odamlar o'z yoshiga qarab tanlashadi. Yosh bolalar ko'proq harakat bilan bog'liq o'yinlarni tanlashadi. Chunki, ularning o'sishi, ulg'ayishi buni talab qiladi. Yoshi ulg'aygan sari odamlar asta-sekin ko'proq fikr yuritadigan o'yinlarni tanlashadi.

Har xil o'yinlarning kelib chiqishi xalq pedagogikasining maxsuli bo'lib, o'qituvchilar dars berishi jarayonida shu o'yinlarning ba'zi elementlaridan foydalanishlari zarur.

O'quvchilarning yuqoridagi fazilatlarini o'rganib, chizmachilik darslariga o'yin elementlarini kiritish lozim. An'anaviy dars jarayonida o'quvchilarning zerikishlarini, charchashini sezish bilan o'qituvchi 5-6 minutlik mavzuga bag'ishlangan o'yin o'tkazishi lozim. Chizmachilikdan o'tkaziladigan har bir o'yin o'ziga hos ijodiy yondoshishni talab qiladi. Bu yerda o'qituvchi sinfdagi barcha o'quvchilarning diqqatini o'tkaziladigan qisqa muddatli o'yinga jalb qila bilishi katta ahamiyatga ega.

O‘yinda o‘quvchi faol ishtirok etishga, fikr yuritishga, mulohaza qilishga qilgan harakatlari ularning butun his tuyg‘ularini ishga soladi. O‘yinli qiziqarli va jonli o‘tishga ko‘p jihatdan o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq hisoblanadi.

Didaktik o‘yinlar oddiydan asta – sekin murakkablashtirib tuzilgan bo‘lishi, o‘quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtirishga mo‘ljallangan bo‘lishi lozim. Didaktik o‘yinlar orqali o‘quvchilarda quyidagi faoliyatlarni rivojlantirishga e’tibor qaratiladi:

–sekin-asta turli didaktik masalalarni kiritish yo‘li bilan aqliy faoliyatidagi ijobiy o‘zgarishlarni shakllantiradi;

–aqliy faoliyatida o‘yinga bo‘lgan qiziqishni rivojlantiradi;

–bitta o‘yin chegarasida qator aqliy masalalar majmuasini o‘stiradi;

–barcha o‘ynayotganlarning hissiy va intelektual tuyg‘ularini bitta maqsadga yo‘naltiradi;

–o‘quvchilarda tartiblilik, tashkilotchilik, maqsad sari intiluvchanlik hislarini tarbiyalaydi.

Bunday muammolarni yangi darajada qabul qilish o‘quvchilar ongida ko‘plab kelayotgan turli axborotlarni singdira olishga olib keladi.

Ba’zi o‘yinlarni sinfdan tashqarida o‘tkazish mumkin. Tasviriy san’atdan o‘tkaziladigan viktorina, olimpiyada kabi tanlovlarda ham o‘tkazish yaxshi natija beradi.

Domino o‘yini.

O‘yinning sharti. Rasmlarning ko‘rinishlarini ularning yaqqol tasvirlari bilan solishtirib o‘qish.

Maqsad. O‘quvchilarning chizmalarni o‘qish bo‘yicha olgan malakalarini, idrokini takomillashtirish.

Jihozlar. Domino toshlari o‘rniga eni 60 mm, uzunligi eniga nisbatan ikki marta katta, ya’ni 120 mm li karton qog‘ozlarda rasmning yaqqol tasvirlari va ko‘rinishlari.

Ana shu karton qog‘ozlarni teng ikkiga chiziq bilan bo‘lib, ularning bir tomoniga rasmlarning yaqqol tasvirlari ikkinchi tomoniga o‘sha rasmlarning ko‘rinishlari chiziladi. Natijada domino “toshlari” hosil bo‘ladi. Buning uchun oldin quyidagi jadval tuziladi:

O‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash borasidagi mavjud muammolani hal etish ta’lim va tarbiya samaradorligini zamon talablari asosida ta’minlash, uni dunyo talablari darajasiga olib chiqishga erishish, yosh avlodga ta’lim - tarbiya berishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish orqali ta’lim tarbiyaning mohiyati, mazmunini shakllantirish va takomillashtirish, maxsus maktab va maktabgacha tarbiya tizimini xalqimizning boy tajribalari asosida boyitib borish va uning yangi qirralarini izlash bugungi kunning dolzarb muammolaridir.

Tasviriy san’at maxsus metodikasining asosiy vazifalaridan biri rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni bilish faoliyatini rivojlantirishdir. O‘qituvchi bolalarga atrof - olamni, predmetni, uning mohiyatini idrok qilishga o‘rgatadi. Ko‘ruv analizatori orqali eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilish jarayonlarini rivojlantirib, bunda boshqa sog‘lom analizatorlar ham ishtirok etadi va rivojlanadi: ten sezgi harakat analizatoriari, mayda qoi motorikasi orqali ham o‘quvchi!ar idrok qiladilar.

Tasviriy faoliyatda idrok qilingan materials oldin og‘zaki nutq orqali bayon etishlari so‘raladi, so'ngra chizish orqali qanchalik to‘g‘ri idrok qilganliklarini bilish mumkin. Bolalaming rivojlanishida tafakkuming faol ishtirokisiz, idroki, tasavvuri va boshqa bilish jarayonlari rivojlanmaydi. O‘quvchi tasviriy faoliyatda bir qator intellektual operatsiyalarni bajarishga majbur. Idrok etiigan obyektni fikrlash, chizmani ketma-ketlik bilan bajarish, obyekt bilan chizmani (rasmni) taqqoslash, rasm qismlarini solishtirish. Vazifani to‘g‘ri bajarish uchun bir qator aqliy harakatlar bajariladi: analiz, sintez, rejalashtirish, solishtirish va boshqalar. O‘quvchilar taqqoslash jarayonida tayyor bo‘lgan obyektning umumiy hajmiga va rangiga ahamiyat berishadi.

Tasviriy faoliyat jarayonida rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar diqqatini to‘plash, tarbiyalashda turli tuman ko‘rgazmali qurollardan keng foydalanish ijobiy natijalami beradi. Nuqsonli bolalar asosiy bilimlarini aynan sezgilar orqali oladilar. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalar, asosan ko‘ruv analizatorIari orqali bilimlarga ega bo‘ladilar. Ko‘rish sezgisi bu toifa bolalarda bilim egallashning shaxs sifatida shakllanishlarida muhim o‘rin egallaydi. Tasviriy faoliyat jarayonida teri-taktil, tuyush sezgilar kar va ko‘r bolalar uchun bilim olishlarida alohida ahamiyat kasb etadi. E.P.Neymanning e’tirof etishicha, karlik bilan tebranish sezgilari orasida uzviy bog‘liqlik mavjud ekan. Maxsus korreksion, kompensator imkoniyatlardan to‘la foydalanilmasa, kar va eshitish qobiliyati pasaygan shaxslar sezgilarini, ular asosida idroklarini bir muncha rivojlantirish mumkin emas.

Predmetning kattaligini aniqlashga qaratilgan o‘yin va vazifalar; o‘quvchistolida turli xil kattalikdagi o‘yinchoqlar, kubiklar, sharlar, matreshkalar, aylanalar. Vazifa - eng katta kubikni ko‘rsat; Vazifa - eng kichik shami ko‘rsat; Matreshkalami kattasidan boshlab ketma - ket taxla.

II. Predmet shaklini aniqlashga qaratilgan o‘yin va vazifalar; o‘quvchistolida kubik va sharlar bor.

-o‘quvchilarga kubiklar o‘ng tomondagi qutiga, pufaklar chap tomondagi qutiga joylashtirish topshiriladi.

-o‘quvchilarga har xil formadagi figuralar solingan konvert beriladi. Ularni shakllarini ajratib bir xil qilib joylashtirish talab etiladi.

o‘quvchilarga olma, uzum, qovun, sabzi, olxo‘ri rasmlari bor kartochkalar beriladi. Sabzavot va mevalami ajratish o‘quvchilardan talab etiladi.

III. Ranglami ajratishga qaratilgan o‘yin va vazifalar: Har bir o‘quvchida har xil rangdagi geometrik figuralar yoki mayda predmetlar bo‘ladi. Bu figura va predmetlami ranglar boyicha gruppalashtirish talab etiladi. Avval 2 ta rangdan iborat bo‘lgan predmetlar olinadi, so‘ngra ranglaming soni ko‘paytirib boriladi. O‘quvchilarda qizil, sariq, ko‘k, qora, oq rangli kartochkalar bo‘ladi. o‘quvchiqaysi rangni talaffuz qilsa o‘quvchilar shu rangdagi kartochkalami ko‘tarishlari kerak.

IV. Predmetning fazoviy joylashishini aniqlashga qaratilgan o‘yin va vazifalar: Doskaga katta ko‘rgazma yoki qog‘oz osib qo‘yiladi va o‘qituvchi topshiriq beradi;

-qog‘ozning yuqori qismini ko‘rsating;

-qog‘ozning pastki qismini ko‘rsating;

-qog‘ozning past, o‘ng tomonini ko‘rsating;

-qog‘ozning o‘rtasini ko‘rsating;

Foydalangan adabiyotlar:

1. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik texnologiya: taxlil, ta`rif, mulohaza. Ma`rifat, 1998.

2. Sayidaxmedov N.S., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyixasi –Toshkent: RTM, 1999.

3. Hasanov R. Umumiy o‘rta ta`lim maktablarida darajali tabaqalashtirib o‘qitish kontseptsiyasi. – Ma`rifat, 2005. 26 yanvar.

4. Xalimov M. Chizmachilik darslarida yangi innovatsion texnologiyalarni qo‘llash. - Xalq ta`limi jurnali. 2006. 3-son.

5. Hasanov R. Tabaqalashtirilgan ta`lim muammolari. Uzluksiz ta`lim jurnali. –2003. 2-son.

6. Hasanov R. Maktabda tasviriy san`atni o‘qitish metodikasi. Darslik. – Toshkent: Fan. 2004.

BIMIY VA UNING ADABIY MEROSI

Abdurazzaqova Shoiraxon Pulatjon qizi
Andijon davlat universitetining Pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti
Ilmiy rahbar: Dotsent **M.Tojiboyeva**
https://doi.org/10.5281/zenodo.6696577

Annotatsiya: Andijon adabiy muhiti doirasida bir qator yetuk badiiyat namoyandalari yetishib chiqqan bo‘lib, ular o‘zbek badiiy tafakkurida o‘z o‘rniga egadir. Ushbu maqolada andijon adabiy muhitiga o‘z hissasini qo‘shgan ijodkor shoir Bimiyning adabiy merosi xususida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlari: adabiy muhit, Andijon adabiy muhiti, Bimiy, g‘azal, bayoz, badiiy obraz, “Bormayman dedi”, “Qayga boray”, “Qilki hasrat”.

Annotation: Andijan literary environment has produced a number of outstanding artists, who have a place in the Uzbek artistic thought. This article provides information about the literary heritage of the creative poet Bimi, who contributed to the literary environment of Andijan.

Keywords: literary environment, Andijan literary environment, Bimiy, gazal, bayoz, artistic image, “Bormayman dedi”, “Qayga boray”, “Qilki hasrat”.

Аннотация: Литературная среда Андижана подготовила ряд выдающихся художников, занимающих видное место в узбекской художественной мысли. В данной статье представлена информация о литературном наследии творческого поэта Бими, внесшего свой вклад в литературную среду Андижана.

Ключевые слова: литературная среда, Андижанская литературная среда, Бими, газель, байоз, художественный образ, “Bormayman dedi”, “Qayga boray”, “Qilki hasrat”.

Adabiyot – ma’lum ma’noda ijtimoiy harakter kasb etishi haqida juda ko‘p ta’kidlangan. Biroq adabiyotning ijtimoiyligi faqat bir ijodkor yoki bir davr nuqtai nazaridan olinishi ham to‘g‘ri emas. Sababi vaqt o‘tgani sari ijodkor va uning qarashlari o‘zi yashab turgan zamon va makon talablarini inobatga olgan holda o‘zgarib, sayqallanib, yangilik kasb eta boradi. Har bir zamon va makon nuqtai nazaridan ham ma’lum bir davr kishilarining yashash tarzi, dunyoqarashi nuqtai nazaridan ham adabiyot ma’lum bir muhit va maktablarga bo‘lingani sir emas.

O‘zbek adabiyotida dastlab, Xorazm, Buxoro, Toshkent va Qo‘qon adabiy muhiti doirasida ijodkorlar jamlangan bo‘lsa, bugungi kunda O‘zbek adabiyotiga Andijon adabiy muhiti degan kechimni kiritish vaqti bo‘ldi deb o‘ylaymiz. Negaki, Zahiriddin Muhammad Bobur, Nodirabegim, Cho‘lpon, Muhammad Yusuf boshlab

bergan adabiy jarayonni davom ettirib borayotgan ijodkorlar o‘tgan asr va bugungi asr uchun o‘ziga xos o‘ringa ega.

Andijon adabiy muhitining o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda mumtoz adabiyot butkul o‘zgacha. Bu muhit adabiy jarayonida badiiy adabiyotdan ijtimoiylashayotgan, siyosiy jarayonlar inson va olam munosabatlarini aks ettirish an’analari shakllana bordi.

Adabiy muhit — muayyan zamon va makonda yuzaga kelgan, yirik shoir va adiblar ta’sirida shakllangan, o‘ziga xos an’analarga ega bo‘lgan ijodiy muhit. Adabiy muhitning vujudga kelishi yirik ijodkorlar faoliyati, ular barpo qilgan ijodiy maktablar bilan bog‘liq [2.:56]. Adabiy muhit adabiy oqim va yo‘nalishlardan farq qiladi. Bir adabiy muhitda bir necha adabiy yo‘nalish va oqim faoliyat ko‘rsatishi mumkin. O‘zbek adabiyoti tarixida Toshkent, Qo‘qon, Buxoro, Samarqand va Xorazm adabiy muhitlari mashhurdir. Biz o‘rganayotgan Andijon adabiy muhitini Zahiriddin Muhammad Bobur, Nodirabegim, Cho‘lpon, Muhammad Yusuf singari she’r ahillarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ular qoldirgan bebaho so‘z namunalari nafaqat o‘z davri uchun, shuningdek, hozirgi zamon o‘zbek adabiyoti uchun ham muhim xarakter kasb etadi.

Andijon adabiy muhiti doirasida bir qator yetuk badiiyat namoyandalari yetishib chiqqan bo‘lib, ularning o‘zbek badiiy tafakkuridagi o‘rnini quyidagicha belgilash mumkin.

Birinchidan, Sharq mumtoz poetikasi o‘zining tamal toshini aruz vazni yordamida XI asrdayoq qo‘yganligiga qaramay, o‘sha davr badiiy estetik qarashlari bu davrga kelib yangilandi. Natijada, o‘sha davrdagi nasihatomuz, pandnomaga uyqashgan misralar XI asrlarga kelib sof badiiy-estetik joziba kasb etdi.

Ikkinchidan, dastlab Zahiriddin Muhammad Bobur, Nodirabegim singari ijodkorlar ma’lum ma’noda badiiy an’analarni davom ettirishgan bo‘lsa-da, ammo ular yaratgan obrazlar ijtimoiylasha boshlagan va bu ijtimoiylashish, keyingi davrga kelib o‘z vazifasini to‘la ado etdi. Bu XIX asr oxiri XX asr 50-60 yillarigacha bo‘lgan vaqtda bo‘y ko‘rsatgan Cho‘lpon, Muhammad Yusuf singari ijordkorlar bitiklarida to‘liq namoyon bo‘ldi.

Andijon adabiy muhitidagi Zahiriddin Muhammad Bobur, Nodirabegim, Cho‘lpon, Muhammad Yusuf kabi ijodkorlarning davomchilari sifatida Manzur, Ojiz, Muntazir, Bimiy, Pirimqori, Hofiz, Mushtoq, Mavjiy kabi shoirlarni keltirishimiz mumkin. Garchi ushbu adiblarning ko‘pchiligi keng kitobxonlar ommasiga tanish bo‘lmasa-da, ular mazkur davr Andijon adabiy muhiti haqida, bir qadar umumiy va xiraroq bo‘lsin, yaxlit bir tasavvur bera oladi.

Andijon adabiy muhitiga o‘z hissasini qo‘shgan adiblaridan biri shoir Bimiydir. Asl ismi Abdurazzoq Xomidxo‘ja o‘g‘li bo‘lgan shoir Bimiy 1845-yili Andijonning Oyim qishlog‘ida dehqon oilasida tavallud topgan. Yoshligidan ilm-fanga zo‘r havas

qo‘ygan Abdurazzoq Qo‘qon madrasalarida tahsil oladi va arab, fors tillarini, shuningdek, xattotlik ilmini puxta o‘rganadi. Bu davrda u Muqimiy, Zavqiy, Furqatlar bilan tanishadi va ularning she’r majlislarida ishtirok etadi [7.:94].

Mavjud adabiy va tarixiy manbalarda esa Biymiyning andijonlik bo‘lib, garchi bir muddat Qo‘qonda bo‘lsa-da, asosiy umri Andijonda kechganligini ko‘rsatadi.

Biymiy madrasa tahsilidan so‘ng o‘z qishlog‘iga qaytib qozixonada mirzolik bilan shug‘ullandi. Shuningdek badiiy ijod bilan shug‘ullandi. O‘z she’rlariga kuy bastalab ijro etar edi. Aytishlaricha, badiha usulida to‘qilgan g‘azaliga shu paytning o‘zida kuy bastalab ijro etgan. Biymiy Qo‘qon shoirlari bilan aloqani uzmay, ular bilan xat orqali xabarlashib turdi. Do‘stlariga o‘z she’rlaridan yuborib ularning fikridan xabardor bo‘lgan. O‘zi ham ular yuborgan she’rlarga munosabat bildirgan [5].

Shoir g‘azallar hanuzgacha ijro etib kelinadi. Bunga misol tariqasida hozirgi kunda ham omma orasida maroq bilan kuylanib kelinayotga “Bormayman dedi”, “Qayga boray” radifli g‘azallarini ko‘rsatishimiz mumkin.

“Bormayman dedi” radifli g‘azalida ma’shuqaning oshiq iltimosiga rad javobini mahorat bilan keltiriladi.

Bazmaro ul sho‘x delovar bormayman dedi,
Sendan o‘zga oshiqim bisyor bormayman dedi.
Aylanma arzing yozib izhor bormayman dedi,
Zoe o‘lg‘ay mehnating bekor bormayman dedi. [1.: 11]

Ushbu misralarda ko‘rinib turibdiki, ma’shuqaning rad javobi har bir misrada turli ko‘rinishda takrorlanadi. U oshiqning og‘zaki iltimosini rad qilishi bilan birga, hatto yozma ravishda yo‘llagan iltimosiga ham rad javobini beradi. Shu yo‘sinda oshiqning barcha urinishlari zoye ketdi.

Bimiy g‘azallarida badiiy obrazlarga boydir. Shoirning “Qilki hasrat” deb atalgan g‘azalida ham turli badiiy obraz hamda takrorlanmas lavhaga duch kelamiz.

Kuying ichra ichmagan zahr ila bir g‘am qolmadi,
Furqatingda ko‘z yoshimdan o‘zga hamdam qolmadi.
G‘amzalar paykonidan ko‘ksimda bir dam qolmadi,
Ko‘r, bu g‘amdin tan g‘arqi to‘ponimdadir. [1.:11]

Oshiq o‘zidagi holatni shunday tasvirlaydi: Oshiq ma’shuq orqali tortgan azoblar natijasida ado bo‘lib, ko‘z yoshi daryosiga tushib g‘ar bo‘layotgan kema kabiday. Shoir bunday badiiy obrazni qo‘llab, hech kimda uchramaydigan, takrorlanmaydigan lavha orqali o‘zidagi holatni tasvirlab beradi. Bu ham shoir Bimiyning o‘zgacha ekanligini ko‘rsatib beradi.

Bimiy xalq she’riyati va jonli so‘zlashuv tiliga xos rangin ta’bir va ifodalarni ham she’riyatimizga olib kirdi, badiiy til imkoniyatlarini kengaytirib, sodda, ravshan va o‘ynoqi g‘azallar yaratdi.

Nogoh ko‘ribon mahv jamoling bo‘la qoldim,
Oydek yuzungga boqtimu hayron bo‘la qoldim. [3]

Mana shunga o‘xshash ya juda ko‘plab xarakterli misollarda Bimiyning oshiq-ma’shuqlik mojarolari haqida eski mavzuni andijon adabiy muhitidagi soddalik, samimiyat, sho‘x lirizm bilan orginal shakllarda jonli harorat bilan kuylashga muvaffaq bo‘lganini ko‘ramiz.

Bimiyning mavjud asarlari bizgacha shoir hayotligida bosilgan toshbosma bayozlari orqali yetib kelgan. Uning ko‘plab g‘azal va muxammaslari “Armug‘oni Xislat”, “Tuhfai Xislat”, “Bayozi Xaziniy” kabi bayozlaga kiritilgan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, syuksak iste’dod sohibi shoir Bimiy she’riyati xalqchiligi bilan Andijon adabiy muhitining shakllanishi va rivojlanishiga hissa qo‘shgan. U yozib qoldirgan lekin topilmagan asarlarini o‘rganish bizning oldimizda turgan asosiy vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qobulov N., Dolimov U. Erk va ma’rifat kuychilari. – T.: 1979. B-10-13
2. Is’hoqov M. Andijon adabiy gurungi. – T.: Mumtoz so‘z. 2013
3. Tuhfai Xislat. – T.: G‘ulom Hasan Orifjonov matbaasi, 1333 (1915)
4. Qayumiy P. Tazkirayi Qayumiy. I jild. – T.: 1998
5. Abdullayeva D.Z. “Tazkirai Qayyumiy” asarida Andjon shoirlari haqida. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.
6. Qur’onov D. Ma’naviyat beshigi Andijonda madaniy hayot va adabiy muhit. Turk düyasi kültür başkentlerì bìlgì şölenì. Bìldì metìnlerì. 2015
7. Qur’onov D. Ustozlar guldastasi. – T.:2019

AMIR TEMUR DIPLOMATIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Oxunov Abdulla
Bag‘dod tumani 53-maktab tarix fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6696675

Annotatsiya: ushbu maqola Amir Temur diplomatiyasining o'ziga xos xususiyatlari va bugungi kundagi ahamiyati haqida yozilgan bo‘lib, unda Amir Temur siyosati chet davlatlar bilan olib borilgan aloqalar va ular o‘rtasidagi savdo haqida yozib borilgan.

Kalit so‘zlar: diplomatiya, Eron, Ozarbayjon, savdo, elchilik, 8 mart elchilik, Boyazid Yildirim

Barcha zamonlarda mamlakatlararo siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalar bo‘yicha o‘zaro aloqalarning shakllanishi va rivojlanishida elchilik munosabatlari muhim ahamiyat kasb etgan. Hozirgi globallashuv, davlatlararo siyosiy va iqtisodiy jarayonlarning keskinlashuvi sharoitida ham mamlakatlarning o‘zaro hamkorlik va do‘stona munosabatlarini ta’minlashning eng umume’tirof etilgan dastaklaridan biri o‘zaro diplomatik aloqalarni rivojlantirish hisoblanadi. Elchilik aloqalarini rivojlantirishda mamlakatlararo munosabatlarning tarixan shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, o‘tgan zamonlarda mavjud bo‘lgan davlatlar, qirollik va amirliklarning muvaffaqqiyatli diplomatik munosabatlari, elchilarning tayinlanish, yuborilish va kutib olish tartiblari, ularning diplomatik faoliyati va ulkan tajribasini o‘rganish ham ahamiyatlidir. Masalan, juda katta saltanatga hukmronlik qilgan va o‘z zamonining buyuk siyosat arbobi, mohir diplomat va sarkarda – Amir Temurning xalqaro munosabatlarda boshqa mamlakat vakillari bilan olib borgan diplomatik faoliyati hozirgi zamonda mavjud diplomatik tamoyillar, uslublar va odatlar bilan juda yaqin o‘xshashlikka ega. Ushbu maqolada Amir Temur diplomatiyasining o‘ziga xos xususiyatlari va uning bugungi kundagi ahamiyati tahlil qilinadi.

O‘rta asrlarda savdo bilan diplomatiya uyg‘unlashib ketgan edi. Amir Temur "Buyuk ipak yo‘li"ni nazorat qilib, xorijiy mamlakatlardan kelayotgan savdo karvonlari qatnovining xavfsizligini ta’minlashda rabotlar, qal’alar, ko‘priklar qurish yo‘lida muhim chora-tadbirlar ko‘rdi va Sharq bilan G‘arb o‘rtasida savdo-sotiq va elchilik aloqalarini har tomonlama rivojlantirishga g‘oyat katta e’tibor berdi. U poytaxtga ketayotgan savdogar va elchilarning beto‘xtov yurishi uchun sharoit yaratilishini talab qilardi.

Amir Temur eng muhimi, Eron, Ozarbayjon va Iroqdagi mayda hukmdorlar o‘rtasidagi tarqoqlik va boshboshdoqlikka barham berib, bu bilan nafaqat Movarounnahr, balki Uzoq va Yaqin Sharq mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga, xalqlar va mamlakatlarni bir-biri bilan yaqinlashtirishga ulkan hissa qo‘shdi. Amir Temur Yevropaning Fransiya, Angliya va Kastiliya kabi yirik qirolliklari bilan bevosita savdo va diplomatik aloqalar o‘rnatdi. Tarixshunos S.R.Moralez “The Diplomat in Spain” gazetasining internet saytida chiqargan maqolasida quyidagilarni bayon qilgan:

“O‘zbek diplomatiyasi haqiqatdan chuqur tarixiy ildizga ega. Ayniqsa, Sohibqiron Amir Temur davriga kelib, Yevropa davlatlari bilan hamkorlik aloqalari yanada rivojlana bordi. O‘zbek xalqi bu yil Amir Temur tavalludining 679-yilligini nishonlamoqda. Temur kabi sohibqironning tug‘ilishi nafaqat o‘sha zaminda, balki butun Yevropa va Osiyo davlatlarining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida tub burilish sodir etdi” [3]

Amir Temur umrining ko‘p qismini jangu jadallarda o‘tkazdi. Yangi hududlarni egallagan va o‘lkalarni dushman tasarrufidan ozod qilganda, shu yerlarni obod qildi, shu bilan bir qatorda, dastavval kuch ishlatmasdan sulh tuzish yo‘li bilan chora ko‘rdi. Bu uning diplomatiyasidagi o‘ziga xos xususiyat hisoblanadi. Nizolarni kuch ishlatmasdan hal qilish hozirgi zamon diplomatik munosabatlarining asosiy tamoyili hamdir. Islom Karimov ham “elchilarning yutug‘i urushni boshlamasidan turib uni yutishda” deb aytgan so‘zlari Amir Temurning diplomatik hislatini namoyon qiladi. [1] Shu bilan bir qatorda, Amir Temur o‘zining “Tuzuklari”da “qaysi ishni chora-yu tadbir bilan bitirishning iloji bo‘lsa, unda qilich ishlatmadim” degan so‘zlari fikrimiz dalilidir. [4]

Bundan tashqari, qaysi mamlakatni zabt etgan bo‘lsa, ularning odamlariga katta ehtirom ko‘rsatdi va ular uchun katta imkoniyatlar yaratib berdi. U o‘z “Tuzuklari”da shunday deb yozadi: “Qaysi mamlakatni zabt etgan bo‘lsam, o‘sha yerning obro‘-e’tiborlik kishilarini aziz tutdim, sayidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyihlariga ta’zim bajo keltirdim va hurmatladim, ularga suyurg‘ol vazifalar in’om etib, maoshlarini belgiladim, o‘sha viloyatning ulug‘larini bo‘lsa, o‘z farzandlarimdek ko‘rdim. Mazkur mamlakatlarning sipohlari uchun dargohim eshigi ochiq edi. Hammani qo‘rquv va umid orasida saqladim”. [4] Islom Karimov ham Amir Temurning bunday diplomatik hislatlari va mahoratini yuqori baholab, o‘zining “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” asarida u haqidagi bir rivoyatni misol keltirib, uning diplomatik qobiliyatini e’tirof etdi: “Amir Temur yarim jahonni zabt etib, olis o'rmon qabilalariga borib yetibdi, xullas, ularni ham o'ziga bo'ysundiribdi. Qaysar va jangari, ozod va samimiy bu qabila boshlig‘i chorasizlik tufayli Temurga qurollarini topshirar ekan, quyidagi gaplarni aytibdi: «Ey, Temur! Sen bizni qurol kuchi bilan yenga olding. Biroq senga aytadigan shartlarimiz bor.

Agar sen qassob bo‘lsang, bizni so'yib tashla, agar sen savdogar bo‘lsang, sotib yubor, agar podsho bo‘lib kelgan bo‘lsang – bizga baxt ato et!” [2]

Diplomatik yo‘l bilan o‘z ta'sir doirasini kengaytirish usulini Amir Temur o‘z faoliyatining ikkinchi bosqichi, ya'ni jahongirlik davrida ham keng qo‘llagan. U ayniqsa, kichik hukmdorlarga jangu jadalga kirishmaslikni, yuqori hokimiyat sifatida uni tan olgan holda o‘z yurtida avvalgidek hukmronlik qilaverishni tavsiya etgan. Manbalardan ma'lumki, ko‘p hollarda bu siyosat muvaffaqiyat qozongan.

Amir Temur diplomatiyasiga xos xususiyatlardan yana biri shuki, u raqiblariga yozgan xatlarida odatda sharqona odob-axloq va asrlar mobaynida qaror topgan udumlardan chekinmagan.

Amir Temur boshqa hukmdorlarga elchilar yuborar ekan, ularga yuklatilgan vazifaning ahamiyatiga qarab o‘z nomidan ish ko‘ruvchi bunday odamlarning e'tiborli, el-yurt ichida tanilgan, aql va zakovatli bo‘lishiga katta e'tibor bergan. Sohibqiron elchilarni tanlashda g‘oyat ehtiyotkorlik ko‘rsatgan, o‘z a'yonlari ichidan eng sadoqatli, bilimdon va hushyor kimsalarnigina bu ishga loyiq ko‘rgan.

Mamlakat bo‘ylab shunday tartib o‘rnatilgan ediki, elchilarni yo‘lidagi shahar va qishloqlarning hokimlari kutib olar, aholi uylaridan gilamlar chiqarib joy solar, dasturxon yozib mehmonnavozlik ko‘rsatar, tunash uchun munosib joy berar va yo‘lida davom ettirish uchun ot-ulov bilan ta'minlashar edi. Agarda Amir Temur kimni biror yerga yuborsa yoki uning qoshiga kimdir kelayotgan bo‘lsa, shu tarzda kutib olishardi va har kuni yangi ot bilan ta'minlashardi. Bu otlar aholi bor yerlarda ham, yo‘q yerlarda ham amirning buyrug‘iga ko‘ra tayyor turardi, ularga qaraydigan odamlar tayinlanardi. Aloqa tizimida o‘rnatilgan bunday muntazam tartib nafaqat elchilarga qulay sharoit yaratdi, balki Amir Temur bepoyon mulklarining har chekkasidan xabardor bo‘lib turardi.

Amir Temur buyrug‘i bilan Ispaniya elchilarining Xitoy elchisidan yuqori o‘tqazilishi misolida bu davlatning tashqi siyosati yorqin ifoda topadi. Bu omil Amir Temurning yangi-yangi davlatlar bilan diplomatik aloqalar o‘rnatishga katta ahamiyat berganini ko‘rsatsa, Xitoy bilan aloqalarning tarangligini ham namoyish etar edi. Demak, elchilarni qabul qilish marosimini davlatlararo aloqalarning xarakteri aks etgan ko‘zgu deb atasa ham bo‘ladi.

Amir Temur o‘zaro savdo aloqalarni yo‘lga qo‘yish uchun turli mamlakatlarga o‘z elchilarini yuborar edi. U o‘zaro manfaatli savdo-iqtisodiy, va madaniy aloqalarni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishga qat’iyat bilan yondashdi. Masalan, u savdo aloqalarini yo‘lga qo‘yish uchun Xitoy imperiyasiga 8 marta o‘z elchilarini yubordi. Uning saroyi turli davlatlardan kelgan elchilar bilan to‘la edi. [5]

Amir Temur diplomatiyasida davlatlarning o‘zaro xat almashinuvi muhim ahamiyat kasb etar edi. Masalan, Amir Temur va Boyazid Yildirim o‘rtasidagi xat almashinuvlari o‘ta keskinligi bilan ajralib turadi. Chunki ikki buyuk davlat

arboblarining xatlarida o‘zaro diplomatik muzokaralarni o‘tkazish haqida emas, balki ikki qudratli raqibning yakkama-yakka kuch sinashishga da’vatidan iborat bo‘lgan. Xususan, Boyazid o‘z xatida Amir Temurni zudlik bilan huzuriga yetib kelishini talab qilib, Sohibqiron sha’niga nomunosib so‘zlarni aytgan. Amir Temur esa bunday haqoratomuz munosabatga qaramay, Boyazidning elchilarini yaxshi nasihatlar bilan tinch-omon qo‘yib yuborgan. Amir Temurning Boyazidning haqoratlariga haqiqiy diplomat singari javob qaytarishi uning yozgan xatlaridan ham ma’lum edi: “Agar samimiy salomingiz va go‘zal ifodalar aks etgan maktub yuborsangiz har ikki tomonda ham biroz iliqlik va hurmat paydo bo‘ladi. Aks holda, qalamlar o‘z ishini qilichga topshiradi” [6]

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Amir Temurning diplomatiyasining asosiy xususiyati shundan iboratki, diplomatiyaning Sharq madaniyati bilan uyg‘unlashganidir. Undagi har bir harakat millatning an’ana, manfaat va qadriyatlariga binoan amalga oshirilgan. Hozirgi Sharq mamlakatlarida amalga oshirilayotgan diplomatik munosabatlarning Amir Temur diplomatiyasi bilan o‘xshashligini payqash qiyin emas. Elchiga ko‘rsatilayotgan hurmatdan tortib, to xorijiy mamlakatlarning oddiy vakillariga ko‘rsatiladigan ehtirom Sharq diplomatiyasi, ayniqsa, Amir Temur diplomatiyasining asosini tashkil etadi. Bu kabi xususiyatlar O‘zbekistonning hozirda olib borayotgan, tinchlik va o‘zaro hamkorlikni ilgari suruvchi, xavfsizlik va totuvlik kabi qadriyatlar bilan sug‘orilgan hamda boshqa davlatlarning qarorlarini hurmat qilish, nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish kabi g‘oyalarni o‘zida mujassamlashtirgan diplomatik aloqalarining asosiy mezonlaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va kelajagi yo‘lida xizmat – eng oliy saodatdir. – T: O‘zbekiston, 2015. 300-301-betlar.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T: O‘zbekiston, 2011. 13-bet.
3. Moralez S.R. Ruy González de Clavijo, un madrileño en el reino del Gran Tamerlán. “The Diplomats in Spain” gazetasining internet sayti, 2015. Veb: http://thediplomatinspain.com/ruy-gonzalez-de-clavijo-un-madrileno-en-el-reino-del-gran-tamerlan/
4. A. Sog‘uniy, H. Karomatov. Temur Tuzuklari. Forschadan tarjima. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.
5. Xo‘jayev A. Buyuk ipak yo‘li: munosabatlar va taqdirlar. – Toshkent: O‘zME, 2010. 199-bet.
6. Rahimboyev A. Amir Temur va Yildirim Boyazid orasidagi maktublashuv.

OJIZ IJODIDA TASAVVUFNING TUTGAN O‘RNI

Sotvoldiyev Davronbek Xasanboy o‘g‘li
Andijon davlat universitetining Pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti
Ilmiy rahbar: DcS Dotsent **M.Tojiboyeva**
https://doi.org/10.5281/zenodo.6696773

Annotatsiya: Andijon adabiy muhiti doirasida bir qator yetuk shoirlar yetishib chiqqan bo‘lib, ular o‘zbek badiiy tafakkurida o‘z o‘rniga egadir. Ushbu maqolada andijon adabiy muhitiga o‘z hissasini qo‘shgan ijodkor shoir Ojizning adabiy merosi xususida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningek Ojiz ijodida tasavvufning tutgan o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlari: Andijon adabiy muhit,Ojiz, tasavvuf, sohibi devon, anbiyolar.

Annotation: Andijan literary environment has produced a number of outstanding poets who have a place in Uzbek artistic thought. This article provides information about the literary heritage of the creative poet Ojizi, who contributed to the literary environment of Andijan. The role of mysticism in Ojizi's work is also highlighted.

Keywords: Andijan literary environment, Ojiz, mysticism, owner devon, prophets.

Аннотация: Литературная среда Андижана произвела на свет ряд выдающихся поэтов, занимающих видное место в узбекской художественной мысли. В данной статье представлена информация о литературном наследии творческого поэта Ожизи, внесшего свой вклад в литературную среду Андижана. Также подчеркивается роль мистицизма в творчестве Ожизи.

Ключевые слова: андижанская литературная среда, Ожиз, мистицизм, владелец девон, пророки.

“Andijon adabiy muhitining vakillaridan biri shoir Ojizdir. Asl ismi Eshon Abbos xalfa bo‘lgan Ojiz XIX asrning birinchi choragida Andijon shahrida tavallud topgan. Ojiz hayotiga oid ma’lumotlar bizgacha juda kam yetib kelgan bo‘lib, uning adabiy merosi jamlangan “Devoni Ojiz”da ham biografik ma’lumotlar deyarli uchramaydi.

Qo‘qon adabiyot muzeyi jamg‘armasidagi №460-raqam ostida saqlanuvchi qo‘lyozma to‘plamda uning Xudoyorxonning to‘ng‘ich o‘g‘li Andijon hokimi Nasriddinbek saroyida katta hurmatga ega bo‘lganligi hamda Andijonning mashxur “Afg‘on bog‘i”da o‘tkaziladigan she’riyat anjumanlarida doimiy ishtirok etishi, shuningdek, Manzur, Qori Yusuf Muntazir, Jozibxo‘ja Rindiy, Muhyi, Otabek qozi

kabi olim va shoirlar davrasida bo‘lgan ayrim voqealar tafsiloti ham keltiriladi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, Ojiz XIX asr o‘rtalaridan boshlab Andijon madaniy-ma’naviy hayotida muhim o‘rin egallagan shaxs sifatida ko‘rinadi [4.:3].

Bilamizki, sharq adabiyotida sohibi devon bo‘lmoq juda ham mushkul. Ana shunday “Sohibi devon” Ojiz, afsuski, adabiyot ahliga, deyarlik, tanish emas. Uning g‘azallari bilan tanishar ekansiz, yaxshigina, tasavvufiy shoir ekanligi guvoh bo‘lasiz.

Sharq mumtoz adabiyotida payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ga bag‘ishlab yozilgan va ul zotga ishora qilgan g‘azallar bisyor. Shoir Ojiziyning quyidagi g‘azalida ham ul zoti muborakning go‘zal siyratlari-yu sur’atlari o‘z ifodasini topgan!

Har nafasda yuz salom-u, har zamonda ming duo
Yetgay haqdin ruhiga, ey zoti poki Mustafo.

G‘azal matla’sining o‘zida Alloh mo‘jizasiga ishora bor (yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishi tufayli, har lahza yer yuzi bo‘ylab azon sadolari yangraashi barchaga ma’lum). Haq taolo tomonidan “Tanlangan zot”ning muborak ruhiga nido ila murojaat qilinmoqda.

Boisi qudrat zuhuridur vujudi komiling,
Nuri pokingning tufayli zohir o‘ldi mosivo.

Yagona tengsiz qudrat sohibi bo‘lgan Alloh azza va jalla inoyati bilan komil inson (Muhammad s.a.v.)ning vujudidan avval ul zoti muborakning nuri paydo bo‘lganini chiroyli ta’riflamoqda.

Chun shabistoni adamg‘a yoqdi yuz ming shamlar,
Maxfil iichra har kim iste’dodig‘a topdi ziyo.

Ul zoti muborakning ming shamning yog‘dusini ortda qoldiradigan nurli yuzlari qorong‘u tunda minglab iste’dod egalari uchun mash’ala bo‘ldi.

Anbiyo muhtoji xoki dargohingdur doimo,
Ko‘zlarini ravshan etgay bu g‘ubori to‘tiyo.

Bu yerda yana payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga bo‘lgan chuqur hurmatni ko‘rishimiz mumkin. Farqiki, endi bu hurmat payg‘ambarimizga payg‘ambarlar tomonidan ham ko‘rsatilmoqda. Ya’ni sening dargohingga hatto anbiyolar ham muhtoj. Makoningdagi g‘uborni ko‘zlariga to‘tiyo kabi surtgay.

Hijrat etting Makkadan ul kecha amri Haq bila,
Kiydi Ka’ba motamingda yuz libosi qab-qaro.

Ushbu misrada esa, juda go‘zal tashbeh va husni ta’lil san’atini ko‘rishimiz mumkin. Haq Taoloning amri ila payg‘ambarimiz Makkayi mukarramadan Madinayi Munavvaraga hijrat qilganlar. Bu tarixdan ma’lum. Lekin ushbu holatda makka ahlidagi musulmonlar juda qattiq Hasrat chekkanlar. Bilamizki, qora libosni motam bo‘lganda kiyilishi bor. Makka ahlining motam belgisi sifatida Kaba’tullohning ustiga qora mato yopilishidan chiroyli foydalangan shoir Ojiziy. Va mana shu tashbeh va husni ta’lil baytni yana ham go‘zal qilgan.

Ibtidosizg‘a sen bo‘lding ibtidoi mubtado
Topding oxir intihosizdan xabar beintiho.

Shoir Ojiziy tasavvufiy qarashlarining yana bir yorqin ifodasi shu baytda o‘z ifodasini topadi. Bu baytda Muhammad (s.a.v.)ning Me’rojga ko‘tarilganiga ishora bor. “ Ibtidosiz” va “ Intihosiz” so‘zlari orqali Allohni nazarda tutayotganini ko‘rishimiz mumkin. Tasavvufiy qarashlarga ko‘ra Tangrining jamolidagi go‘zallik nuriga tog‘lar bardosh berolmagan. Odamzodning esa jisman mavjud holda bunga quvvati yetmasligi aniq. Lekin “Olamlarga rahmat qilib yuborilgan zot” “ Ibtidosiz” va “ Intihosiz”ning nurini ko‘rmoqlikka Musharraf bo‘lgan. Va bu holatni Ojiziy baytning o‘zidagi ohangdorlik evaziga juda go‘zal tasvirlagan.

Solmadi yer uzra soya qomating e’jozidin,
Tutmayin ilking qalam, nasx etti dini anbiyo.

“Hazrati Halima kichik Muhammadni o‘z bolalaridan ham yaxshi ko‘rgani bois uni juda ehtiyot qilardi. Bir kuni opasi Shayma bilan qirga chiqqanini ko‘rib, qizini koyib berdi. Shayma onasiga tasalli berdi: – Siz tashvish tortmang. Ukamni doim bir parcha bulut quyoshdan saqlaydi. Doim uning tepasida suzib yuradi” [5.:7]. Demak ko‘rinadiki, Muhammad (s.a.v.)ning muborak yuzlariga quyosh nuri tushmagan.Keyingi misrada esa, muborak qo‘llari Qalam tutmasdan payg‘ambarlar tarixini bayon qilgan.

Chun qamar qildi tajammul iddaosin ko‘k uza,
Bir ishorat birla siyna choke tib, qilding duto.

Ushbu baytda ham payg‘ambarimizning ibratli hayotlaridagi mo‘jizalardan biriga ishora bor. Ya’ni Muhammad (s.a.v.)ning mo‘jizalari, Allohning inoyati ila, osmondagi oyni barmog‘i bilan ikkiga bo‘lganlari haqida.

Zavqim ortar na’tini so‘ylarga kundan-kun magar,

Ojiziy sharmandasini yo‘qlag‘ay yavm-ul jazo.

Maqtada Ojiziy o‘z umidini, orzusini bayon qilyapti desak xato qilmagan bo‘lamiz. Va o‘zini ancha xokisor tutmoqda (“Sharmandasini”). Ya’ni barcha musulmonlar payg‘ambarimizning shafoatidan umidvor. Alal xusus, Ojiziy ham. Kundan kunga payg‘ambarimizni yod etib zavqi ortib borayatgani va ana shu sababdin qiyomatda undan shafoatchisi bo‘lishini umid qilmoqda. Va bu g‘azalning mantiqiy yakuni.

Ojiziy g‘azalidagi ma’nolar, bevosita muqaddas Qur’oni karim va hadislar bilan chambarchas bog‘liq. Shoir g‘azallarining ayrimlarida ketma-ket kelgan misra yoki baytlarda Qur’oni karimdagi ba’zi bir oyatlar yoki hadisi shariflarga ishorani kuzatamiz. Men ham o‘z sharximda shu ishoralarni ochib berishga urunib ko‘rdim.

Yuqoridagi g‘azalning misralarida Qur’oni karimning oyatlariga va bir qancha hadislarga ishorani ko‘rib chiqdik. Ojiziyning ijodini o‘rganish jarayonida shunga amin bo‘ldimki, uning ijodi bilan tanishgan inson ham ma’naviy ozuqa, ham ruhiy zavq oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qobulov N., Dolimov U. Erk va ma’rifat kuychilari. – T.: 1979. B-10-13
2. Is’hoqov M. Andijon adabiy gurungi. – T.: Mumtoz so‘z. 2013
3. Qur’onov D. Ustozlar guldastasi. – T.:2019
4. Madg‘oziyev. Ko‘hna Sadolar. – T.: Akademnashr, 2020
5. Shohista Kamol qizi. “Muhammad alayhissalomning bolaligi va yoshliklari”. – T.: “Movarounnahr”, 2005
6. Usmanov F.F. Linguocultural competence as the means of identifying images in fixed similes // Theoretical & Applied Science. №5 (73). 2019. p. 17-20. URL: http://www.t-science.org/arxivDOI/2019/05-73/05-73-4.htm
7. Nabiyeva D.A., Nurmonova S.D. СОВРЕМЕННОЕ ЖАНРОВЕДЕНИЕ ИЛИ ГЕНРИСТИКА: ТЕОРИИ, МЕТОДЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ // Theoretical & Applied Science. 2020/4. -С. 824-827. URL: https://www.elibrary.ru/item.asp?id=44843224

ҚАРАҚАЛПАҚ ТОЙ ҚОСЫҚЛАРЫНДАҒЫ АЙЫРЫМ ЭТНОГРАФИЗМЛЕР

Айнура Сайманова Мадреймовна
ҚМУ таяныш докторанты
https://doi.org/10.5281/zenodo.6696884

Аннотация: Ҳәзирги ўақытта улыўма тил билиминде, соның ишинде қарақалпақ тил билиминде тил ҳәм мәденият арасындағы байланыс ҳәм оны үйрениў әҳмийетли мәселелерден бири есапланады. Бул мақалада қарақалпақ халық қосықлары тилиндеги айырым этнографизмлер, олардың мәниси, халықтың үрп-әдет ҳәм дәстүрлеринде сәўлелениўи үйренилди.

Таяныш сөзлер: этнографизм, үрп-әдет, дәстүр, той, миллийлик, тойхана, мереке, беташар, көримлик, шашыў, сарқыт, пәтия, пәтияласыў.

Той әййемги заманлардан берли адамзат өмиринде үлкен әҳмийетке ийе болып келген. Айырым фольклористлер «той» атамасының өзи «тойыў», «дослар менен ағайин-туўғанлардың дийдарына тойыў», «ел-журтқа зыяпат бериў» сыяқлы мәнилерди аңлатыўын атап көрсеткен [7.39]. Той жүдә кең түсиник болып, ол өз ишине ҳәр қыйлы үрп-әдет ҳәм дәстүрлерди, мәресимлерди, ырымларды, қәделерди қамтып алған.

Қарақалпақ халық қосықларында тойларға байланыслы *тойхана, мереке, беташар, көримлик, шашыў, сарқыт, пәтия, пәтияласыў,* т.б. бирнеше этнографизмлер қолланылған. Оларда халқымыздың миллийлиги, үрп-әдет ҳәм дәстүрлери, миллий инаным ҳәм түсиниклери, дүньяны таныў өзгешеликлери сәўлеленген.

Жоқарыда атап өткенимиздей, инсан ең жақсы күнлерин белгилеў ушын той береди. Оған синоним ретинде тилимизде *мереке* сөзи де қолланылады. Ол *жыйын, той-тамаша, ҳайт, отырыспа, байрам, адамлардың көп жыйналған жери* [4.297] сыяқлы мәнилерди аңлатады. Қыз-жигит жыйналмай *мереке* қызбас («Қызлар үйге кир», 27-бет). Мине усындай тамаша яки мереке болып атырған үйди халық арасында *тойхана* деп атаў әдетке айланған. Ол *той болып атырған үй, жай, орын* сыяқлы мәнилерди аңлатады [5. 330]. Биз отырмыз *тойханада* («Той баслаў қосығы», 27-бет).

Халқымыздың ең үлкен, ең қызықлы, қуўанышқа толы тойларынан бири – бул неке тойы есапланады. Ата-бабаларымыздан киятырған дәстүр бойынша ата-аналар улларын үйлендирмекши болса, дәслеп болажақ келинниң үйине барып қыз-жигитти бир-бирине қосыўға келисиў, пәтия оқып келисиў, куда болыў [5.104] ушын пәтияласады. Қарақалпақ халқында «…кудалар еки-үш

жасы үлкен болып, куда түсиў ушын қыздың үйине келеди. Буннан алдын ала хабар тапқан қыздың ата-анасы да өзлериниң бир-еки жасы үлкенин алдырып қояды. Қудаларға арнайы қазан көтерип, күтеди. Еки тәреп тиң жасы үлкенлери қудалық ҳаққында сөйлеседи. Тамыр жаңалаўға келисилгеннен кейин нан сындырысады. Бир-бирине оң болсын айтады. Нан сындырысыў еки тәреп тиң есабынан пүтин жуп нан қолға алынып, дәслеп қызды сорап келген қудаларға усынылады. Олар жасы үлкеннен баслап, гезек пенен жуп наннан қоса сындырып аўыз тийгеннен кейин, нан қыз тәрептеги қудаларға усынылады. Усылай етип еки жасқа бахыт тилеп, *пәтия* оқылады» [8.270-271]. Ол халық қосықларында мына қатарларда көринеди: *Пәтияласқан* жериңиз, Алып кетер яр-яр («Ҳәўжар», 127-бет). Пәтияласып болынғаннан соң «…қыздың узатылатуғын сәршембиси белгилененди. Бурында «сәршемби – сәтли күн» деп қыз узатыў тек ғана сәршемби күнине белгиленген. Белгиленген сәршемби күни, ямаса ара алыс болса оннан бир күн бурын қудалар ҳәм қызды алып кетиўши күйеў топары еки-үш жигит болып қыздың үйине келеди» [8.271]. Сән дүзип *сәрсенбиде той қылыпсыз* («Той қосықлары», 28-бет). *Шәршемби күни* сәскеде, Той баслапсыз яр-яр («Ҳәўжар», 122-бет).

Солай етип, белгиленген күни қызды алып кетеди ҳәм той-тамаша ең дәслеп келиншектиң бетин ашыў менен басланады. Бул дәстүр халқымызда *бет ашар* деп аталып, ол *«жаңа түскен келиншекти халыққа көрсетиў, таныстырыў ушын айтылатуғын тақмақ түриндеги қосық»* [2.279] деген мәнини аңладаы. *Беташар* өзбеклерде *келин салом*, қарақалпақ ҳәм қазақ халықларында *беташар* деп аталады. «Қазақтың ерте заманлардан киятырған дәстүрлериниң бири – бул жаңа түскен келиншектиң бетин ҳешкимге көрсетпей, желек пенен жаўып әкелиў. Келиншектиң бетин ҳәмме ўақытта бүркеп қойыўға болмайды. Сонлықтан оның бетин ашыў керек болған. Бул дәстүрди *беташар* деп атайды. Беташарды ашқан адамға қәде ретинде ақша я таўар береди» [1.71]. Мысалы: Сақый болса атасы, Ат пенен түйе болады, *Бет ашардың* бәйгиси («Көримлик айтым», 34-бет), Бүгин түскен келинниң, *Бетин ашып берейин* («Толғаў», 31-бет), Келдим мен де қуўанып, *Бетиңди келин ашыўға* («Бет ашар», 41-бет), *Келиншек бетин ашайық*, Жыйналған мына халайық, Келиншектиң бетин көриңиз («Көримлик айтым», 35-бет). Мен бий ағам алдында той баслайын, *Астыма ат, үстиме тон бериңиз* («Қутлы болсын тойларыңыз», 28-бет). Бет ашар дәстүрине бола, таза түскен келиншек, босағасына, ата-енесине, қайын журтына, жыйналған халайыққа ийилип сәлем береди: Келин, келин келип тур, *Ийилип сәлем берип тур* («Айтымал», 30-бет). Ертеде өлип кетипти, Шамурат деген атасы, Оған *бериң бир салем* («Бет ашар», 48-бет). Өткен аталарымызға, Оған да *бериң бир сәлем* («Бет ашар», 48-бет). Қәйин журты халқына, *Ийилип сәлем берип тур* («Бет ашар», 49-бет).

Қайыпназар сениң қайнағаң, Оған *бериң бир сәлем* («Айтымал», 30-бет). «Келин ушын еңкейип түскен босаға муқаддес есапланады. Үйдеги гәп ҳешқашан усы босағадан тысқа шықпаўы керек» [8. 288]. Қатарынан кем емес, *Ийилип түскен үйиңиз* («Бет ашар», 43-бет).

Бет ашар ўақтында келиншекти ең биринши рет көрсеткен адамға *көримлик* бериледи. Ол *«бир нәрсени ямаса затты биринши рет көргенлиги ушын қонақтың, яр достың үй ийелерине ямаса олардың жақын жуўықларына беретуғын сыйлығы, саўғасы, сыйы»* деген манини аңлатады [4. 20]. Келин келди деп қуўанған, *Көримлик* бер десе тулланған («Бет ашар», 53-бет). Тек ғана келиншекти емес, күйеў баланы ямаса дүньяға келген нәрестени ең биринши рет көрсеткен адамға да берилетуғын қәде есапланады.

Сондай-ақ, бет ашар ўақтында келин түсирип атырғанына қуўанышлы екенлигин, басқаларға да усындай күнлер несип етсин деген ырым менен ҳаяллар *шашыў* шашады. Ол *«келин түсиргенде, балалы болғанда берилетуғын майсөк»* деген мәнини аңлатады [5.517]. Ҳәзирги ўақытта тек ғана майсөк емес, ал ҳәр қыйлы мазалы нәрселер, ойыншықлар да шашыў етип шашылады. Шашыў тек ғана келин түскенде емес, ал басқа қуўанышлы күнлерде де шашылады. «Нәресте дүньяға келгенде, келин түскенде, қуда келгенде, жақынлары алыс сапардан келгенде ҳәм т.б. усы сыяқлы қуўанышлы күнлерде ҳаяллар шашыў шашады. Шашылған шашыўды тойға қатнасыўшылар терип алып, ырым етип, балаларына апарып береди. Шашыўды шашыў арқалы қазақлар өзиниң қуўаныш пенен сезиминиң асып төгилиўин көрсеткен ҳәм бул қуўанышты басқалар менен бөлисип, соларға да тилеклеслигин билдирген. Жергиликли қазақлар тилинде шашыў этнографизми қазақ тилиндеги шилдехана сөзиниң синонимии ретинде де қолланылады. Буны айырым жерлерде бесик тойы деп те атайды. Бул тойды туўыў үйинен шығып келген нәрестениң өмир жолына қуўанышты билдириў ретинде береди» [1.55]. *Шашыўды* енең шашыўда («Бет ашар», 41-бет). *Шашыўды* да төгиңлер («Толғаў», 31-бет). *Шашыўлары* сатырлап, Есиктен төрге шашылды («Бет ашар», 49-бет).

Тилимизде аўқатланыў дәстүрине де байланыслы бирнеше этнографизмлер ушырасады. Өйткени, халқымызда асқа, тағамға айрықша ҳүрмет пенен қаралады. Әдетте аўқат жеп болынғаннан соң *пәтия* оқылады. О еки түрли мәниде қолланылады. Биринши, қолды жайып қуда жолына, өлген адамлар ушын яки аўқат жегеннен кейин айтылатуғын тилек, екиншиси, тилек, алғыс [5.104]. Төрде отыр келинге, Беремен деп *пәтиямды* («Айтымал», 42-бет). Аўқатланыўға байлансыслы және де *сарқыт* этнографизми де қолланылады. Ол *бир заттан, аўқаттан қалдырып басқаларға берилетуғын бөлек, бөлим* деген мәнини аңлатады [5.181]. «Жасы үлкенлер табақ бергенде келин оны қос

қоллап алып, ийилип тәжим етеди ҳәм сарқыттан бир түйир алып аўыз тийиўи тийис. Қарақалпақларда «сарқытта шыпа бар» деген ибратлы гәп бар» [8.290]. *Сарқыт* берип сыйлаған («Көримлик айтым», 35-бет).

Жуўмақлап айтқанда, ҳәрбир халықтың өзине тән миллий үрп-әдет дәстүрлери болып, олар тилде этнографизмлер арқалы аңлатылады. Қарақалпақ халық қосықлары тилинде де халқымыздың бай миллий белгилерин көрсетиўши бирқанша этнографизмлер ушырасады. Олардың айырымларын таллаў арқалы төмендегидей жуўмаққа келдик:

1. Халық қосықлары тилинде көбинесе той дәстүрине байланыслы этнографизмлер жийи ушырасады.
2. Соның менен бирге аўқатланыў дәстүрине тийисли бирликлер де жумсалған болып, оларда да халықтың дүньяны таныў өзгешелиги сезилип турады.
3. Этнографизмлердиң көпшилиги ырымлар менен байланыслы ҳалда дөрелген болып, оларда халықтың миллий инаным ҳәм тусиниклери өз көринисин тапқан.

Әдебиятлар

1. Адилова Г. Қарақалпақстан қазақлары этнографизмлериниң лингвомәдений анализи. Филол.илим.док. (PhD). дисс. – Нөкис. 2018. –Б. 150.
2. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. I том. –Нөкис, «Қарақалпақстан». 1982.
3. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. II том. –Нөкис, «Қарақалпақстан». 1984.
4. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. III том. –Нөкис, «Қарақалпақстан». 1988.
5. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. IV том. –Нөкис, «Қарақалпақстан». 1992.
6. Қарақалпақ фольклоры. Көп томлық. V том. Қарақалпақ халық қосықлары ҳәм салт жырлары. –Нөкис, «Қарақалпақстан». 1980.
7. Murodova M. Folklor va etnografiya. –Toshkent. 2008.
8. Нызанов М. Қарақалпақлар.Нөкис, «Билим». 2020.

ЎҚУВЧИЛАР КАСБИЙ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ТИЗИМИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ АМАЛИЙ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАР

Камолахон Жўраева Мамиржоновна
Фарғона вилояти Данғара тумани
24-умумтаълим мактаби амалиётчи психологи
https://doi.org/10.5281/zenodo.6697004

Аннотатсия: ушбу мақола ўқувчилар касбий маданиятини шакллантириш тизимига таъсир этувчи амалий психологик омиллари хақида ёзилган. Унда ёш авлодга тўғри касб егаллашга қаратилга маьлумотлар берилган.
Калит сўзлар: касбий маданият, ўқувчи, психологик омиллар, маданият.

Бугунга кундаги ёшларимизнинг ҳар томонлама кучли, билимли, салоҳиятли, тафаккур доираси кенг, ўз ишининг моҳир ижодкори, ўз Ватанининг жонкуяри бўлиши, мустақил Ўзбекистоннинг тараққиёти учун муҳим аҳамият касб этади.

Ёшларимизнинг илм фаннинг сўнгги ютуқларидан тўлиқ баҳраманд қилган ҳолда, уларга тарихимизни, миллий қадриятларимизни, маънавий меросимизни тўлиқ ўргата боришимиз керак. Бу билан ёшларда уларни касбий маданиятини ҳам шакллантирган бўламиз.

Албатта, бунда ўқувчи-ёшларда касбий маданиятни шакллантириш инсон камолотининг асосини ташкил этади. Чунки, касбий маданият кишининг ҳатти-харакатида, одобида, ички кечинмаларида ва айниқса, инсонларнинг бир-бирига бўлган ғамхўрликларида, ҳурмат қилишларида, билимларида, ҳис-туйғуларида, хулқ-атворида, наъмунали фаолиятида намоён бўлади. Касбий маданият тузилишининг асосини инсон фаолияти ташкил этади. Чунки, фаолият – бу инсоннинг ўраб турган дунёга бўлган муносабатини ўзига хос хусусиятлари, бир мақсадга қаратилган ҳаёт мазмунидаги ўзгаришлар, тузатиш кабиларни ташкил этади. Фаолиятнинг асосий иш тури меҳнат бўлиб, у инсоннинг жисмоний ва маънавий ривожланишида муҳим роль ўйнайди. Меҳнат инсоннинг мулоқот ўқиш фаолиятлари билан чамбарчас боғлиқ.

Фаолият мазмунидаги турли ҳаракат ва сабаблар, бирон бир мақсадга қаратилган, йўналтирилган ва бунинг натижасида эришилган ютуқлар ўқувчининг касбий маданиятини шакллантиришда катта роль ўйнайди. Фаолиятнинг мазмуни шарт-шароитлари, воситалари ўзгариб бориши натижасида ҳар бир ўқувчининг касбий онги, касбий маданияти такомиллашиб боради. Демак, фаолиятни тўғри ташкил этиш натижасида ўқувчиларнинг фаоллигига иш режаларининг аниқ бўлишига, кўзланган мақсадига, ҳатти-

харакатларининг намунали бўлишига эришиш мумкин. Албатта бунда унинг юриш-туриши, турмуш тарзи, мустақиллиги намоён бўлади. Касбий маданиятни ташкил топишида ҳар бир ўқувчининг ўзига хос фаолиятини шакллантириш ва унга раҳбарлик ва назорат қилиш ўқитувчининг асосий вазифасидир. Чунки, бунинг натижасида ўқувчида мустақиллик, масъулият, интизом каби сифатлар ривожланади. Ўқувчиларда юриш-туришни бошқара олиш, фойдали ташаббус, қатъиятли бўлиш, кўзланган мақсадга эришиш каби ахлоқий-иродавий ҳислатлар шаклланади.

Ўқувчи - ёшларнинг фаолиятини ривожлантириш ўқитувчидан ижодий ёндашишни талаб этади. Чунки, ўқитувчи ўз ўқувчиларининг фаолиятида уларни кузатади, ижобий тажрибаларини оммалаштиради. Ўқувчиларда мустақиллик, ташаббускорлик, ишга ижодий ёндашиш каби хусусиятларни намоён бўлишига, уларнинг қобилиятларини оширишга ёрдам беради. Ўқувчиларнинг касбий маданиятини шакллантиришнинг асосий йўналишлари ва мақсадларини амалга оширади. Ўқитувчи ўз ўқувчиларининг фаолиятини ташкил этишда ҳамиша қувонч, мамнуният туйғусини ифода этиши билан бирга, уларда ахлоқий эътиқодни тарбиялайди.

Демак, фаолият давомида кишининг шахси, хулқ-атвори шаклланади, ҳаракатлар ривожланади. Шундай экан, ўқитувчиларнинг вазифаси фаолият жараёнида ўқувчиларга бажариши лозим бўлган ишни кўрсатиш ва тушунтиришдан, вазифа ва талаблар қўйишдан, текшириш ва тузатишлар, бажарилган ёки бажарилмаган ишлар учун рағбатлантириш ва жазолашдан иборат бўлади. Ўқитувчи ушбу таъсирлар ёрдамида ўқувчиларга касбий маданиятга оид билимларни эгаллашга ва фаолият кўрсатишда истак туғдириш билан бирга унинг йўналишини кўрсатадилар. Демак, ўқитувчилар ўқувчиларнинг фаолиятини тўғри ташкил этишдан махсус иш олиб боришлари, ўзига хос шакл ва методларидан фойдаланишни талаб қилади.

Ўқувчиларнинг касбий маданиятини шакллантиришда таълим жараёни-меҳнат фаолияти, ўқувчилар жамоаси муҳим воситалар бўлиши лозим. Чунки, жамоа фаолиятида ўқувчиларда одамларга нисбатан меҳрибонлик, ғамхўрлик, меҳр туйғулари шаклланади. Касбий маданиятни шакллантириш бу ўз-ўзини бошқариш, ўз-ўзига доимо дунёқараш ва камчиликларни ўзиддан қидириш, ўз-ўзига талабчан бўлиш; ҳамма жойда аниқ ишларни бажариш, ўз-ўзини тарбиялаш ва бунда кучли ва кучсиз томонларни аниқлаш, ахлоқий тарбияланганлигини, билимларни яхши эгаллаганлиги, ахлоқий туйғуларнинг ривожланганлиги, мақсадга интилиш, довюраклик ва ҳал қилувчанлик, талабчанлик, ташаббускорлик ва мустақиллик, ўз-ўзини идора қилиш ва тута билиш ташкил этади.

Ўқувчиларда миллий қадриятларга доир билимлар уларнинг фаолиятида маънавий кўникма ва малакаларни шакллантиради. Демак, касбий маданиятни шакллантириш ўқувчиларнинг мактабда турли ижтимоий фанлар асосларини эгаллаши борасида пайдо бўлади. Натижада ўқувчида ахлоқий билимлар ривожланади. Ҳаётда, тажрибада билимлилик билан билимсизлик баробар эмаслигини кўп учратиш мумкин. Билим – ўқувчи ёшларнинг ахлоқий, маънавий, маданий муносабатларида намоён бўлади. Ўқувчи ёшларнинг касбий маданиятини шакллантиришда таълим-тарбия жараёнининг мазмуни, шакл ва методларини такомиллаштириш алоҳида роль ўйнайди. Бу ўқитувчининг билим савиясига педагогик маҳоратига, касбий қобилиятига боғлиқ. Ўқувчиларнинг дарсларда олган билимлари уларнинг турмушида, хулқ-атворида жамиятдаги кишиларга муносабатида намоён бўлади.

Дунёвий билимлар ҳар бир шахсни, маданият, инсоният, маърифат дунёсиги олиб киради. Яхши хулқ ва одобли бўлишга, эътиқодларни оширишга хизмат қилади. Касбий маданият тузилишида ахлоқий ҳис-туйғулар асосий ўринни эгаллайди. Ахлоқий, эстетик ҳис-туйғулар шахснинг маънавий фаолиятида, воқеа ва ҳодисаларда, ахлоқий жараёнида намоён бўлади. Ахлоқий ҳис-туйғулар ўз мазмунига кўра ахлоқий ишонч, ахлоқий онг билан чамбарчас боғлиқдир. Ахлоқий ҳис-туйғулар жараёнида интилиш, яхши кўриш, бурч, масъулият, ор номус каби ҳислар камол топади. Шуни айтиш керакки, касбий маданиятни шакллантириш ҳар бир кишининг шахс сифатида ривожланишида муҳим аҳамиятга эга. Инсон ўзини билиш ёки англашида, бошқаришида фақатгина унинг билими ёки одоби етарли эмас, ҳис-туйғулар киши фаолиятига нисбатан аниқ билимларни қўллашга суянишни тақозо қилади. Таълим жараёни меҳнат фаолияти ўқувчилар жамоаси ахлоқий ҳис-туйғуларни шакллантиришнинг асосий воситалари ҳисобланади. Ўқувчиларнинг ахлоқий ҳис-туйғуларини тарбиялашда соғлом муҳит, завқли вазиятни вужудга келтириш муҳимдир.

Шуни айтиш керакки, ахлоқий ҳис-туйғу кишининг ҳоҳиши ва иродасида, турмушида, жамиятдаги вазиятда, ўқитувчи талабларини амалга оширишда, ўқувчиларнинг ўз ўрни ва мавқеини англашда ифодаланиш билан бирга ахлоқий онгнинг асосини ташкил этади. Бу ўринда айниқса ўқитувчилар ўқувчилар билан ўтказилган мулоқотлари муҳим аҳамиятга эга. Ўқувчилар ўз ўқитувчилари билан мулоқотга киришар эканлар, ўз онгида кишиларнинг ахлоқий ҳис-туйғуларини, хулқларидаги муайян намуналарни тасаввур қиладилар. Ўқитувчиларнинг фикри, кечинмаси, кўрсатмаси, хулқи ва хатти-ҳаракати таъсири остида ўқувчиларнинг ахлоқий хис туйғулари жараёнида ахлоқий маданиятни шакллантириш туйғулари кучайиши ёки аксинча сусайиши мумкин.

Касбий маданиятни шаклланишида кишининг хулқ - атвори муҳим ўрин эгаллайди. Хулқ – атвори касбий маданиятининг муҳим қисми бўлиб, у тадбир ва интизомда, ҳаёт нормаларини бажаришда, жамиятга, меҳнатга, одамларга нисбатан билдириладиган ахлоқий муносабатда намоён бўлади.

Ўқувчининг хулқ-атвори касбий маданиятини шакллантириш ўқитувчидан ахлоқий тарбия ишларини олиб боришни талаб қилади. Албатта бунда ўқитувчи хулқ- атвор маданиятини тарбиялашда унинг ахлоқий онгига, синф жамоасига асосланиши керак. Шу билан бирга ўқувчи фаолиятини тўғри ташкил эта билиш ҳам хулқ – атвор маданиятини тарбиялашда самарали натижалар беради. Албатта бунда юқори синф ўқувчиларида хулқ – атворни тарбиялаш, уларни назорат қилиш, ҳатти-ҳаракатларига алоҳида аҳамият бериш билан бирга, доимий талабчан бўлиш мақсадга мувофиқдир.

Шахсни касбий маданиятини шакллантиришда маънавий онг билан хулқ - атвор ўртасида, яъни сўз билан иш ўртасида бирлик бўлишга эриши зарур, лекин бу бирлик ўз-ўзидан вужудга келмайди, балки тинимсиз тарбиявий ишларни амалга оширишни талаб қилади.

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, ўқувчиларнинг хулқ-атвори ахлоқий тушунчаларни билиш билан белгиланмайди. Ўқувчининг ахлоқий маданиятини шакллантириш, унинг хулқини тарбиялаш ва хулқидаги салбий томонларни бартараф этиш ҳақида А.Авлонийнинг “Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ” асарида атрофлича ёритилган.Авлонийнинг фикрича боладаги эзгу ва олижаноб ёки разил бадбин хулқ ўз-ўзидан пайдо бўлмайди. Уларнинг шаклланиши учун маълум шароит ва тарбия керак. Бола тарбиясида А.Авлоний тўхталиб: “Агар яхши тарбия топиб, бузуқ хулқлардан сақланиб, гўзал хулқларга отланиб катта бўлса, ҳар ким қошида мақбул, бахтиёр бир инсон бўлуб чиқар. Агар тарбиясиз ахлоқи бузулуб ўсса, аллохдан қўрқмайдургани, насихатни қулоғига олмайдурган, ҳар хил бузуқ ишларни қиладурган, нодон, жоҳил бир расвойи олам бўлуб қолур”, - деб ёзади. А.Авлоний болани касбий маданиятини шакллантиришдаги матонат, диёнат, назорат, саъй ва ғайрат каби ўттиздан ортиқ хулқ сифатлари тўғрисида маълумот беради. Ўқувчи фаолиятини маданий манбаи ҳисобланган хулқ – атвори касбий маданиятни шакллантиришнинг энг юқори босқичи ҳисобланади. Чунки ахлоқий билим, ҳис-туйғулар, хулқ-атвор ўқувчи хулқида намоён бўлади. Доно халқимизнинг “хулқ” ақлли киши учун улуғлик ва фазилатдир, “Хулқи йўқ” нақллари бежиз айтилмаган.

Демак, ўз хулқини одоб билан қуроллантирган, қўлини эса тўғриликка одатлаштирган кишигина камолотга эришиши мумкин. Камолотга эришган инсон яхшилик билан ёмонликни фарқини билади, фойда билан зарар

ўртасидаги тафовутни, чиройли фазилатларини англайди, ўз фаолиятида ёмон ҳислатлардан ҳоли бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. А.Авлонийнинг “Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ”
2. Муаллиф ижодидан.
3. Ўқувчилар касбий маданиятини ўрганиш. Қўлланма. Т: 2013.
4. www.ziyonet.com.

GILAM TO'QISH SIRLARINI O'QITISHDA "MAHORAT DARSI" USULINI QO'LLASH

To'xtamishova Durdona
QarDU magistranti
Ilmiy rahbar: dotsent **Tilavov Yunus**
https://doi.org/10.5281/zenodo.6697124

O'zbekiston Respublikasi har bir hududi o'zining naqshinkor gilamlari va gilam to'qish an'analari, usullari, sirlari boshqa ishlov berish texnologiyasiga o'xshamagan jozibadorligi va yuksak saviyadagi kompozitsiyalari bilan ajralib turadi.

Gilam to‘qish san’ati xalq amaliy bezak san’atining keng tarqalgan turlari hisoblanib, u ko‘p asrlik milliy an’ana va uzoq tarixga ega. Uning tarixiy ahamiyatining dunyo xalqlari muzeylarida saqlanuvchi gilamdo‘zlik yodgorliklari, turli kolleksiyalar, badiiy fondlar, shuningdek tarixiy qo‘lyozmalar ham tasdiqlab turadi. Barcha xalqlarda gilamdo‘zlik san’ati qadim zamonlardan beri rivoj topganligini arxeologik topilmalar natijasi ham tasdiqlab turadi.

Ma’lumotlarga qaraganda eng qadimgi (eramizdan av. 5 asrlarga mansub) qo‘lda to‘qilgan gilamlardan biri 1949 yilda arxeologik olim S.N.Rudenko tomonidan sobiq ittifoq hududining Pazariq vohasida 5 km uzoqlikda Oltoy tog‘i muzliklaridan topilgan.

Gilamning 2500 yil muzliklarda qolib ketishiga qaramay, deyarli shikastlanmay saqlanganligi qadimgi gilamdo‘zlarning ulkan mahoratidan dalolat beradi. Gilam hozirda davlat ermitajida saqlanib kelinmoqda.

Tarixiy manbalar guvohlik berishicha qadimdan Ussuri, Bobil keyinchalik Eron, Hindiston, Turkiya gilamlari mashhur bo‘lgan. Eronda gilamdo‘zlik ayniqsa shoh Tammasha (1524-1576 yillar) va shoh Abbos davrlari (1586-1623 yillar) da keng rivoj topdi. Ustaxonlarda gilamlar jun, ipak va zar iplardan tayyorlangan.

XII asr qo‘lyozmalarida o‘sha davrlarda gilam to‘qish san’ati O‘rta Osiyoda ham rivoj topganligini tasdiqlaydi. XI-XII asrlarda O‘rta Osiyoda shu jumladan, O‘zbekiston hududida gilam to‘qish san’ati juda rivojlangan.

XIV asrning 2-yarmida O‘rta Osiyoda gilamchilik san’ati rivojlanib ketdi. Turli xorijiy mamlakatlardan kelgan ustalar gilam to‘qish ustaxonalarida ishlaganlar. Gilamlar o‘tmishda yer bag‘irlab yotiq holatda o‘rnatilgan pastak, sodda dastgohda to‘qilar edi. Keyinchalik to‘quv dastgohlari ancha mukamallashdi. Bu dastgohlarda to‘quvchi ayollar yonma-yon o‘tirib, birdaniga to‘qiydigan keng g‘altakli xillari yasaldi.

XIX asrning oxirigacha gilam to‘qishda o‘simliklardan tayyorlangan bo‘yoqlar ishlatilgan, keyin esa anilin bo‘yoqlaridan foydalanila boshlandi. Keyinchalik pat gilamlar maxsus dastgohli korxonalarda to‘qiladigan bo‘ldi.

Gilamlar naqsh bezaklari, to‘qilish uslubi, bo‘yalish texnikasi va sifat darajasiga qarab bir-biridan farqlanib turadi. Gilamlarning to‘qima, tikma va bosma xillari mavjud.

Gilamlar to‘qilgan joyi yoki to‘qilgan korxonaning nomi bilan yuritiladi.

Turkman gilamlari yovmut, tekin, beshir gilamlar deb yuritiladi. Turkman gilamlari geometrik naqshli bo‘ladi. Kavkaz gilamlarning mashhur shirvoni, ahti, darbandi turlari bo‘lib, pushti, qizil, ko‘k, sariq va boshqa ranglarda barg, gul, qush tasvirlari ishlanadi. Eron gilamlari o‘ziga xos bo‘lib, gul, o‘simlik, qush, hayvon tasvirlangan doirasimon shakllarda ishlanadi. Xitoy gilamlari dunyoga mashhur bo‘lib, patlarining naqshi har-xil meyorda qirqilib, relyef hosil qilingan, tasvir zamini esa qisqaroq patli qilib ishlanadi.

Fransuz gilamlarida syujetli naqshlar, manzaralar, gullar ishlangan bo‘lib, kishini o‘ziga jalb etadi. Xiva, Andijon, Urgut, Qarshi va boshqa joylarda to‘qima gilamlar tayyorlanadi. Ular o‘zining o‘simliksimon, geometrik naqshi, bejirimligi, jozibadorligi, tabiyligi va sifati bilan mashhurdir.

Gilam to‘qish texnologiyasi. Gilam to‘qishga kirishishdan oldin to‘quv dastgohi va asboblari ishlash holatiga sozlanishi kerak.

Gilam to‘qima quyidagi jarayonlar bo‘yicha tayyorlanadi:

- gilamning zarur o‘lchamdagi texnik chizmasini tayyorlab olish;
- to‘quv dastgohiga texnik chizmaga mos o‘lchamlar belgish;
- dastgohga bosqichlar ketma-ketligida asos ipini o‘rash;
- dastgohning remiz qismiga ustki va pastki iplarni o‘rash;
- o‘ralgan asos ipni polotno holatiga keltirish (bunda arqoq ipni 3-4 marta ostki va ustki iplar orasidan holatini o‘zgartirib o‘tkaziladi).
- polotno holatiga keltirilgan asos ipga dastlabki o‘rim qismini o‘rash;
- pichoq – kryuchokda texnik chizmaga qarab gilamning dastlabki qatorini to‘qish;
- to‘qilgan har bir qatordan keyin asos ipning chekkadagi 4 ta iplariga chekka qism o‘rash;
- to‘qilgan qatorlar ustidan arqoq ipni o‘tkazish;
- har bir qatordan keyin to‘qimani maxsus gilam qaychisida tekiclash.

Chizma asosidagi gilam to‘qish bosqichlarini tartib asosida ishlashga o‘rgatish (amaliy mashg‘ulot):

1. Remizga o‘rnatilgan ushlagich dastak yordamida asos ipning oldingi va orqa qatorlari o‘rnini almashtirish, ular orasini lineyka bilan ajratish;

2. Asos ip qatorlarini birlashtirish uchun ajratilgan iplar orasidan arqoq ip o‘tkaziladi. Arqoqni tushirish moslamasida tekislab tushiriladi. Bu jarayon 3-4 marta takrorlanadi;

3. Gilamning dastlabki o‘rim qismi rangli to‘qish iplari bilan 2 qator to‘qiladi;

4. Shu iplar davomi bilan 3-4 marta arqoq ip singari o‘tkazilib, asbob yordamida tekislab tushiriladi;

5. Shu iplar davomi bilan dastlabki o‘rim qatorlari takrorlab to‘qiladi;

6. Gilamning ikki tomoniga to‘qish iplari bilan chekka qism iplari o‘raladi. Chekka tomonlarining biriga g‘altakka o‘ralgan arqoq ip (paxta tolali 10-raqamli ip) o‘rnatiladi;

7. Pichoq-ilgakda chizma qatorining birinchi qatori to‘qiladi. Chizma qatorlarining aniq sanog‘i va ranglari hisobga olinadi. Tugun bog‘lamlari rasmda ko‘rsatilganidek amalga oshiriladi;

8. To‘qilgan birinchi qatordan keyin remiz iplari o‘rni almashtirilib, lineyka o‘rnatiladi va arqoq ipi tekislab tushiriladi;

9. Shu qatorning tugun bog‘lamlari qo‘l bilan tekislanib, maxsus tarashlash tarog‘ida tarashlanadi. Iplarning ortiqcha chiqitlaridan tozalanadi;

10. Shu qatorning to‘qima yuzasi maxsus gilam qaychida qirqib tekislanadi.

Эслатма: arqoq ip o‘tkazilgan tomondan boshlab asbob yordamida tekislab tushiriladi. Bu keyingi to‘qish jarayonlarida gilamning torayib ketmasligini ta’minlaydi**.**

Ikki va undan keyingi qatorlar o‘z navbati bilan yuqorida ko‘rsatilgan tartibda 6-dan boshlab 10-chi jarayonlar takrorlab amalga oshiriladi. Vaqti-vaqti bilan tushiruvchi vintni bo‘shatib dastgohning orqa tomoniga o‘tkazib turiladi.

To‘qish texnologiyalarini aniq sanoqlar bilan, to‘qilayotgan gilamlarning o‘lchovlarini tekshirib, sifatini kuzatib borish lozim.

Gilamning popuk turlari.

1. Pichoq-kryuchokda chizma qatorlarini to‘qib tugallashdan so‘ng yuqorida ko‘rsatilgan 3, 4, 5-jarayonlar bajariladi.

2. Tayyor gilam to‘qimani dastgohdan olish uchun gilamning ikki tomonidan popukning zarur o‘lchami asos ipga chizib belgilanadi va shu chiziq bo‘yicha qaychida qirqiladi.

3. Dastgohda qolgan asos ip va remiz iplari o‘z yo‘nalishiga qarab dastgohdan ajratib olinadi.

4. Popuklar bilan ishlov beriladi.

1-jadval

GILAM TO‘QISH TEXNOLOGIYASI

T/r	**Tugarak mavzulari**	**Ajratilgan soat**

1	Gilamning zarur o‘lchamdagi texnik chizmasini tayyorlab olish;	**2**
2	To‘quv dastgohiga texnik chizmaga mos o‘lchamlar belgish;	**2**
3	Dastgohga bosqichlar ketma-ketligida asos ipini o‘rash;	**2**
4	Dastgohning remiz qismiga ustki va pastki iplarni o‘rash;	**4**
6	O‘ralgan asos ipni polotno holatiga keltirish (bunda arqoq ipni 3-4 marta ostki va ustki iplar orasidan holatini o‘zgartirib o‘tkaziladi).	**4**
7	Polotno holatiga keltirilgan asos ipga dastlabki o‘rim qismini o‘rash;	**4**
8	Pichoq – kryuchokda texnik chizmaga qarab gilamning dastlabki qatorini to‘qish;	**4**
9	To‘qilgan har bir qatordan keyin asos ipning chekkadagi 4 ta iplariga chekka qism o‘rash;	**4**
10	To‘qilgan qatorlar ustidan arqoq ipni o‘tkazish;	**4**
11	Har bir qatordan keyin to‘qimani maxsus gilam qaychisida tekislash.	**4**
12	Gilamning zarur o‘lchamdagi texnik chizmasini tayyorlab olish;	**4**
13	To‘quv dastgohiga texnik chizmaga mos o‘lchamlar belgilash;	**4**
14	Dastgohga bosqichlar ketma-ketligida asos ipini o‘rash;	**4**
15	Dastgohning remiz qismiga ustki va pastki iplarni o‘rash;	**4**
	Jami:	**50**

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Qarshi davlat universiteti "Texnologik ta'lim" kafedrasi tarkibida tashkil etilgan "Mohir qo'llar" to'garagi qatnashchilari (asosan bakalavr va magistrlar) gilam to'qish sirlarini o'rganib ahamiyatli natijalarga erishmoqdalar. Bu borada yuqorida ko'satilgan texnologiya (1-jadval) asosida o'tiladigan mahorat darslari to'garak qatnashchilarining olgan bilimlarni mustahkamlash, ko'nikma va malakalarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Bulatov. “O‘zbek xalq amaliy bezagi san’ati”.-T.: “Mehnat” nashriyoti 1991 yil, 334-341 betlar.

2. “Sharqona milliy liboslar” ensiklopediyasi.

3. "Uy-ro‘zg‘or buyumlari" ensiklopediyasi.

4. S.Bulatov. "O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati".-T.: «Mehnat» nashriyoti 1991. - 382 b.

SONNING OXIRGI RAQAMIDAN FOYDALANIB 9, 11, 13, 17, 19, 20, 21, 23, 27, 29, 31 SONLARIGA BO‘LINISH BELGILARI

Parpiyeva Dilobar Abdumannayevna
Namangan viloyat Namangan shaxar
2-sonli kasb-hunar maktabi matematika fani o‘qituvchisi
Hayitov Muzaffar Jaloliddinovich
Namangan viloyati Yangi Namangan tumani
8-sonli DIMIning matematika fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6697267

Annotatsiya: Matematikada sonlarning bo‘linish belgilari juda ahamiyatli bo‘lib, bu belgilardan asosan sonlarning bo‘luvchilarini, bo‘linuvchilarini topish, sonni tub ko‘paytuvchilarga ajratishda foydalaniladi. Bu maqola berilgan sonning oxirgi raqamidan foydalanib, sonning bo‘linish belgilari uchun alohida-alohida qoidalar tuzilgan. Maqola o‘quvchida konginitiv kompetensiyani shakllantiradi va misollarni tez va oson yechishda yordam beradi. Maqola muallifning ijodiy fikrlari mahsulidir. Ko‘p adabiyotlarda deyarli berilmagan ma’lumotlar bo‘lib, bo‘linish belgilariga oid yangi qoidalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Bo‘linish belgilari, qoldiqsiz bo‘linma, birlar xonasi.

Bizga $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0}$ son berilgan bo‘lsin, u holda bu berilgan sonni $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0} = \overline{a_n a_{n-1} \dots a_1} * 10 + a_0$ ko‘rinishida yozish mumkin. Buday ko‘rinishdan sonlarning bo‘linish belgilarini tekshirishda foydalanamiz.

9 ga bo‘linish belgisi: Berilgan $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0}$ sonning birlar xonasidagi raqamini birlar xonasigacha bo‘lgan songa qo‘shamiz. Yig‘indi 9 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son ham 9 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Isbot: $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0}$ son berilgan bo‘lsin.

Faraz qilaylik $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1} + a_0 = 9 * k$ bo‘lsin, bundan

$\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1} = 9 * k - a_0$ ni hosil qilamiz.

$$\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0} = \overline{a_n a_{n-1} \dots a_1} * 10 + a_0 = (9 * k - a_0) * 10 + a_0 =$$
$$= 90 * k - 10 * a_0 + a_0 = 90 * k - 9 * a_0 = 9 * (10 * k - a_0)$$

Demak $9 * (10 * k - a_0)$ ko‘paytma 9 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Agar bizga berilgan son ko‘p xonali son bo‘lsa, yuqorida keltirilgan qoidani yana takrorlab va shu yo‘sinda berilgan sonni sodda ko‘rinishga kelgunicha davom ettirib, natijani tekshirishimiz mumkin.

11 ga bo‘linish belgisi: Berilgan $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0}$ sonning birlar xonasidagi raqamini birlar xonasigacha bo‘lgan sondan ayiramiz. Ayirma 11 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son ham 11 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Isbot: $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0}$ son berilgan bo‘lsin.

Faraz qilaylik $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1} - a_0 = 11 * k$ bo‘lsin, bundan

$\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1} = 11 * k + a_0$ ni hosil qilamiz.

$$\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0} = \overline{a_n a_{n-1} \dots a_1} * 10 + a_0 = (11 * k + a_0) * 10 + a_0 =$$
$$= 110 * k + 10 * a_0 + a_0 = 110 * k + 11 * a_0 = 11 * (10 * k + a_0)$$

Demak $11 * (10 * k + a_0)$ ko‘paytma 11 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Agar bizga berilgan son ko‘p xonali son bo‘lsa, yuqorida keltirilgan qoidani yana takrorlab va shu yo‘sinda berilgan sonni sodda ko‘rinishga kelgunicha davom ettirib, natijani tekshirishimiz mumkin.

13 ga bo‘linish belgisi: Berilgan $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0}$ sonning birlar xonasidagi raqamini 4 ga ko‘paytirib, birlar xonasigacha bo‘lgan songa qo‘shamiz. Yig‘indi 13 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son ham 13 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Isbot: Bizga $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0}$ son berilgan bo‘lsin.

Faraz qilaylik $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1} + 4 * a_0 = 13 * k$ bo‘lsin, bundan

$\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1} = 13 * k - 4 * a_0$ ni hosil qilamiz.

$$\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0} = \overline{a_n a_{n-1} \dots a_1} * 10 + a_0 = (13 * k - 4 * a_0) * 10 + a_0 =$$
$$= 130 * k - 40 * a_0 + a_0 = 130 * k - 39 * a_0 = 13 * (10 * k - 3 * a_0)$$

Demak $13 * (10 * k - 3 * a_0)$ ifoda 13 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Agar bizga berilgan son ko‘p xonali son bo‘lsa, yuqorida keltirilgan qoidani yana takrorlab va shu yo‘sinda berilgan sonni sodda ko‘rinishga kelgunicha davom ettirib, natijani tekshirishimiz mumkin.

17 ga bo‘linish belgisi: Berilgan $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0}$ sonning birlar xonasidagi raqamini 5 ga ko‘paytirib, birlar xonasigacha bo‘lgan sondan ayiramiz. Ayirma 17 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son ham 17 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Isbot: Bizga $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0}$ son berilgan bo‘lsin.

Faraz qilaylik $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1} - 5 * a_0 = 17 * k$ bo‘lsin, bundan

$\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1} = 17 * k + 5 * a_0$ ni hosil qilamiz.

$$\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0} = \overline{a_n a_{n-1} \dots a_1} * 10 + a_0 = (17 * k + 5 * a_0) * 10 + a_0 =$$
$$= 170 * k + 50 * a_0 + a_0 = 170 * k + 51 * a_0 = 17 * (10 * k + 3 * a_0)$$

Demak $17 * (10 * k + 3 * a_0)$ ifoda 17 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Agar bizga berilgan son ko‘p xonali son bo‘lsa, yuqorida keltirilgan qoidani yana takrorlab va shu yo‘sinda berilgan sonni sodda ko‘rinishga kelgunicha davom ettirib, natijani tekshirishimiz mumkin.

19 ga bo‘linish belgisi: Berilgan $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0}$ sonning birlar xonasidagi raqamini 2 ga ko‘paytirib, birlar xonasigacha bo‘lgan songa qo‘shamiz. Yig‘indi 19 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son ham 19 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Isbot: Bizga $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0}$ son berilgan bo‘lsin.

Faraz qilaylik $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1} + 2 * a_0 = 19 * k$ bo‘lsin, bundan

$\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1} = 19 * k - 2 * a_0$ ni hosil qilamiz.

$\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0} = \overline{a_n a_{n-1} \dots a_1} * 10 + a_0 = (19 * k - 2 * a_0) * 10 + a_0 =$
$= 190 * k - 20 * a_0 + a_0 = 190 * k - 19 * a_0 = 19 * (10 * k - a_0)$

Demak $19 * (10 * k - a_0)$ ifoda 19 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Agar bizga berilgan son ko‘p xonali son bo‘lsa, yuqorida keltirilgan qoidani yana takrorlab va shu yo‘sinda berilgan sonni sodda ko‘rinishga kelgunicha davom ettirib, natijani tekshirishimiz mumkin.

20 ga bo‘linish belgisi: Berilgan $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0}$ sonning o‘nlar xonasidagi son 20 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son ham 20 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Isbot: Bizga $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0}$ son berilgan bo‘lsin.

Faraz qilaylik $\overline{a_1 a_0} = 20 * k$ bo‘lsin, bundan

$\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0} = \overline{a_n a_{n-1} \dots a_2} * 100 + 20 * k = 20 * (\overline{a_n a_{n-1} \dots a_2} * 5 + k)$

Demak $20 * (\overline{a_n a_{n-1} \dots a_2} * 5 + k)$ ifoda 20 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

21 ga bo‘linish belgisi: Berilgan $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0}$ sonning birlar xonasidagi raqamini 2 ga ko‘paytirib, birlar xonasigacha bo‘lgan sondan ayiramiz. Ayirma 21 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son ham 21 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Isbot: Bizga $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0}$ son berilgan bo‘lsin.

Faraz qilaylik $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1} - 2 * a_0 = 21 * \mathrm{k}$ bo‘lsin, bundan

$\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1} = 21 * k + 2 * a_0$ ni hosil qilamiz.

$\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0} = \overline{a_n a_{n-1} \dots a_1} * 10 + a_0 = (21 * k + 2 * a_0) * 10 + a_0 =$
$= 210 * k + 20 * a_0 + a_0 = 210 * k + 21 * a_0 = 21 * (10 * k + a_0)$

Demak $21 * (10 * k + a_0)$ ifoda 7 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Agar bizga berilgan son ko‘p xonali son bo‘lsa, yuqorida keltirilgan qoidani yana takrorlab va shu yo‘sinda berilgan sonni sodda ko‘rinishga kelgunicha davom ettirib, natijani tekshirishimiz mumkin.

23 ga bo‘linish belgisi: Berilgan $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0}$ sonning birlar xonasidagi raqamini 7 ga ko‘paytirib, birlar xonasigacha bo‘lgan songa qo‘shamiz. Yig‘indi 23 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son ham 23 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Isbot: Bizga $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0}$ son berilgan bo‘lsin.

Faraz qilaylik $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1} + 7 * a_0 = 23 * k$ bo‘lsin, bundan

$\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1} = 23 * k - 7 * a_0$ ni hosil qilamiz.

$\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0} = \overline{a_n \mathrm{a}_{n-1} \dots a_1} * 10 + a_0 = (23 * k - 7 * a_0) * 10 + a_0 =$
$= 230 * k - 70 * a_0 + a_0 = 230 * k - 69 * a_0 = 23 * (10 * k - 3 * a_0)$

Demak $23 * (10 * k - 3 * a_0)$ ifoda 23 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Agar bizga berilgan son ko‘p xonali son bo‘lsa, yuqorida keltirilgan qoidani yana takrorlab va shu yo‘sinda berilgan sonni sodda ko‘rinishga kelgunicha davom ettirib, natijani tekshirishimiz mumkin.

27 ga bo‘linish belgisi: Berilgan $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0}$ sonning birlar xonasidagi raqamini 8 ga ko‘paytirib, birlar xonasigacha bo‘lgan sondan ayiramiz. Ayirma 27 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son ham 27 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Isbot: Bizga $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0}$ son berilgan bo‘lsin.

Faraz qilaylik $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1} - 8 * a_0 = 27 * k$ bo‘lsin, bundan

$\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1} = 27 * k + 8 * a_0$ ni hosil qilamiz.

$$\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0} = \overline{a_n a_{n-1} \dots a_1} * 10 + a_0 = (27 * k + 8 * a_0) * 10 + a_0 =$$
$$= 270 * k + 80 * a_0 + a_0 = 270 * k + 81 * a_0 = 27 * (10 * k + 3 * a_0)$$

Demak $27 * (10 * k + 3 * a_0)$ ifoda 27 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Agar bizga berilgan son ko‘p xonali son bo‘lsa, yuqorida keltirilgan qoidani yana takrorlab va shu yo‘sinda berilgan sonni sodda ko‘rinishga kelgunicha davom ettirib, natijani tekshirishimiz mumkin.

29 ga bo‘linish belgisi: Berilgan $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0}$ sonning birlar xonasidagi raqamini 3 ga ko‘paytirib, birlar xonasigacha bo‘lgan songa qo‘shamiz. Yig‘indi 29 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son ham 29 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Isbot: Bizga $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0}$ son berilgan bo‘lsin.

Faraz qilaylik $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1} + 3 * a_0 = 29 * k$ bo‘lsin, bundan

$\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1} = 29 * k - 3 * a_0$ ni hosil qilamiz

$$\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0} = \overline{a_n a_{n-1} \dots a_1} * 10 + a_0 = (29 * k - 3 * a_0) * 10 + a_0 =$$
$$= 290 * k - 30 * a_0 + a_0 = 290 * k - 29 * a_0 = 29 * (10 * k - a_0)$$

Demak $29 * (10 * k - a_0)$ ifoda 29 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Agar bizga berilgan son ko‘p xonali son bo‘lsa, yuqorida keltirilgan qoidani yana takrorlab va shu yo‘sinda berilgan sonni sodda ko‘rinishga kelgunicha davom ettirib, natijani tekshirishimiz mumkin.

31 ga bo‘linish belgisi: Berilgan $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0}$ sonning birlar xonasidagi raqamini 3 ga ko‘paytirib, birlar xonasigacha bo‘lgan sondan ayiramiz. Ayirma 31 ga qoldiqsiz bo‘linsa, berilgan son ham 31 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Isbot: Bizga $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0}$ son berilgan bo‘lsin.

Faraz qilaylik $\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1} - 3 * a_0 = 31 * k$ bo‘lsin, bundan

$\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1} = 31 * k + 3 * a_0$ ni hosil qilamiz.

$$\overline{a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0} = \overline{a_n \mathrm{a_{n-1}} \dots \mathrm{a_1}} * 10 + \mathrm{a_0} = (31 * \mathrm{k} + 3 * \mathrm{a_0}) * 10 + \mathrm{a_0} =$$
$$= 310 * \mathrm{k} + 30 * \mathrm{a_0} + \mathrm{a_0} = 310 * \mathrm{k} + 31 * \mathrm{a_0} = 31 * (10 * \mathrm{k} + \mathrm{a_0})$$

Demak $31 * (10 * \mathrm{k} + \mathrm{a_0})$ ifoda 31 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

Agar bizga berilgan son ko‘p xonali son bo‘lsa, yuqorida keltirilgan qoidani yana takrorlab va shu yo‘sinda berilgan sonni sodda ko‘rinishga kelgunicha davom ettirib, natijani tekshirishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘.N. Nasritdinov, M.A. Mirzaahmedov, S. Abdullayev, A. Haqberdiyev Aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinf matematika darsligi, Toshkent ”O‘zbekiston”, 2016.

BOLALAR VA O‘SMIRLAR SPORT MAKTABLARIDA KURASH MASHG‘ULOTINI PEDAGOGIK TAKOMILLASHTIRISH

Atajonova Gulyor Komiljon qizi
UrDu Jismoniy madaniyat nazryasi va metodikasi
kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6697288

Annotatsiya: Ushbu maqola bolalar-o‘smirlar sport maktablaridagi kurash mashg‘ulotlarini tashkil etishning shakl, usul va vositalari ishlab chiqish va amaliyotda asoslashga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: BO‘SM, mashg‘ulot uslublari, usul, vosita, texnika, xujum, musobaqa.

Annotatsiya: Dannaya statya prednaznachena dlya detey i podrostkov, obuchayuщixsya v sportivnыx shkolax. posvyaщena razrabotke i prakticheskomu obosnovaniyu form, metodov i sredstv organizatsii trenirovki kurashistov.

Klyuchevыe slova: DYUSSH, metodы obucheniya, metod, instrument, priem, ataka, sorevnovanie.

Abstract: This article is intended for children and adolescents studying in sports schools is devoted to the development and practical justification of the forms, methods and means of organizing wrestling training.

Key words: SSCYT, teaching methods, method, tool, technique, attack, competition.

Dunyoda aholi salomatligini mustahkamlashda sport turlarining ommabopligini oshirish,bolalar va o‘smirlarni sportga qiziqtirishning pedagogik shart - sharoitlari va didaktik parametrlarini aniqlashtirish, sport muassasalarida yosh sportchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishning pedagogik, psixologik yondashuvlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, pandemiya sharoitida o‘quvchilarda faol harakat rejimiga rioya etish ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish,shug‘ullanuvchining yosh,fiziologik va psixologik taraqqiyoti mezonlariga asoslangan individual jismoniy rivojlantirish dasturlarini xalqaro va milliy musobaqalar talablari asosida ishlab chiqish dolzarblik kasb etadi.

Respublikamizda so‘nggi yillarda bolalar sportini rivojlantirish, uzluksiz ta’limning har bir bo‘g‘inida ta’lim oluvchilarning jismoniy salomatligini mustahkamlash va qo‘llab-quvvatlashning an’anaviy, innovatsion shakllarini joriy etishga katta e’tibor qaratilmoqda**.** Bundan tashqari bolalar va o‘smirlar sport maktablaridagi kurash mashg‘ulotlarining tashkiliy-pedagogik asoslarini

takomillashtirish, o‘quvchilarning kurash mashg‘ulotlariga bo‘lgan qiziqishlarini yanada kuchaytirishning innovatsion yondashuvlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda J.M. Nurshin, R.S. Salamov, F.A.Kerimov, T.C. Usmonxo‘jaev, A.SH. Abdullaev, SH.X. Xankeldievlarning tadqiqotlarida jismoniy tarbiya darslarining ta’lim mazmunini boyitish shakl va metodlari yoritilgan F.A. Kerimov, N.M. YUsupov, SH.A, Abdullaev, R.D. Xalmuxamedov, V.N. SHin, G.B. Abdurasulova, S.C.Tajibaev, J.M. Nurshin, SH.A. Mirzaqulov, A.R.Taymuratov, N.A.Tastanov,Z.S.Artikovlarning ilmiy ishlarida sportning yakka kurash turlarining tarixi, tashkiliy asoslari va metodikasi masalalari o‘z aksini topgan. A.Atoev, J.Nurshin,R.Salomov, F.Kerimov, O.Toymurodov, J.Toshpo‘latov, H.Bobobekov, M.Sodiqov, N.Azizov, X.Axmedovlar kurash sportining rivojlanish tendensiyalari, kurash an’analari, usullariga bog‘liqligining ilmiy metodik asoslarini ishlab chiqqanlar. Sportning yakka kurash turlari tarixi, tashkiliy asoslari va metodikasi, mashg‘ulotlr jarayonida harakatli o‘yinlardan foydalanish, jismoniy sifatlarini rivojlantirish masalalarini yoritish borasida ilmiy ishlarini olib borishgan.

BO‘SMlarda kurash mashg‘ulotlarining tashkil etishning tashkiliy-pedagogik asoslari takomillashtirish lozimligini ko‘rsatdi. O‘quvchilarning kurash bo‘yicha natijalarga erishganlik darajasini quyidagi mezonlar yordamida aniqlashga harakat qildik: o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarliklari zaminida ularning taktik, strategik tayyorgarligi, o‘ziga xosliklari, etakchi imkoniyatlari, onglilik darajalari, baholovchi munosabatlari, ob’ektiv tushunish ko‘lamlari, barqaror maqsadlari, qiziqishlari hamda hissiy, intellektual quvvatlarining ifodalanganligi; kurash qoidalarini tushuna olishlari; ushlab olish qoidalarini bilish; raqib bilan o‘zaro ta’sirni amalga oshirish; hujum qilish; o‘zini himoya qilish va qarshi usulni amalga oshirish ko‘nikmasiga egaliklari;musobaqa qoidalariga rioya qilishlari; belbog‘li kurash texnikasini bilish; harakatli faoliyat texnikasi ilmiy taxlil qila olish; jismoniy tayyorgarlik darajasi; umumiy jismoniy holati; maxsus jismoniy holati;sportdagi muvafaqiyatlari.

BO‘SMlardagi kurash mashg‘ulotlarining pedagogik shart-sharoitlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan mazkur tadqiqotning tajriba-sinov ishi uchun Xorazm viloyati SHovot tumanidagi BO‘SM,Urganch shahari 2-sonli BO‘SM, Bog‘ot tumanidagi BO‘SMlarda amalga oshirilib, unda jami 13 nafar murabbiylar va 160 nafar o‘quvchilar ishtirok etdilar. Tajribalar davrida tashkiliy-pedagogik faoliyatini amalga oshirish uchun o‘quvchilarda anketa, suxbatlar, mashg‘ulotlar o‘tkazish, savol-javob kabi metodlardan foydalangan holda, BO‘SMlarida o‘quvchilarning kurash bo‘yicha axborotli-baholovchi, amaliy va bashoratlovchi darajalari bo‘yicha qiyosiy tahlil qilamiz. YUqoridagi fikr mulohazalarni tizimli tahlil qilish natijalariga asoslangan holda bolalar va o‘smirlar sport maktablarida o‘quvchilarning belbog‘li

kurash bo‘yicha axborotli-baholovchi, amaliy va bashoratlovchi darajalari yuzasidan o‘zlashtirishlarini tahlil etdik(1-jadval).

Bolalar-o‘smirlar sport maktablarida shug‘ullauvchilarining kurashi bo‘yicha axborotli-baholovchi, amaliy va bashoratlovchi darajalarini aniqlash yuzasidan o‘zlashtirish natijalari

1-jadval

Bosqichlar	guruhlar	**n**	O‘zlashtirish darajalari		
			yaxshi	O‘rta	**kichik**
axborotli-baholovchi	tajriba	80	39	25	16
	nazorat	80	28	27	24
Amaliy	tajriba	80	55	43	12
	nazorat	80	25	31	24
Bashoratlovchi	tajriba	80	60	13	7
	nazorat	80	27	26	27

Yuqoridagi natijalarga asoslangan holda o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirishning umumlashgan, amaliy nazariy konseptual, amaliy-modellashtiruvchi va ijodiy-tahliliy darajasi matematik-statistik tahlil qilinib, olingan natijalardan o‘qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko‘rish mumkin. Bundan ma’lumki, tajriba sinfidagi o‘zlashtirish nazorat sinfidagi o‘zlashtirishdan yuqori ekan. SHuni ta’kidlashimiz joizki, bolalar-o‘smirlar sport maktablarida o‘quvchilarning kurashi bo‘yicha axborotli-baholovchi, amaliy va bashoratlovchi darajalari yuzasidan o‘zlashtirishlarining samaradorlik darajasini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari samarador ekanligi statistik tahlildan ma’lum bo‘ldi.

O‘rganilgan ilmiy-pedagogik manbalar shundan dalolat beradiki, bolalar-o‘smirlar sport maktablaridagi kurash mashg‘ulotlarining tashkiliy-pedagogik asoslarini takomillashtirish bugungi kunda ta’lim jarayonining ustuvor maqsadlaridan biriga aylanmoqda. Bu jarayonda o‘quv-mashg‘ulotlarning texnika va taktikasini o‘rganish va takomillashtirish muammosiga etarlicha e’tibor qaratilmaganligi kuzatildi.Takidlash joizki Bolalar-o‘smirlar sport maktablaridagi kurash mashg‘ulotlarining tashkiliy-pedagogik asoslarini takomillashtirish o‘zining quyidagi tarkibiy tuzilishiga ega: ushlab olish qoidalarini bilish, raqib bilan o‘zaro ta’sirni amalga oshirish, hujum qilish, o‘zini himoya qilish va qarshi usulni amalga oshirish ko‘nikmasiga egaliklari, musobaqa qoidalariga rioya qilishlari, kurash texnikasini bilish,harakatli faoliyat texnikasini ilmiy taxlil qila olish, jismoniy tayyorgarlik darajasi, umumiy shug‘ullanganlik darajasi, maxsus shug‘ullanganlik darajasi, sportdagi muvafaqiyatlari kabilar. Ushbu qismlar orasidagi o‘zaro aloqadorlik, bolalar-o‘smirlar sport maktablari tarbiyalanuvchilarining sportdagi barqaror

yutuqlarga erishishlarini ta’minlaydi. Buning natijasida sportchilar amaliy tajriba va nazariy bilimlarga tayangan holda intellektual hamda jismoniy faoliyat ko‘nikmalarini egallaydilar.

Pedagogik ta’lim jarayonida kurash mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning tayyorgarlik darajalarini aniqlovchi mezonlar sifatida mashg‘ulotlar jarayonida taqdim etilgan kurash qoidalari, tushunchalar va axborotlarni faol o‘zlashtirganliklari, jismoniy va taktik tayyorgarligi,o‘zining kurash uslubiga egaligi; kurash usullarini o‘rganishga nisbatan barqaror qiziqishning vujudga kelganligi kabilarni ko‘rsatish mumkin.

O‘tkazilgan tajribalar natijasida bolalar-o‘smirlar sport maktablaridagi kurash mashg‘ulotlarining har bir muayyan bosqichi o‘zining aniq belgilangan maqsadlariga ega bo‘lib, ular ta’lim oluvchilarning taktik tayyorgarliklarining muntazam bir bosqichdan ikkinchisiga o‘tib, uzluksiz rivojlanishini ta’minlaydi va takomillashtiriladi. SHu bilan birga, yosh avlodni, bolalar-o‘smirlar sport maktablaridagi kurash mashg‘ulotlarining tashkiliy-pedagogik asoslarini takomillashtirishda bir qator umumiy xarakterdagi didaktik sharoitlarning amal qilishi kuzatiladi. Xususan, sportchilarda bolalar-o‘smirlar sport maktablaridagi jismoniy faoliyati, ularda maxsus tayyorgarlikni shakllantirishning muhim vositasi sifatida kurash qoidalari, raqib bilan o‘zaro ta’sirni amalga oshirish, hujum qilish, o‘zini himoya qilish va qarshi usulni amalga oshirish ko‘nikmasiga egaliklari, o‘z harakatlarini ongli va chuqur o‘ylagan holda amalga oshirish imkonini beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nurshin J.M., Salamov R.S., Kerimov F.A. O‘zbekcha milliy sport kurashi // Darslik. T.: 1993. – B.14-17.;

2. Usmonxodjaev T.S. Milliy harakatli o‘yinlar. Toshkent. «O‘qituvchi» 2000. – B. 53-54. Abdullaev. A. SH.,Xankeldiev SH.X Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati. – T.: O‘zDJTCU. – 2019. –232 b.

3.Kerimov F.A., YUsupov N.M. Podvijnыe igrы dlya kurasha. - T.: Abu Ali ibn Sino, 2003. – 72 s.

4. Abdullaev SH.A, YOsh kurashchilarni tayyorlashning ilmiy-uslubiy asoslari / O‘quv-uslubiy qo‘llanma. T.,2012. – B. 32-35

5.Xalmuxamedov R.D., SHin V.N., Abdurasulova G.B., Tajibaev S.C. Yosh yakkakurashchilarni ko‘p yillik tayyorgarlik jarayoning turli bosqichlarida saralashning me’yorlari/ O‘quv-uslubiy qo‘llanma - O‘zDJTI., 2013. – 166 b.; 6. Nurshin J.M., Mirzakulov Sh.A. Yosh belbog‘li kurashchilarning jismoniytayyorgarligi// Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va uslubiyatining zamonaviy muammolari/ Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. II qism. – Toshkent. 2015. – B. 83-84

7.Taymuratov A.R. Kurashchilarga xos kuch turlari va ularni rivojlantiruvchi mashqlar tasnifi // jurnal.“Fan-sportga”, - T., 2016. - №2. – B. 29-32.

8.Tastanov N.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. / Darslik. –T.: Sano-Standart. 2017. – 480 b.

9. Artikov Z.S. Sport-pedagogik mahoratini oshirish (Belbog‘li kurash). / O‘quv qo‘llanma. - T.: O‘zkitobsavdo, 2018. – 148 b.

DO‘STLIK VA O‘RTOQLIK - INSONPARVARLIKNING YUKSAK AXLOQIY ME’ZONI SIFATIDA

Avazbekova Shohsanam Nurmamat qizi
NamDU 1-bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.6697308

Annotatsiya. Maqolada do‘stlik va o‘rtoqlik tushunchasining mazmuni, mohiyati, uning inson hayotidagi o‘rni va ahamiyati fikrlar tahlil etilgan.

Tayanch tushunchalar: do‘stlik; o‘rtoqlik; birodarlik; ittifoqlik.

Jamiyatda ma`naviy-axloqiy muhitni sog`lomlashtirish ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, bunda ta`lim-tarbiya tizimida barcha qismlarning alohida o‘rni va roli bor. Do‘st qalbini munavvar etish, uni buyuk maqsadlarga yo‘llash uchun ichki raqobat bo‘luvchi g`oya bo‘lishi, u odamlarda komil insonlik sifatlarini tarbiyalash vositasiga aylanmog`i lozim. Ertangi jamiyat va kelajak avlod ijtimoiy hamda ma`naviy qiyofasi bugungi tuzgan rejalarimiz, amalga oshiradigan ishlarimizga monand tarzda namoyon bo‘ladi. Ta`lim-tarbiya sohasida nazarda tutilayotgan yangi tizimning g`oyaviy-nazariy asoslarini aniqlash, iymonli komil inson shaxsini shakllantirish hamda O‘zbekistonda iymonli komil insonlar ittifoqini vujudga keltirish, shu jihatdan ulkan tarixiy ahamiyat kasb etadi.

Yuksak odob a axloqqa ega bo‘lgan olijanob va mehnatsevar kishilar o‘zlarini hamisha xalq bilan birga his qiladilar; qo‘lga kiritgan yutuqlarini “faqat o‘zimniki” demaydilar, o‘rtoqlarim va do‘stlarimning yutuqlari, jamoaning yutug‘i deydilar. Ular do‘stlariga, hamkasblariga mehribonlik ko‘rsatadilar, qo‘pollik va maqtanchoqlik qilmaydilar. Tabiiiyki, bunday kishilarning o‘rtoqlari va do‘stlari ko‘p bo‘ladi.

Xushomadgo‘ylik, laganbardorlik, xudbinlik va mansabparastlik axloqsizlikning yaramas sarqitlaridan biridir. Ular o‘zlarining shaxsiy manfaati yo‘lida kishilarga yaqinlashib, do‘st tutinadilar. Bu albatta, soxta – o‘tkinchi do‘stlik. Hatto shunday hollar ham bo‘ladiki, ba’zi munofiqlar o‘z o‘rtoqlari haqida og‘iz ko‘pirtirib, maqtovga tushadilar, uni ko‘klarga ko‘taradilar, lekin kezi kelganda orqasidan g‘iybat, bo‘hton qilishdan toymaydilar, hatto uning ustidan qalbaki, lg‘on-yashiq ig‘volarni tarqatadilar.

Xalqimizda:

“Do‘stlik barcha boyliklardan afzal”;

“Arpa bug‘doy bir kuningga yaraydi, sodiq do‘sting o‘lguningcha yaraydi”;

“Do‘st achitib gapirar, dushman – kuldirib”;

“Do‘st-do‘stning oynasi”;

”Do‘st-do‘stning tayanchi”;

“Do‘st-do‘stni kulfatda sinar”;
“Do‘st yomon kunda bilinadi”;
“Do‘st so‘zini tashlama, tashlab boshing qashlama”;
“Do‘st uzoqda bo‘lsa ham ko‘ngli yaqin”;
“Do‘st yuzingga boqar, dushman izingga”;
“Do‘stning eskisi yaxshi, kiyimning yangisi”;
“Do‘stdan molini ayamagan, eldan jonini ayamas”;
“Do‘sting bilan sirdosh bo‘l, qilgan ishiga qo‘ldosh bo‘l”;
“Do‘stingga qo‘shiq ayt, mehringni qo‘shib ayt”;

“Do‘stsiz boshim, tuzsiz oshim” kabi ko‘pgina maqollar borki, bularda do‘stlikni qadrlash masalasi olg‘a surilgan.

Har kim qo‘lidan kelganicha xalqqa xizmat qilsa, odamlarga foyda va yaxshilikni ravo ko‘rsa uning do‘stlari ham, o‘rtoqlari ham, birodarlari ham ko‘payaveradi. Aksincha, o‘zini ko‘pchilikdan olib qochsa, birovga yaxshilikni ravo ko‘rmasa, boshqaning muvaffaqiyatidan ruhlanmasa, o‘zi ar’imagan yutuqlaridan mag‘rurlanib, manmanlikka berilib ketsa, bunday kishilarning na do‘sti, na o‘rtog‘i, na birodari bo‘ladi.

Do‘sti yo‘q odamni o‘ldiringlar, deydi arablar.

Bu gap benihoya alam va i’tirob bilan aytilgan se’ilib turibdi. Buning ma’nosi shuki, do‘stsiz odam – kishilik jamiyatiga begona. Agar taqdir odamga sahovat ko‘rsatib, dunyodagi eng buyuk baxtni tortiq qilmoqchi bo‘lsa, degan edi Ernest Telman, uni sadoqatli do‘stlar bilan siylaydi. Demak, do‘st orttirgan odam, bilingki, odobli, shirinsuxan, beg‘araz va sahovatlidir.

Do‘stlik qanday paydo bo‘ladi?

Uning o‘lchovi bormi?

Bor bo‘lsa, ularni nimalarda ko‘rish mumkin?

Do‘stlikda qadrlanadigan tomonlar nimalardan iborat?

Do‘stlik hissi insonnng boshqa fa’ilatlari singari birdaniga, bir vaqtda paydo bo‘lmaydi. Kishi o‘sib-ulg‘ayib borgan sari turmush tashvishlari va muammolarini bartaraf etishda hamkor bo‘ladigan. Shodlik va quvonchlarini baham ko‘radigan odamga ehtij se’adi. Bunday ehtijni se’maydigan inson bo‘lmaydi, dunda.

Do‘stlik natijasida kishilar o‘rtasida eng yaqin munosabatlar paydo bo‘ladi. Tomonlar bir-birlariga do‘stmi’ deb aytmasa ham shart-sharoit, qarashlar birligining o‘zi do‘stlikni tug‘diradi. O‘zaro mehr, ma’naviy yaqinlik, umumiy manfaatlar birligi oqibatida vujudga kelgan kishilarning chinakam ittifoqi – bu do‘stlikdir.

Chinakam do‘stlik ayrim o‘zinda qarindoshlik aloqalaridan ham mustahkamroq bo‘ladi. Do‘stlikning kuch-qudrati eng og‘ir paytlarda mashaqqatli onlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Do‘stlik bir-birining fa’ilati, aqli va iqtidoriga tan berishda ko‘rinadi.

Chinakam va yaxshi do‘stga ega bo‘lish – inson uchun katta quvonch, o‘rtoqlik va do‘stlik har bir inson hatida alohida o‘rinni egallaydi. Shuning uchun ham, ikki do‘st baham ko‘rsa, bitta qayg‘u yarimta bo‘ladi, degan naql bor.

Do‘stlik beg‘ara’ va beminnat bo‘lishi kerak. O‘z do‘sti uchun inson hamma narsaga qodir bo‘lmog‘i, uning uchun har qanday fidoyilikka tayr turmog‘i lo’im. Xalqimiz do‘sting uchun zahar yut, deydi. Do‘st senga mehr qo‘ygan va senga yaxshilik odam, bu bilan seni barchani sevishga va hammaga yaxshilik qilishga o‘rgatadi; do‘st seni himoya qilishga tayr, bu bilan u dundagi barcha monliklardan nafratlanishni o‘rgatadi; do‘st sendan o‘zida yo‘q narsani qidiradi; sen esa undan o‘zingda yo‘q narsani izlaysan, do‘st – sening yanada yaxshi bo‘lishingni istaydi; sen qanchalik aqlli, kuchli, sahiy qalb, mehri otash bo‘lsang, bu xislatlar faqat uning uchun emas,balki barcha odamlar uchun qilinatganligini mamnuniyat bilan ma’qullaydi. G‘alabangdan quvonadi, mag‘lubiyatingdan hafa bo‘ladi. U seni hammadan yaxshi tushunadi, fahmlaydi, senga ishonadi. Bunday do‘stlikdan doimo nur g‘ilib turadi, undan yaxshilik urug‘lari unib chiqadi. Mirzo Abdulqodir Bedil aytganidek:

Do‘st birla hat – rohat, tanho yashamoq otash,
Gulxanga tushar shoxa ayrilsa daraxtidan.

Do‘stlik inson hatini boy, quvonchli va baxtir qiladi, unga ma’no va ma’mun beradi, o‘zlariga baxt-iqbol keltiradi. Do‘stlik kishilarni bog‘laydigan kuch sifatida ijtimoiy axloqiy qimmatga ega. Shuning uchun u o‘z mohiyatiga ko‘ra jamoatchilikni taqo’o etadi.

Ana shunday go‘zal tuyg‘uni har dim qadriga etish kerak. Ba’zan shunday so‘zlar quloqqa chalinib qoladi: tanish-bilishlar ko‘p-u, do‘stlar kam, ho’irgi kunda sadoqatli do‘st topish qiyin, birovga yaxshilik qilib bo‘lmaydi va hoka’olar.

Bundaylarni vahima va shubha bandasi deymiz. Bunday kishilarning o‘zlari biron-bir marta birovning dardiga sherik, quvonchiga oshna bo‘lganmikanlar, biron-bir kishiga beg‘araz yaxshilik qilganmikanlar? Bunday kishilar turmushiga, boshqalar bilan qilatgan munosabatlariga sinchiklab nazar tashlar ekansiz, faqat ular hatda “o‘zimiz bo‘lsa-gu, boshqalar bo‘lmasa”, “olsag-u, bermasak” degan qoidaga sunishlarini ko‘rasi’. Bunday “soyasi yo‘q”, “o‘zim bo‘lay” deydigan kishilardan odamlar o‘zlarini chetga oladilar.

Afsuski, do‘stlikni o‘rgatuvchi fan yo‘q. Ammo odamgarchilik qoidalari bor. Bu qoidalar bir-biriga yaqin kishilarning yuksak madaniyatini, ayni vaqtda o‘zaro mas’uliyatni ham talab etadi. O‘zaro mas’uliyat esa fidoyilikni, talabchanlikni, prinцipiallikni taqo’o etadi. Nosir Xisrav aytganidek:

Chinakam do‘st aytgan har o‘git, masal –
Sirti – zahar erur, tomiri – asal.

Inson hati xatolardan xoli emas. Hamma ham o‘zining xatti-harakatlariga tanqidiy baho bera olmaydi. Ammo kamchiliklarni chetdan ko‘rgan kishilar o‘sha odamning yu’iga aytishga iymanadilar, tanimagan kiishlarning gaplari insonga og‘ir botadi. Do‘sting xatolaringni yu’ingga aytsa, buni tan olsangu, yo‘qotishga harakat qilsang. O‘zingni qanchalik engil se’asan, kishi. Do‘stni xatolardan saqlab qolish – bu insonning muqaddas burchidir.

Qo‘shiqda aytilganidek, do‘st bo‘lish oson, uni saqlash qiyin. Do‘stlikni saqlash, e’’o’lashning o‘ziga xos qoidalari. fidoyiliklari bor. Buni do‘stlikni u’oq yillar saqlab qolgan odamlar yaxshi biladi. Haqiqiy do‘stdan ajralish vatan bilan vidolashishga tengdir, deydi dono xalqimiz. zero, do‘stga vafo qilmagan odam vatanni ham qadrlay olmaydi.

Inson do‘stlikka va do‘st topishga alohida ahamiyat berishi lozim. Hammani ham do‘st deb bilish laqmalikdir. Kishining do‘stligi bir marta sinaladi. Ammo unutmaslik kerakki, do‘sti ko‘p kishining hati engil ko‘chadi. Shuning uchun ham xalqimiz, do‘sting mingta bo‘lsa kam, dushmaning bitta bo‘lsa ko‘p deb nasihat qiladi.

Do‘stlik va o‘rtoqlik inson axloqining muhim kategoriyalaridan hisoblanadi. shunga ko‘ra “do‘st”, “o‘rtoq”, “birodar” tushunchalari axloq kodeksidan alohida o‘rin olgan.

Ma’lumki, davlatimiz va hukumatimiz fuqarolarni demokratik jamiyat qurish ishiga sadoqat, ona-Vatanga jo‘shqin muhabbat, mehnatga va jamoat mulkiga yangicha munosabatda bo‘lish, do‘stlik va o‘rtoqlik ruhida tarbiyalash borasida ko‘plab ishlarni amalga oshirmoqda. Bi’ hamma uchun qimmatli bo‘lgan “Do‘st”, “O‘rtoq”, “Birodar” so‘zlarini tez-tez tilga olib turamiz. Chunki bu so‘zlar barcha o‘zbek millati vakillari uchun qadrli va qimmatli, shu bilan birga tushunarli bo‘lgan chuqur ma’no – insonparvarlik mujassamlashgandir.

Insonning ajoyib fazilatlaridan biri – do‘stlikdir. Kishi kishiga do‘st, o‘rtoq va birodar – bu yangi fuqarlik jamiyati quruvchisining axloqiy printsipi kishilar o‘rtasida insonparvarlik munosabatlari va o‘zaro hurmat demakdir.

Do‘stlik bor joyda mehru muhabbat, vafo, sadoqat, samimiylik, adolat, haqiqat qaror topadi,bu esa insonning qalbiga, ruhiga, tafakkuriga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, yaxshilikka undaydi.

Kishilar qalbidagi do‘stlik tuyg‘ularini o‘lchaydigan muayyan bir mezon va qolip bo‘lmasa ham, mehr-muhabbat, g‘amdard-hamdamlik, samimiylik, ishonch, o‘zaro hurmat do‘stlik nishonasidir. Do‘stlik sifatlari avvalo turmush sharoitida, mehnat jaranida kishilarga bo‘lgan hurmat va munosabat bilan o‘lchanadi. Hurmat bilan mehribonlik egi’akdir.

Inson hamma vaqt yaxshi kishilar bilan do‘st, o‘rtoq, birodar bo‘lishni istaydi va shunga erishishga harakat qiladi. Bu – bir jihatdan ancha og‘ir ham. Og‘irligi shundaki, bu do‘stlikni hamisha e’zozlash, hurmatlash, qadrlash kerak bo‘ladi.

- Do‘stning do‘stligini qanday bilish mumkin? – deb so‘ragan odamlarga Suqrot Hakim shunday debdi:

- Agar birovni o‘zingizga do‘st qilib olmoqchi bo‘lsangiz, avval uning tarjimai holini shunday o‘rganing! Birinchidan, u kishi shlik vaqtida o‘z ota-onasiga qanday muomalada bo‘lgan? Ikkinchidan, qarindosh va o‘rtoqlari uning muomalasidan ro’i bo‘lganmi? Uchinchidan, u odam yoshlik davrini kechirgandan keyin go‘zal muomalasi bilan hammaning muhabbatini o‘ziga jalb etganmi yoki bad muomala egasi bo‘lib, hammani o‘zidan bezdirganmi? To‘rtinchidan, birov unga yaxshilik qilgan bo‘lsa, u shu yaxshilik qilan odamdan minnatdor bo‘lganmi? Unga ham yaxshilik qilganmi? Beshinchidan, kayf-safo, aysh-ishratga berilganmi? Faqat o‘z manfaatinigina ko‘zlaydiganmi, yo‘qmi? Ma`naviy kamolot insonning qalbini, ruhiy olamidan kelib chiquvchi hodisadir. O‘zbek xalqi o‘zining ko‘hna tarixida ne-ne bosqinchiligu, qirg`inbarot urushlarni ko‘rgan. Lekin uning ma`naviyatidagi insonparvarlk fazilatlari, ezgulik, mehr-oqibat, do‘stlik, odamgarchilik, olijanoblik, shirin so‘zlik doimo saqlanib, sayqallanib keldi.

Ulug` sohibqiron Amir Temur o‘z tuzuklarida «Adolat va insof bilan jangchini, Alloh yaratgan bandalarini o‘zimdan rozi qildim. Gunohlariga ham, begunohiga ham rahm qilib, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqrdim. Xayr-insof ishlari bilan do‘stlar ko‘nglidan joy oldim», - deb yozgan.

Abu Rahyon Beruniyning fikricha, muruvvatli, mard kishi o‘zining urug`-aymog`iga ko‘mak berish bilan chegaralanmaydi, balki muloyimligi, irodaliligi, kamtarinligi, insonni qadrlashi tufayli martabasi oliy darajaga yetadi. Demak, jamiyat oliyjanob odamlar hisobiga o‘sadi. Ma`naviy hayot musibatli kishilarga hamdard bo‘lish, muhtojlarga, keksalarga, ayollarga yordam berish, hojatbarorlik, fazilatlar samimiylik, kamtarinlik kabi fazilatlar orqali rivojlanadi. Faqat insonparvarlik orqali inson bir-birini anglaydi va insonlar ichida o‘z o‘rnini egallaydi. Hayotning sirli tomoni shundaki, bunday kishilarning ishi unumli, harakatlari qat`iy, topgan mol-mulklari barakali bo‘lib boradi.

Alisher Navoiy ta`na aralashgan yaxshilik va muruvvatni insonning ma`naviy hissiyoti salbiy ekanidan dalolat, deb hisoblaydi. Ta`nasiz muruvvat bu sahiylikdir. Hayotdagi ko‘p holatlardan ko‘rinadiki, kishilarning do‘stlikdarajasi unga o‘zgalarning ehtiyoji tushganda bilinadi. Ana shu sinov uning ma`naviy olami qaydarajada ekanligini belgilaydi. Do‘stlik o‘z navbatida oqibatni keltirib chiqaradi. Oqibat esa insonlar o‘rgatasidagi munosabat zanjiridir.

Do‘stlikning go‘zal xislatlaridan yana biri olijanoblikdir. Xalqimiz turmush tarzining asosiy xususiyatlari, ruhiyati, shuningdek, urf-odat va an`analari ham ayni

shu faazilat asosiga qurlgan. Mahallalarda to‘y-ma`rakalarning o‘tkazilishi, ularga qo‘ni-qo‘shni, qarindosh-urug`ning qatnashuvi, oilda bola tug`ilishi va uning tarbyasiga barchaning ishtiroki, biror fojiadan butun mahalla ahlining tashvishlanishi yoshlar ongida milliy qadriyatlarni xalqimizning o‘ziga xos axloqiy fazilatlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Qisqa qilib aytganda, olijaynoblik asosan, biror yaxshilikni o‘zga kishilarga ham istashdir. Bunday sifat do‘stlikga xizmat qilishga bel bog`lagan oliyjanob kishilarda bo‘ladi. Oliyjanoblik ham jamiyat a`zolari orasida o‘zaro muhabbatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Buning aksicha, do‘stl faqat o‘zi uchun yaxshilikni istash xudbinlikka olib keladi. Oliyjanoblik esa insonni kamolotga, jamiyatni esa saodatga yetaklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбек педагогикаси антологияси: Икки жилдлик. Ж.1. / Тузувчи-муаллифлар: К.Ҳошимов, Сафо Очил /. –Т.: “Ўқитувчи” нашриёти, 1995 й. -464 б.

2. Зуннунов А. Педагогика тарихи. –Т.: “Шарқ” нашриёт-матбба акциядорлик компанияси бош таҳририяти. -2004 й. -335 б.

3. Ҳасанбоева О. ва бошқалар. Oila pedagogikasi. T., «Aloqachi», 2007, 384 bet.

O‘ZBEKISTONDA DEMOGRAFIK MUAMMOLARNING O‘RGANILISHI
RESEARCHING THE DEMOGRAPHIC PROBLEMS OF UZBEKISTAN
ИЗУЧЕНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ УЗБЕКИСТАНА

Madaminov Ulug‘bek Maxamadjon o‘g‘li
Namangan davlat universiteti magistri
https://doi.org/10.5281/zenodo.6697941

Резюме: В статье обосновывается актуальность данной темы, формулируются цели, задачи исторической демографии. Работа посвящена изучению историографии проблем исторической демографии в Узбекистане. А также, на основе широкого круга литературы и источников рассматриваются проблемы развития демографических процессов. В статье исследованы теоретические и методологические основы изучения демографических процессов второй половины XX. – начало XXI. веков. Автор кратко иллюстрирует процесс демографического развития с точки зрения историографического обзора. Показывает источники формирования социально – демографических групп населения и анализирует исторические проблемы демографических процессов.

Ключевые слова: Узбекистан, население, историю, демографию.

Abstract: The article explains the relevance of the topic, defines goals, objectives of historical demography. The work paper is devoted studying the problems of historiography of historical demography in Uzbekistan. And also, on a wide range of literature and sources are studied the problems of demographic processes. In the work researched the theoretical and methodological foundations of the studying demographic processes of the second half of the XX. -th and beginning of the XXI. - th century. The author briefly illustrates the demographic development in terms of historiography review, shows the sources of social - demographic groups and analyzes the historical problems of demographic processes.

Key Words: Uzbekistan, Population, History, Demography

O‘zbekiston davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgach, tarix fanimizda uzoq yillar davomida buzib talqin etilgan yoki yashirib kelingan demografik dalillarni, haqqoniylik va tarixiylik tamoyillari asosida tadqiq qilishga imkoniyat yaratildi. Vatanimiz tarixshunosligini rivojlantirishda zarurligi namoyon bo‘layotgan tarixiy demografiyani o‘rganishda erishilgan jiddiy va ijobiy o‘zgarishlar, hamda dastlabki yutuqlar buning yaqqol dalilid ir[1]. Aholining soni, tarkibi va tabiiy o‘sishi kabi demografik jarayonlarni, tarixiylik printsiplaridan kelib chiqib, retrospektiv usulda yoritishga kirishildi. Demografik tadqiqot usullaridan foydalanib yozilgan, tarixiy

demografiya sohasini yorituvchi doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi[2]. Bu esa iqtisodiy, siyosiy, milliy-ma`naviy, ijtimoiy sohalarda yuz bergan murakkab o‘zgarishlarni demografik tarixning prizmasi orqali kuzatishga, o‘tmishdagi haqiqatni ilmiy tafakkur qilishga yordam bermoqda.

O‘zbekiston tarixiy demografiyasini yoritishda aholini nafaqat hudud tushunchasiga bog‘lab, balki xalq yoki millat bo‘lib shakllangan odamlar majmuining ma`lum bir vaqt chegarasida turli xil demografik jarayonlardagi ishtirokini tarix nuqtai-nazaridan kuzatish dolzarb vazifaga aylandi. Bugun o‘zbek xalqi deganda O‘zbekistonda va jahonning boshqa mamlakatlari, mintaqalarida yashovchi barcha o‘zbeklarni tushunmoq kerakligi bejiz emas. Hozirgi zamonda O‘zbekiston aholisi deganda esa, faqat respublikamizda yashovchi aholini tushunmoq kerak. Chunki ular orasida o‘zbeklardan tashqari turli millat va xalqlar, fuqaroligi bo‘lmagan yoki muhojirlar, chet el fuqarolari va shu kabilar ham bo‘lishi mumkin. Davlatimiz bosh qomusida ta`kidlaganidek, «O‘zbekiston xalqini, millatidan qat`iy nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi»[3]. Demak O‘zbekistonda ham, demografiya fani rivojlanishi tarixini va tarixiy demografiyani bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero aholishunoslik sohasi bilimlarining to‘planishi, asosan davlatchilikning taraqqiyotigachambarchas bog‘liqdir. Chunki aholishunoslik sohasida bilimlar qadimdan mavjud bo‘lgan.

Vatanimizda fan, madaniyat va davlatchilik rivojlanishi juda qadimiy va boy tarixga ega. Aholi haqida qadimiy qo‘lyozmalar, arxeologik yodgorliklar yoki qator ilmiy manbalar guvohlik beradi. Vatanimiz tarixi ilk marotaba, milloddan avvalgi 1 ming yillikning birinchi yarimiga oid yozma manbalarda qisman yoritilgan. O‘rta Osiyo tarixiga tegishli “Avesto” yozma manbalari, dunyo tarixida birinchi bo‘lib yurtimizdagi elatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tizimi to‘g‘risidagi ma`lumotlarni o‘z ichida saqlab qolgan.

O‘rta asrlar davrida aholi soni, tarkibini va tuzilishini doimiy kuzatadigan tashkilotlar tuzilmagan bo‘lsa ham Turkiston xalqlari haqida tasavvur bera oladigan ma`lumotlarni topa olish mumkin. Masalan, o‘ziga xos aholishunoslikni joriy qilganlar orasida Amir Temur ham bor. Sohibqiron XIV. – XV. asrlarda buyuk davlatga asos solib, o‘zining “Tuzuklar”ida aholi muammolariga qaratilgan qonunlarini yaratgan edi. “Tuzuklar”da Amir Temur o‘zining davlatni boshqarishdagi, jumladan aholi nufuzini saqlash siyosatini, ko‘p yillik tajribalarini kelgusi ajdodlariga etkazish maqsadida umumlashtiradi. Bular orasida zabt etilgan mamlakatlarda asirlikka olinganlar bilan muloqat qilish qoidalari alohida o‘rin egallaydi[4].

Afsuski, yuqorida qayd etilganidek tariximizning turli bosqichlarida, O‘rta Osiyo xalqlari haqida to‘liq tasavvur bera oladigan demografik tarix ma`lumotlari to‘liq holda jamlanmagan. Shu sababli tarixchi olimlar tomonidan kelgusida bajarishi

zarur bo‘lgandolzarb vazifalardan biri, bu demografik tarixni yoritishga xizmat qiladigan yangi manbalardan, o‘tmish demografik jarayonlarini ko‘rsatadigan ma`lumotlarni izlab topishdan iborat.

Zamonaviy sharoitda, O‘zbekistonda tarix fani rivojlanishida, demografik ma`lumotlardan foydalanishga ehtiyoj kattadir. Bu sohadagi ehtiyojning yuzaga kelishiga sabab, mustabid Sovet davlatining hukmronligi yillarida demografiyani haqqoniy o‘rganishga, mamlakatimiz aholisi soni va tarkibiga ta`sir qilgan va turli xil ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ekologik muammolarni o‘rganishga imkon berilmadi. Hattoki mustaqillikka erishganimizgacha, bu sohada respublikamiz oliy o‘quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash yo‘lga qo‘yilmadi.

Aholishunoslik muammolarini yorituvchi adabiyotlar tahliliga ko‘ra, sovet davlati hukmronligi yillarida demografik tarixni o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar deyarli olib borilmadi. Chunki, sovet jamiyatida demografik jarayonlarni ilmiy tadqiqot ob`ekti sifatida o‘rganish kommunistik mafkura tomonidan cheklab qo‘yilgan edi. Boshqacha qilib aytganda, aholishunoslikka oid izlanishlar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tuzilishiga (aholini sinflarga ajratib, faqat kasb turiga qarab yoki aholi tarkibining yoshi va jinsiy tuzilishiga) mos holda olib borildi[5]. Demografik mavzuni o‘rganish bilan bog‘liq tadqiqot izlanishlarining bajarilishi XX. asrning 20-yillari bilan chegaralangan holda qolib ketgan edi[6].

Shunday bo‘lsada, aholi tarixini o‘rganish butunlay to‘xtab qolmadi. Tarixchilar tomonidan demografik rivojlanish muammolarini ilmiy o‘rganish, 1970-yillar o‘rtalari va 1980-yillar oxiridan boshlandi. R.X.Aminovaning asarlarida jamiyatning ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotida ayollar ishtiroki masalalari tadqiq qilindi[7]. Olima muammonio‘rganishning XX. asrning ikkinchi choragi davri bilan ko‘proq chegaralangan bo‘lsada, uning tadqiqot ishlarida O‘zbekistonda ayollarning ijtimoiy ahvoli haqida boy faktik materiallar keltiriladi. Xususan, onalikni, bolalikni muhofaza qilish, bolalar o‘limi bilan bog‘liq holatlarga bag‘ishlangan tahlillari o‘sha davr demografik siyosatini yoritishga xizmat qiladi.

Albatta, aholi tuzilishida ayollar faolligini bu asarlar e`lon qilinishigacha umuman o‘rganilmagan, deyish mumkin emas. Biroq R.X.Aminovaning izlanishlarida ayollarning jamiyatda tutgan muhim roli, tarixiy demografiya nuqtai nazariga yaqin holda, tarixiylikka xos omillar asosida ochib berildi. Aynan shu paytdan boshlab, O‘zbekiston tarixshunosligida tarix, iqtisod va demografiya fanlari vakillarining o‘zaro ilmiy hamkorligi shakllana boshlagan edi. 1973 yilda S. Mullajonova, H.Tursunov, Q.Fozilxo‘jaev hammualliflikda e`lon qildirgan « Край преображенный Октябрем» (Oktyabr o‘zgartirgan o‘lka) nomli asarda, tarixiy - iqtisodiy va demografik ko‘rsatkichlar ilk bor keltiriladi. Biroq, ushbu tadqiqotlarga yillar o‘tib baho berar ekanmiz, alohida ta`kidlash joizkim, mustabid tuzum sharoitida demografik muammolarni o‘rganishning tarix fanida o‘rni yo‘q edi.

Sovet jamiyatida demografik jarayonlarni ilmiy tadqiqot ob`ekti sifatida o‘rganish cheklab qo‘yildi. Demografiya o‘sha davrda butun mamlakat aholisini shunchaki hisobga olish bilan chegaralangan ediki, bu mazkur ilmiy tadqiqot sohasining rivojlanishiga ta`sir etmay qolmadi. Ammo, asta-sekinlik bilan tarixiy-demografik yondashuv, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning echimini topishda qo‘llaniladigan bo‘ldi. Bu davrda, O‘zbekiston aholisi o‘z ijtimoiy tarkibiga ko‘ra, davlat tomonidan boshqariladigan va unga to‘liq qaram bo‘lgan sinflar - ishchilar, jamoa xo‘jaliklariga birlashtirilgan dehqon (kolxozchi)lar va ziyoliyintelligentsiya strata(qatlam)laridan iborat bo‘lishiga harakat qilindi[8]. Shu sababdan tan olishimiz joizkim, yuqorida sarlavhalari keltirilgan asarlarning nomlanishi, o‘z zamonasi zayliga mos holda, mafkuraviy tayziq ta`sirida belgilangan bo‘lsa-da, baribir shu tadqiqotlarning yaratilganligi sabab, O‘zbekistonda tarix fanining tarixshunosligiga bag‘ishlab yozilgan manbada ham ilk marotaba, demografik muammolarni alohida ilmiy izlanish sifatida bajarish zarurligi ko‘rsatib o‘tilgan edi[9].

Bundan keyingi yillar tarixshunosligida, demografik jarayonlarda ayollarning tutgan o‘rni haqida D.A. Alimovaning doktorlik dissertatsiyasida va «O‘rta Osiyoda ayollar: tarixini o‘rganish va zamonaviy muammolari» nomli monografiyasida atroflicha ochib berildi[10]. Olima birinchilardan bo‘lib sovet davrida yaratilgan ko‘plab ilmiy ishlarga (xususan, 1940-1980-yillarga bag‘ishlangan tadqiqotlarga) tanqidiy yondoshgan edi.

Mustabid tuzum sharoitida, O‘zbekiston tarixchilarining o‘rni, tarixiy - demografik jarayonlarni yoritishda sezilgan bo‘lsa-da, faqatgina demografik mavzuga qiziqishning paydo bo‘lishidagina namoyon bo‘lgan edi. Chunki bu davrda hali aholi muammolarini ilmiy tadqiq qilinishiga bir qancha to‘siqlar xalaqit berardi. Mazkur muammolar echimini topish bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan tadqiqotchilar uchun arxivlarda saqlanayotgan joriy statistika materiallari umuman berilmas edi. Hujjatlar davlat arxivlarida mutlaqo maxfiylik sharoitida saqlanar edi. Bir qator masalalarni ochiq muhokama qilish (urush yillarida halok bo‘lgan fuqarolar soni, qatag‘onlarning demografik vaziyatga salbiy ta`siri oqibatlari; o‘z yurtlaridan O‘zbekistonga zo‘rlab ko‘chirilgan fuqarolar kontingenti, ularning «maxsus yashash» hududlaridan ozod etilishi va boshqalar) mumkin emas edi.

Bu yillarda faoliyat yuritgan tarixchilar o‘z tadqiqot ishlarida o‘tmishdagi demografik muammolarni o‘rganishga asosan mehnat resurslarining shakllanishi, aholining ijtimoiy, madaniy-maishiy va ta`lim strukturasi, shuningdek, aholi tarkibidagi turli ijtimoiy guruhlarning mehnat faolligi nuqtai nazaridan yondoshdilar[11]. Bu izlanishlardagi kamchilik – bo‘lib o‘tgan demografik jarayonlarga mos statistika ma`lumotlaridan foydalanmaslikdir. Shunga qaramay, O‘zbekiston tarixshunosligida mazkur tadqiqotlarni o‘z sohalari bo‘yicha muayyan izlanish sifatida ijobiy baholash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Atamirzayev O.B., Gentshke V.L., Murtazayeva R.X., Saliyev A. Istorikodemograficheskiye ocherki urbanizasii Uzbekistana. – Tashkent, «Universitet», 2002; AtaMirzayev O.B., Gentshke V.L., Murtazayeva R. X. Mejnasionalnaya tolerantnost v Uzbekistane: istoriya i sovremennost. – Tashkent, «Universitet», 2004; Shu mualliflar. Uzbekistan mnogonasionalnыy: istoriko-demograficheskiy aspekt. – Tashkent, «Abu Ali ibn Sino», 1998 va boshqalar.

2. Hayitov Sh.A. XX – asr o‘zbek muhojirligi tarixi. // Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertasiya avtoreferati. – T., 2009; Isoqov B.N. O‘zbekistonda 80- yillarning ikkinchi yarmi - 2000 yillardagi tarixiy o‘zgarishlarning demografik jarayonlarga ta’siri. //Tarix fanlari nomzodi …. dissertasiya avtoreferati. – T., 2010; Xadjimuratova M.X. Farg‘ona vodiysining demografik tarixi (1991-2006 yy.) // Tarix fanlari nomzodi …. dissertasiya avtoreferati. – T., 2011 va boshqalar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. - Toshkent, «O‘zbekiston», 2010. - B. 5.

4. Temur tuzuklari. – Toshkent, «Nashriyot – matbaa birlashmasi», 1991. – B. 86-87, 95-100.

5. Axunova M.A., Lunin B.V. Istoriya istoricheskix nauk v Uzbekistane. - T., 1970. -S. 100-114.

6. Shelestov D.K. Istoricheskaya demografiya.- M., 1987.- S. 223-230; Timm.Ye.S. Dvijeniye naseleniya goroda Tashkenta za 5 let. 1923-1927. – T., 1928; Shu muallifl. Opыt izucheniya yestestvennogo dvijeniya naseleniya v kishlakax. – T., 1929 va boshqalar.

7. Aminova R.X. Oktyabr i resheniye jenskogo voprosa v Uzbekistane. – T.,1975; Oktyabr i resheniye jenskogo voprosa v SSSR (1917-1937 gg.). – M., 1978; Sosialnыye aspektы jenskogo truda v promыshlennosti Uzbekistana // Sovremennыye problemы razvitiya rabochego klassa Uzbekistana. – T., 1989. – S. 67-77.

8. Bu haqda batafsil qarang: Mahkamova N.R. Sosialnaya struktura obщyestva na territorii Uzbekistana: tradisii i transformasii. Avtoreferat dissertasii dokt. ist. nauk. – T., 2009. - S. 4 -5.

9. Aminova R.X., Axunova M.A., Lunin B.V. Istoricheskaya nauka v Uzbekistane. –Tashkent, «Fan», 1987. - S. 156.

10. Alimova D.A. Jenskiy vopros v sovetskoy istoriografii Sredney Azii (20-80-ye godы). Avtoreferat dissertasii dokt. ist. nauk. – T., 1991; Jenskiy vopros v Sredney Azii: istoriya izucheniya i sovremennыye problemы. – Tashkent, «Fan», 1991.

11. Sosialno-ekonomicheskiye problemы Uzbekistana v usloviyax perestroyki. – Tashkent, «Fan», 1990; Problemы istorii respublik Sredney Azii i Kazaxstana v 40-50-yegodы. – Tashkent, «Fan», 1989; Sovremennыye problemы razvitiya rabochego klassa Uzbekistana. – Tashkent, «Fan», 1989; Aminova R.X. Aktualnыye problemы sosialnogo razvitiya v Uzbekistane v usloviyax perestroyki. – Tashkent, «Fan», 1991; Uzbekistan: stranisы istorii. – Tashkent, «Fan», 1991 va boshqalar.

BIOLOGIYA — HAYOT HAQIDAGI FAN

Ollaberganova Muhabbat Jumanazarovna
Tairova Klara
Xorazm viloyati Urganch tumanidagi
14-son maktabning biologiya fani o‘qituvchilari
https://doi.org/10.5281/zenodo.6698002

Annotatsiya: mazkur maqolada fanlar ichida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan hamda har birimiz yaxshi bilishimiz lozim bo‘lgan fan, ya’ni biologiya fani, uning ahamiyati, vazifasi, sohalari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: biologiya, zoologiya, biofizika, moddalar almashinuvi, irsiyat, o‘zgaruvchanlik, sistematka, tirik organizm.

Ma’lumki, har bir fanning o‘z o‘rni, ahamiyati bor. Biroq fanlaro bir fan borki, uni har bir inson yaxshi bilishi zarur. U ham bo‘lsa, biologiyadir. biologiya fani o‘zining ahamiyatliligi bilan ajralib turadi.

Biologiya — hayot haqidagi fan bo‘lib, yunoncha “bios” — hayot, “logos” – ta’limot (fan) degan ma’noni anglatadi. Biologiya atamasi 1802- yilda fransuz olimi J.B.Lamark va nemis olimi G.R.Treviranus tomonidan fanga kiritilgan. Biologiya hayot, uning shakllari, tuzilishi, rivojlanish qonuniyatlari to‘g‘risidagi fandir. Biologiyaning o‘rganish obyekti bu – viruslar, mikroorganizmlar, zamburug‘lar, o‘simliklar, hayvonlar, odamlar, ularning organ, to‘qima, hujayra tarkibi, hujayralarda kechadigan jarayonlar hamda organizmning shaxsiy va tarixiy rivojlanishi, hamjamoalari, ularning o‘zaro anorganik tabiat bilan aloqasi hisoblanadi.

Biologiya fabi bir qator fanlari sistemasini o‘z ichiga oladi. Biologiya tadqiqot va tekshirish obyektiga ko‘ra bir qancha sohalarga botanika, zoologiya, anatomiya, sistematika, sitologiya, gistologiya, genetika, seleksiya, embriologiya, paleontologiya, ekologiya va boshqalarga bo‘linadi. Botanika – o‘simliklar, zoologiya – hayvonlar to‘g‘risidagi fan. Odam va uning salomatligi – odam organizmi va organlar hamda organlar sistemasining tuzilishini o‘rganadi. Sistematika – o‘simlik va hayvonlarning sistematik guruhlari va ularning o‘zaro qarindoshlik munosabatlari haqidagi fan ekanligi sizlarga, 5-, 6-, 7-, 8- sinflardan ma’lum. Hozirgi vaqtda biologiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biokimyo, molekular biologiya, biofizika, genetik injeneriya, biotexnologiya kabi fanlar jadal rivojlanib bormoqda. Biokimyo – organizm hayot faoliyatini tashkil etuvchi kimyoviy moddalar va jarayonlar haqidagi, biofizika – tirik sistemalardagi fizik qonuniyatlar va ko‘rsatkichlarni tadqiq qiluvchi fandir.

Biologiyaning asosiy vazifasi, hayot mohiyati, uning tuzilish darajalari, shakllari, rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi. Biologiya – sitologiya va genetika, evolutsion ta’limot, ekologiya, paleontologiya, embriologiya, molekulyar biologiya, biokimyo, biofizika, biogeotsenologiya hamda tabiatshunoslikning boshqa sohalaridagi bilimlar asosida shakllangan kompleks fandir.

Tirik organizmlar xilma-xil bo‘lishiga qaramay, ularning barchasi hujayraviy tuzilishga ega hamda o‘xshash kimyoviy elementlar va moddalardan iborat. Hujayra tiriklikning barcha xossalarini o‘zida mujassamlashtirgan eng kichik birlikdir. Organizm bilan tashqi muhit o‘rtasida doimo moddalar va energiya almashinuvi sodir bo‘lib turadi. Tirik organizmlarning muhim xossasi oziq va quyosh nuridan tashqi energiya manbayi sifatida foydalanishidir. Energiya bir organizmdan ikkinchi organizmga organik modda ko‘rinishida beriladi. Organizmdagi moddalar almashinuvi asosini assimilyatsiya va dissimilyatsiya jarayonlari tashkil etadi. Ba’zi bir moddalar organizm tomonidan o‘zlashtirilsa, boshqa moddalar aksincha, tashqi muhitga chiqarib yuboriladi. Moddalar almashinuvi organizmdagi hujayralarning tiklanishi, o‘sishi va rivojlanishini ta’minlaydi. Barcha tirik mavjudotlar oziqlanadi. Oziqlanish tashqi muhitdan ozuqa moddalarni o‘zlashtirishdir. Ozuqa barcha tirik organizmlar uchun zarur, chunki u organizmdagi hujayralarning tiklanishi, o‘sishi va boshqa ko‘pgina jarayonlar omili bo‘lib, modda va energiya almashinuv manbai hisoblanadi. Tirik organizmlar o‘z hayot faoliyatini saqlab turishlari uchun doimiy ravishda energiya kerak bo‘ladi. energiya nafas olish jarayonida ozuqa moddalarning asosan kislorod ta’sirida parchalanishidan ajralib chiqadi. Moddalar almashinuvi natijasida organizmlarda keraksiz moddalar ham to‘planishi mumkin. Bunday moddalar odatda zaharli moddalardir, ularni organizmdan chiqarib yuborish ajratish jarayoni deb ataladi. Tirik organizmlar o‘sadi va rivojlanadi. O‘sish va rivojlanish barcha tirik organizmlar uchun xos xususiyatdir. O‘sish organizmlar tomonidan ozuqa moddalarni o‘zlashtirish hisobiga amalga oshadi. organizmlar tashqi muhitdagi va o‘zida kuzatiladigan barcha o‘zgarishlarga ham sezgir bo‘ladi. Buning uchun yashil o‘simliklarning quyosh nuri ta’siriga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatib o‘tish kifoya. Demak, tirik organizmlar qo‘zg‘aluvchanlik xususiyati bilan tavsiflanadi. Shuningdek, tirik organizmlar o‘zini o‘zi idora etish xususiyatiga ham ega bo‘lib, u organizmni o‘zgaruvchan tashqi muhit sharoitlariga javoban kimyoviy tarkibi va fiziologik jarayonlarning borishini ma’lum bir me’yorda ushlab turish, ya’ni gomeostaz bilan bog‘liq. Bunda tashqi muhitdan qandaydir ozuqa moddalarni qabul qilishi, yetishmasa organizm o‘zining ichki imkoniyatlaridan foydalanishi, aksincha, ortiqcha moddalarni zaxira sifatida saqlashi mumkin. ko‘pincha biz turmushda hayot doimiy harakatda degan iborani ishlatamiz. haqiqatdan ham shunday. Barcha tirik organizmlar, ayniqsa, barcha hayvonlar doimiy harakatda bo‘ladi. hayvonlar o‘ziga

ozuqa topish va xavf-hatardan saqlanishi uchun faol harakatda bo‘lishi zarur. Harakatlanish — tirik organizmlar uchun xos bo‘lgan muhim xususiyatlardan biridir. O‘simliklar ham harakatlanish xususiyatiga ega. Ammo ularning harakati juda sekin ro‘y bergani uchun deyarli bilinmaydi. Tirik organizmlarning muhim xususiyatlaridan yana biri ko‘payishdir. Ushbu xususiyat tiriklikning eng zaruriy omili hisoblanadi va shuning uchun ham sayyoramizda hayot davom etib kelmoqda. ko‘payish orqali tirik organizmlar o‘zi uchun xos bo‘lgan yana bir muhim xususiyat — irsiyat va o‘zgaruvchanlikni amalga oshiradi. Irsiyat tufayli tur turg‘unligi ta’minlanadi. o‘zgaruvchanlik natijasida esa tur xilma-xilligi ortadi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, biologiya fani tirik organizmalar haqidagi fan ekan. Bilamizki, insonlar tirik tabiatning bir qismi. Shunday ekan, har birimiz ushbu fanni yaxshi bilishimiz lozim. Zero, bizning biologiyaga doir yoshlikda olgan bilimlarimiz butun umrimiz davomida asqotishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zME. Toshkent – 2010.
2. G‘ofurov A. T. va boshqalar. Biologiya (Evoloyutsiya va ekologiya) T.: “Sharq”. 2007y.
3. www.ziyo.uz
4. www.pedagog..uz

HAMZA HAKIMZODA NIYOZIYNING O‘LMAS IJODIY MEROSI

Ataxodjayev Muhammadjon Muzaffarjon o‘g‘li
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Drama teatri va kino aktyorligi san’ati mutaxassisligi” magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.6698081

Annotatsiya: teatr san’atining tashkil topishi hamda rivojlanishiga hissa qo‘shgan yetuk ijodkor Hamza Hakimzoda Niyoziyning teatr ijodiy faoliyatiga qo‘shgan hissasi va uning teatrdagi sahnalashtirgan spektakllari haqida boradi.
Kalit so‘zlar: teatr, aktyor, spektakl, p’esa, obraz, xarakter, rejissor, drama.
Аннотация: Хамза Хакимзода, ведущий художник, внесший вклад в становление и развитие театрального искусства, рассказал о вкладе Ниязи в театральное творчество и его театральных постановках.
Ключевые слова: театр, актер, спектакль, спектакль, образ, персонаж, режиссер, драма.
Annotation: Hamza Hakimzoda, a leading artist who contributed to the formation and development of theatrical art, spoke about Niyazi's contribution to theatrical creativity and his theatrical performances.
Keywords: theater, actor, play, play, image, character, director, drama.

Hamza ijodi ko‘pqirrali bo‘lgani, u yaratgan asarlarning ba’zilari bizgacha yetib kela olmay turgani hamon olimlarimizning qo‘llarini bog‘lab turgani ham haqiqatdir. Hamza ijodi olimlarimiz tomonidan qanchalik tadqiq qilingan bo‘lmasin hali u tugal o‘zlashtirilmagan qo‘riqqa o‘xshab turibdi. Uning ko‘pkirrali ijodida taxti buzilmagan sahifalar topilishi ehtimoldan uzoq emas ko‘rinadi.

Hamzani teatrdan, teatrni Hamzadan ajratib bo‘lmaydi. Hamza Oktabr inqilobi tufayli bunyodga kelgan davlat teatr truppasiga boshchilik qilgan karvonboshidir. Bu karvonboshining vazifasi nihoyatda ulkan edi. Artistlar to‘plash, rejissorlik qilish, qo‘shiq yozib, kuy bastalash, eng muhimi yangi inqilob uchun xizmat qila oladigan p’esalar yaratishi kerak edi. Bular – siz endigina atak-chechak qilayotgan teatr mavqeini ko‘tarib bo‘lmas edi. U o‘zining birgina “Boy ila xizmatchi” asari bilan Turkiston o‘lkasida san’atimizning istiqbolini aniqlab bera bildi.

Bu asar zo‘r ijtimoiy masala ko‘tarishi, badiiyatning boyligi, obrazlarning puxta ishlanganligi, personajlar aytadigan so‘zlarning o‘ziga xosligi bilan dramaturgiyamiz durdonasidir. Hamzaning teatr tashkil topishida xizmati shu qadar kattaki, bu zotni Globus teatrini yaratgan ingliz dramaturgi Shekspirga, o‘zi komediyalar yozib, rol ijro etgan fransuz adibi Mol’erga, Moskva akademik Maliy teatrini “o‘z uyim” deb bilgan dramaturg Ostrovskiyga o‘xshatging keladi.

“Rus-tuzem maktabini bitirgan Badriddin A’lamov 1914-16 yillarda o‘zining “Juvonmarg”, “Ahmoq”, “O‘gay ota”, “Boyvachcha” p’esalari bilan tanilgan Abdulla Badriy (1893-1936) edi. Mashxur Mannoy Uyg‘ur, “Halima”ning muallifi G‘ulom Zafariylar ham Avloniy truppasidan chiqqan edilar. Qo‘qonda ham bir qator iste’dodli yoshlar uyushgan edi. Teatrshunos M.Rahmonov 1915-yilning boshlarida maydonga kelgan Qo‘qon teatri havaskorlari truppasi Abdurauf Samadov, Mahmud Tarasha Baratov, Abdulaziz, Xolmuhammad Oxundiy, A’zamxo‘ja, Mirhomid Miroqilov, Azimxo‘ja Toshxo‘jayev, Xasan Ermatov, Isoq Sodiqiy, Abdullajon kabilardan tarkib topganini aniqladi”. [1. B. 313-314.]

1915-yilning sentabrida Avloniy truppasi “Zaharli hayot”ni sahnalashtirdi. Drama 1915-yilda yozilgan. 1916-yilda bosilib chiqqan. Qo‘qonda birinchi marotaba 1915-yilning 22-oktabrida o‘ynalgan. Binobarin, uni birinchi sahnaga qo‘ygan Avloniy truppasi bo‘ldi. Avloniy dramani 1915-yilgi Farg‘ona sayohatidan olib qaytgan bo‘lishi ehtimoldan uzoq emas. Teatrshunos M.Rahmonov, yuqorida tilga olingan kitobida Hamza va Avloniy munosabatlarining o‘rganilishi zarur bo‘lgan masala sifatida alohida ta’kidlagan edi. Darhaqiqat, XX asr o‘zbek madaniyatining dongdor vakili Hamza bilan o‘z ijodi va faoliyatini yoshi va muhiti taqozosiga ko‘ra ertaroq boshlagan uning iste’dodli, zahmatkash zamondoshi Avloniyni bir-biriga yaqinlashtiradigan jihatlar ko‘p. Ularning har ikkisi ham Muqimiy va Furqat boshlab bergan demokratik adabiyotning munosib davomchilari sifatida maydonga chiqdilar. Har ikki shoir dunyoqarashining shakllanishida 1905- yil voqealari, ilg‘or zamondoshlar katta rol o‘ynadi. Birinchi rus revolutsiyasi har ikki adibning milliy-ijtimoiy, aytish mumkin-ki, inqilobiy faoliyatida burilish nuqtalaridan bo‘ldi.

Hamzashunos olimlar uning 1909-1910 yillarda Toshkentda yashaganini ma’lum qiladilar. Bu vaqtlarda Avloniy taraqqiyparvar, ma’rifatchi sifatida tanilib qolgan edi. Chunonchi, 1904-yilda Mirobodda yangi tipdagi maktab ochgani, u haqida gazetalarda maqolalar bosilgani, 1909-yilda “milliy hasrat va nadomatlardan iborat” she’rlarimi maktab o‘quvchilariga mo‘ljallab, majmua holida nashr ettirgani, nihoyat “Shuhrat” gazetasidagi redaktorligi Hamzaning diqqatini tortmagan bo‘lishi ehtimoldan uzoq. Ular birinchi marotaba mana shu 1909-1910 yillarda tanishganlar degan taxminga asos bor.

Hamza va Avloniyga yana qaytadigan bo‘lsak, 1914-yil 4-aprelda Toshkentda “Sadoyi Turkiston” gazetasining 1-soni bosilib chiqdi. Bor-yo‘g‘i 66-soni chiqib, bir yilcha davom etgan bu gazeta Hamza va Avloniy munosabatlarida alohida sahifa bo‘lgan deb taxmin qilish mumkin. Negaki, har ikki adib ham unda faol ishtirok etgan edilar. Atoqli Hamzashunos Laziz Qayumovning aniqlashicha, Hamzaning shu gazetada 1914-yil, 11-may, 2-sonida chiqqan “Ahvolimiz” she’ri uning matbuotda bosilgan birinchi asaridir. [2. B. 13.]

Hamzaning “Sadoyi Farg‘ona” gazetasining 1914-yil 21-may sonida bosilgan “Muhammas bar gazeli Avloniy Toshkandiy”si ham ikki adib ijodiy hamkorligiga guvoh bo‘lib turibdi. Bu hamkorlik samaralarini ularning boshqa janrlardagi asarlarida ham topish mumkin. U birinchi navbatda, xalqning keng qatlamlariga teran razm tashlashda, jamiyatning adolatsiz qurilganini, haqsizlik avjga minganini, mehnatkashning tirikchiligi toqat qilib bo‘lmaydigan darajaga kelganini qat’iyat va izchillik bilan o‘quvchiga yetkazishda ko‘rinadi.

Hamzaning 1905-yilgi rus revolutsiyasidan keyinoq Turkistonga Qozon, Samara, Orenburg kabi shaharlardan kelib kolgan progressiv ruhdagi rus, tatar ziyolilari, o‘qituvchilari bilan aloqa bog‘lashi, ilg‘or rus adabiyoti va madaniyatini o‘rganishi, ayniqsa maorif sohasida Abdulla Tukmullin kabi ayrim ilg‘or fikrli tatar maorif xodimlari bilan tanishuvi bu sohada muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. O‘zining yozishicha, 1908-yillardan keyinroq bu odam bilan tanishuv, suhbatlar she’rlarining inqilobiy tus olishiga, 1905-yilgi revolutsiyaning moxiyatini anglab olishga yordam bergan. [3. B.] O‘sha vaqtlarda Turkistonga kelgan rus, tatar teatr va konsert truppalarining Qo‘qondagi tomoshalari Hamzada katta taassurot qoldirgan. U do‘sti Bo‘ronboy orqali Abdulla To‘qay she’rlarining mohir ijrochisi Komil Mutiy bilan tanishib, undan saboq va maslahatlar olgan. [4. B.] Buning natijasida u endi ijtimoiy-siyosiy mavzularda “Ahvolimiz”, “Eshonlarning holidan”, “Zaharli hayot”, “Yangi saodat yoki milliy roman” kabi asarlar yoza boshlaydi. Bu davrda uning ijodi faqat g‘oyaviy-tematik jihatdangina emas, janr jihatdan ham boyib boradi. Hamza ijodida ijtimoiy-siyosiy lirika, ijtimoiy-satira, realistik ruhdagi proza va sahna asarlari keng o‘rin ola boshladi. Asarlarining tili va uslubi ham xalq hayotiga yanada yaqinlashdi. Bunda shubhasiz birinchi navbatda o‘zbek xalqi ijtimoiy-siyosiy xayotidagi yangi o‘zgarishlar, yozma va og‘zaki adabiyotimizning ilg‘or an’analari bilan birga tatar revolutsion demokrat shoiri Abdulla To‘qayning ta’siri kuchli bo‘lgan. Buni Hamzaning “Qizlar va yigitlar dialogi”, “Maktublar”, “Ramazon”, “Sog‘inish”, “Eshon o‘pkasi”, “Ishchilar, uyg‘on!” she’rlari bilan Abdulla To‘qayning “Tovush haqqinda”, “Bugun bayram”, “Nasihat”, “Eshonning zori” she’rlaridagi yaqinlikdan sezish mumkin.

Professor Abdurahmon Sa’diy**,** tarjimon va yozuvchi Zarif Bashir o‘zbek, tatar matbuoti sahifalarida har ikki xalqning Hamza, Mirmuxsin Shermuhamedov, Abdulla To‘qay, Majid G‘ofuriy, Olimjon Ibrohimov kabi vakillari ijodini keng targ‘ib qilib, tatar-o‘zbek adabiy aloqalarining rivojlanishi, shuningdek Hamza, Abdulla Qodiriy ijodlarining Tataristonda tarqalishida katta xizmat qiladilar. [5. B. 202.]

Bu hollarning hammasi o‘z navbatida yangi revolutsion o‘zbek adabiyoti va teatr san’ati yutuqlarining Volgabo‘yi xalqlari o‘rtasida tobora kengroq yoyilishi, ayniqsa Hamzaga g‘oyaviy jihatdan yaqin bo‘lgan Olimjon Ibrohimov, Majid

G‘ofuriy kabi tatar, boshqird revolutsion shoir va yozuvchilari orasida katta qiziqish uyg‘otishga sabab bo‘ldi.

Hamzashunoslik o‘zbek sovet adabiyotshunosligining muhim tarkibiy qismi sifatida o‘z taraqqiyotida oddiylikdan murakkablikka, yuzakilikdan chuqur ilmiylikka tomon ko‘tarila bordi. Hamzashunoslik ilmida ham ko‘p millatli sovet adabiyotshunosligi qo‘lga kiritgan barcha yutuqlar o‘z aksini topdi. B.A.Pestovskiy, Shokir Sulaymon, Abdurahmon Sa’diy, N.Mironov Hamza ijodining dastlabki tadqiqotchilaridan hisoblanadilar. Ayniqsa B.A.Pestovskiy va Shokir Sulaymon 20-yillarda yozgan ba’zi maqolalarida Hamzaning ayrim asarlari haqida fikr yuritib, otashin shoir ijodiga haqli ravishda baho berdilar. Biroq, 20-yillardagi barcha tadqiqotchilar ham Hamza ijodiga to‘g‘ri, holisona baho berdi, deb bo‘lmaydi. Bu yillarda Hamza ijodini ataylab kamsitishga uringanlar ham, u jadid adabiyotining namoyondasi deb qoralaganlar ham bor edi[1]. [6. B. 45.]

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, so‘nggi davrlarga kelib Hamzashunoslik ilmi san’atkor ijodini chuqur va ob’ektiv tadqiqot asosida keng ko‘lamli yorituvchi qator salmoqli asarlar - tanqidiy-biografik ocherk va monografiyalar, o‘quv qo‘llanmalari va adabiy maqolalar to‘plami, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari bilan boyidi. Y.Sultonov, R.Po‘latov, A.Boboxonov, X.Nazarova, M.Aminovalarning nomzodlik, Laziz Qayumovning doktorlik dissertatsiyasi ana shu yutuqlar jumlasidan bo‘lib, ularda Hamzaning hayoti, dunyoqarashi va ijodining turli qirralari ijtimoiy jamiyatimiz tarixi va yangi adabiyotimiz taraqqiyoti bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmonov M. O‘zbek teatri tarixi, XVIII asrdan XX asr avvaligacha, -T.: Fan, 1968.
2. Qayumov L. Inqilobiy drama. -T.: G‘.G‘ulom, 1970.
3. Sultonov Y. Hamza Hakimzoda Niyoziy haqida muhim hujjat. O‘zbek tili va adabiyoti, -T.:1963. № 1.
4. Shokir Sulaymon. // Hamza Hakimzoda - revolyusiya shoiri. // Guliston, 1939, № 2.
5. Ismoilov B. // Oktabr tongida tug‘ilgan teatr. // Sharq yulduzi, 1975, № 2.
6. “Hamza haqida maqolalar” to‘plami, -T.: 1960.

[1] “Hamza haqida maqolalar” to‘plami, -T.: 1960, 45-b.

DRAMATURG VA AKTYOR HAMKORLIGI – AKTYOR UCHUN YOZILGAN SAHNA ASARLARI

Qudratov Orifjon Alimovich
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Drama teatri va kino aktyorligi san’ati mutaxassisligi” magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.6698133

Annotatsiya: maqolada o‘zbek teatri tarixida dramaturglar va aktyorlarning ijodiy hamkorligi, xususan dramaturglarning aktyorlarga bag‘ishlab yozilgan sahna asarlari va ularning ijodiy yutuqlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: p’esa, drama, dramaturg, spektakl, aktyor, rejissor, teatr, xarakter, obraz.

Аннотация: в статье рассматривается творческое сотрудничество драматургов и актеров в истории узбекского театра, в частности пьесы, написанные драматургами, посвященные актерам и их творческим достижениям.

Ключевые слова: пьеса, драма, драматург, спектакль, актёр, режиссёр, театр, персонаж, образ.

Annotation: the article discusses the creative collaboration of playwrights and actors in the history of Uzbek theater, in particular, the plays written by playwrights dedicated to actors and their creative achievements.

Keywords: play, drama, playwright, play, actor, director, theater, character, image..

O‘zbek dramaturgiyasida aynan bir aktyor uchun p’esa yozish an’anasini I.Sulton boshlab berdi. Aktyorlar uchun rol yozish esa avvaldan A.Qahhor, O.Yoqubov asarlarida ko‘zga tashlangan edi. Biroq ularning hech biri butun boshli asari va qahramonini muayyan ijrochiga atab bitmagandi. 1960-yilda sahnalashtirilgan I.Sultonning “Imon” dramasi O.Xo‘jayev uchun maxsus yozildi. Dramaturgning aktyor ijrosiga bo‘lgan muhabbati 1942-yil “Burgut parvozi” asarini sahnalashtirish chog‘idayoq paydo bo‘lgan. 1945-yil “Alisher Navoiy” p’esasi ustida ishlash jarayonida muallifning O.Xo‘jayev ijodiga bag‘ishlangan maqolasi ham e’lon qilindi. “Imon” esa ikki ijodkorning ma’naviy qarashlarini o‘zaro birlashtirdi va hamkorlikdagi barkamol namunaga aylandi.

Odatda bunday yo‘nalishdagi p’esalarda aktyorlarga bo‘lgan talabning yuki ikki hissa ortadi. Ikki barobar mehnat qilishga to‘g‘ri keladi. Chunki bunda asosiy maqsad muallif va teatr jamoasi ishonchini “oqlash”ga qaratiladi. O.Xo‘jayev ham I.Sulton va

hamkasblarining ishonchini oqlash niyatida anchayin izlanishlar olib bordi. Bu haqida aktyorning o‘zi shunday deydi:

“...Men Moor va Komilov obrazlari ustida ish olib borganimda Gamlet rolida o‘ynashni ham davom ettirdim. Bu rollarni bir vaqtda galma-galdan o‘ynash esa meni ko‘p narsaga o‘rgatdi. Agar biz Komilovning ko‘zida, ovozida, ohanglarida, harakatlarida Gamlet va Karl Moordagiga o‘xshamagan fikr jo‘shqinligini, e’tiqod jasoratini, maqsadga intilish kuchini ko‘rar ekanmiz, bu albatta rejissor talqinining natijasidir... Men eski dunyoning odil hayotga to‘sqinlik qilayotgan, yo‘limizda uchraydigan har qanday to‘sqinliklar bo‘lmasligi uchun kurashadigan obrazga yetib keldim. Gamletdagi hardamhayollik, Moorning yovuzlik bilan “umuman” kurashi orqada qolib, konkret fikriy kurashchi Komilovga yetib keldim”. [1. B.]

Aktyor uchun mazkur obraz yangi ijodiy marraga aylandi. Zamonaviy qahramon obrazi mavzusida ham aktyor ijodida ham yangi sahifa ochdi.

Musiqali janrda ham bir aktyor shaxsiga bag‘ishlab yozilgan asarlar kam bo‘lmadi. 1961-yil sahna yuzini ko‘rgan H.G‘ulomning “Toshbolta oshiq” komediyasi musiqali janrdagi baxshidalarning to‘ng‘ichi bo‘ldi. P’esa boshidanoq S.Xo‘jayev uchun yozilgandi, biroq bu haqida aktyorning o‘zi hech nima bilmasdi. Asar o‘qilayotgan vaqtda S.Xo‘jayev o‘zining rolini darrov tanidi va “Asar menga atab yozilgan ekan”, deya o‘zini bosh rol ijrochisi etib sayladi. Bu ijod jarayonidagi tabiiy holat hisoblanadi. Aktyor doim o‘z iste’dodi, qurbi va chegarasi nimaga yetishini, qayergacha borishi mumkinligini yaxshi biladi. Ayniqsa tajribali aktyorlar. Unga qanday rol mos keladi, qaysi rolda imkoniyatini to‘liq namoyon eta oladi, bu ham unga ayon bo‘ladi. S.Xo‘jayev ham ana shunday aktyorlardan edi.

Aktyorning “Toshbolta”si haqida ko‘p va xo‘p yozilgan. Lekin barida munaqqidlarimiz asar muvaffaqiyatining bosh sababchisi sifatida S.Xo‘jayev nomini keltirib o‘tishadi. Buning sabablarini birma-bir izohlashadi. “Har spektakl S.Xo‘jayev uchun premera, u bir marta topilgan harakat, ohang, mezanssenaga mahkam yopishib, ko‘r-ko‘rona takrorlayveradigan aktyorlardan emas. U har spektaklga ilhom va zavq bilan, yangi detallar bilan kelib, rolda xuddi birinchi marta chiqayotgandek o‘zgacha berilib o‘ynaydi”, [2. B. 42-43.] - deydi M.Qodirov.

T.Tursunov esa – “Toshbolta rolining ijrochisi S.Xo‘jayevga badiha quvvatini mukammal yuz ko‘rsatishi uchun imkon berildi. Bu spektakl muvaffaqiyatini ta’minladi. Artist ijro jarayonida ko‘p o‘rinlarda matn va mezansahnalarga o‘z tahririni kiritib, ularni muallif va rejissorga ma’qullatib, ish ko‘rdi. Toshbolta - S.Xo‘jayevning, butun ijodi davomida komediya janrida yaratgan Ana shu rol misolida S.Xo‘jayevning insoniy tabiati bilan birga ijro mahoratiga xos quvnoq hazil-mutoyiba qilishi kabi tuyg‘ulari to‘laligicha ochildi”, [3. B. 363.] deya fikr bildiradi. Nazariy faktlarning hammasida aktyor ijodining yetakchiligi va ustuvorligi haqida so‘z ketadi. Bundan, komediyaning zamini bo‘sh ekani anglashiladi.

Uzoqni ko‘ra biladigan haqiqiy ijodkor aktyor har qanday nimjon, zaif, navbatdagi asarni ham kasbiy e’tiqodi, tinimsiz mehnati, ijodiy nafasi bilan qayta tiriltirishi, undagi kam-ko‘stlarni, sahnaviy shtamplarni ilg‘ab, zarur chora-tadbirlarni qo‘llashi mumkin. Soyib Xo‘jayev ham tajribali aktyor sifatida “Toshbolta oshiq”ni qator ijodiy izlanishlari, badihago‘ylikka yo‘g‘rilgan topilmalari bilan boyitdi. Kam-ko‘stlarini to‘ldirishga harakat qildi. Aktyorning zakiy topqirligi, mahorati va sa’y-harakatlari tufayli maishiy voqeliklarga qurilgan sodda va ixcham p’esa hayotiy, xalqchil, tabiiy unsurlar bilan boyitilib, musiqali komediya talablariga to‘la mos keluvchi badiiy jihatdan pishiq, tomoshabop, bir butun sahna asariga aylandi.

Odatda sahna asarining dunyoga kelishi ya’ni dramaturg va aktyor munosabatlarining to‘qnashuvi ikki xilda kechadi. Yoki aktyor dramaturgga ergashib, u bilan hisoblashishga majbur bo‘ladi, yohud dramaturg zabardast aktyor mahorati oldida ijodiy prinsipini chetga surib qo‘yadi.

Dastlabki uchrashuvdayoq har ikki tomonning ijodiy yondashuvi, g‘oyaviy qarashlari va estetik tamoyillari to‘qnash keladi. Har ikki ijodkor ijodiy jarayonda o‘zining subektiv haqiqatini asoslashga va o‘z pozitsiyasini mustahkamlashga urinadi. Biri rolni o‘ziga moslab, o‘zicha talqin qilish istagidan borsa, ikkinchisi aktyorni rolga moslashtirib, to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatishga chog‘lanadi.

Individuallikka intiladigan har qaysi ijodkor kabi aktyor o‘z nuqtayi-nazari, mustaqil fikriga ega bo‘lishni va kezi kelganda boshqalarni ham uning qarori bilan hisoblashishlarini xohlaydi. Dramaturgga bo‘ysungan taqdirda, tabiiyki uning erki, shaxsiyati, rol haqidagi mushohadalariga darz ketadi. Aktyor dramaturg va rejissor g‘oyalarini tayyor holatda taqdim etadigan vositachiga, o‘zi ishtirok etayotgan tomoshaning shunchaki tomoshabiniga aylanib qolishdan cho‘chiydi. Bu rolni uningchalik hech kim tushunmasligini, uning kabi ijro etolmasligini dalillashga tirishadi. Biroq muallif tomonidan asarning tub mohiyati, zamirini ochib berish uchun kiritilgan muhim epizod o‘rniga aktyorning o‘z epizodini “tiqishtirish”i spektakl badiiyati, kompozitsion yaxlitligiga putur yetkazishi mumkinligi haqida o‘ylab ko‘rmaydi. O‘zlikni unutish sari bosilgan har bir qadam aslida o‘zlikni topishga yaqinlashtirishini tushunish aktyor uchun hamisha ham oson kechavermaydi.

Sh.Burxonovning dramaturgiya va sahna qonunlarini yaxshi tushunishi, dramaturglarga nisbatan talabchanligi to‘g‘risida ko‘plab dalillarni keltirish mumkin. Uning M.Shayxzoda bilan do‘stona aloqasining o‘ziyoq sahna yozuvchiligining nozik asrorlaridan durustgina xabardor bo‘lganidan dalolat beradi. Aktyor va dramaturg o‘rtasidagi ijodiy hamkorlik ibtidosi M.Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” tarixiy dramasi ustida ishlash jarayonida yuzaga keldi. Bu haqida Sh.Burxonovning o‘zi shunday deydi – “Asarni sahnaga qo‘yishda Shayx aka bevosita ishtirok etdi. Deyarli har kuni repetitsiyaga kelar, rejissorning deganlariga quloq solar. Ayni paytda bizga, ya’ni rollarda chiquvchi artistlarga maslahatlar berar edi. Ko‘pincha

repetitsiyadan keyin Shayx aka bilan qaytardik. Yo‘lda ketar ekanmiz sahna asarlari qanday bo‘lishi, saviyasi, aktyorlik mahorati, til madaniyati haqida suhbatlashardik. Har bir suhbatda Shayx aka katta san’atkor, mashxur dramaturg, faylasuf, shoir, ayni chog‘da oliyjanob inson sifatida namoyon bo‘la olardi”. [4. B.]

M.Shayxzodaning aynan Sh.Burxonov bilan kelishishida ham ma’no bor. Kuchli dramaturg hamisha zabardast, ijodiy kengligi yuqori bo‘lgan ijrochini tanlaydi. Ijod mahsulining munosib egasini qidiradi. M.Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi”, “Mirzo Ulug‘bek” kabi tarixiy dramalarini aynan Sh.Burxonovga bag‘ishlab yozilgani ana shundan.

Dramaturgning jumladan, yetarlicha bilim, tafakkurga ega yozuvchining o‘z mehnati mahsuli taqdirini biror akyorga ishonib topshirishi kamdan kam hollarda yuz beradi. Biroq so‘z Sh.Burxonov haqida ketarkan, har qanday ikkilanishga o‘rin qolmaydi. Boisi, aktyor sahnadagi voqealar me’yorini va xalqqa qanday mavzular yoqishini biladigan zukko san’atkor. Mualliflar ham o‘zi yozayotgan asarlari xususida bir necha bor Shukur Burxonov bilan maslahatlashishgan.

U sahna qaysi gapni ko‘tarish, ko‘tarmasligini, tomoshabinni qanday yo‘l bilan jalb qilish mumkinligini yaxshi biladi. Har bir so‘zni o‘z o‘rnida qo‘llaydi. Matndagi har bir tovush uning nutqida o‘z jozibasi, ma’nosi va maqsadiga ega bo‘ladi. Obraz mohiyatini ifodalashga xizmat qilmaydigan so‘zdan, butunning bir bo‘lagi bo‘la olmagan sahnadan u shu zahotiyoq voz kechadi.

Ulug‘ aktyorlarning qudrati ham shunda. Ular o‘z rolining muallifi sifatida bor imkoniyati, ichki quvvatini obrazning to‘laqonli va ta’sirchan chiqishiga sarflaydi. Rejissor bo‘lib avvaldan epizodini sahnalashtiradi, muallif bo‘lib personajini boyitadi. “Bu mening vazifamga kirmaydi, bu mening ishim emas”, demaydi. Shu tufayli Sh.Burxonovning barcha obrazlarida faqat ungagina tegishli madaniyat, ichki dard va ijodiy dastxat sezilib turadi.

Aktyor ijodiy ufqining chegarasini, o‘z imkoniyati darajasini to‘g‘ri baholay oladi. Ijodiy kuchi, shijoati, quvvati manbayi nimaga yetishini ham tahlil qila biladi. Repertuaridagi obrazlarni ham ana shu me’zon doirasida o‘lchaydi. Har bir materialni chertib, chertib tanlaydi. 1969-yil sahnalashtirilgan Sofokolning “Shoh Edip” tragediyasi ham artistning shaxsan taklifi bilan teatr repertuariga kiritilgan, uning xohishiga ko‘ra A.Muxtor tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan edi. O‘shanda asarni sahnalashtirish uchun rejissor qidirgan Sh.Burxonov M.Radunda to‘xtagan. Ikki ijodkorning asar to‘g‘risidagi qarashlari mos kelib, aktyorning fojiaviy qudrati to‘la namoyon bo‘lgan.

Xulosa shuki, mazkur asarlarning aksariyati teatr bag‘rida, ijodkorlar hamkorligida dunyoga kelgani bois unda dramaturg pozitsiyasidan ko‘ra aktyor yetakchiligi yuqori o‘rinda turadi. Albatta buning o‘ziga yarasha sabablari bor. Dramaturgiyaga endi kirib kelayotgan yosh ijodkorning sahnada ko‘p yillik tajribaga

ega aktyordan o‘tkazib bir so‘z ayta olishi, yoki qisqa fursatda bekami-ko‘st asar yarata olishi dushvor masala. Shu tufayli dramatik materiallarning shuhratini muallifdan ko‘ra ko‘proq aktyor ta’minlashi kunday ayon haqiqatdir. Aktyor bunda mahoratini sinovdan o‘tkazish, yaxshi asar ustida ishlash uchun p’esani takomillashtirishga hissa qo‘shgan bo‘lsa, dramaturg sahna yozuvchiligidagi ilk saboqni olish va ijodiy o‘sish uchun aktyorga ergashdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xo‘jayev O. Tafakkur teatri. // O‘zbekiston madaniyati. 1968. 3-sentabr. 70-son.

2. Qodirov M. Soyib Xo‘jayev. -T.: 1978. 42-43-b.

3. Tursunov T. XX asr o‘zbek teatri tarixi. – T.: 2010. 363-364-b.

4. Murodov M. // Ikki do‘st hamkorligi. // Toshkent oqshomi, 1988. 31-oktabr.

MODERN HEAT MADE ON THE BASIS OF LOCAL RAW MATERIALS INSULATION MATERIALS

A.Allambergenov
Y.Yuldasheva
Karakalpak State University named after Berdakh
https://doi.org/10.5281/zenodo.6702266

Annotation: The production of modern thermal insulation materials based on local raw materials, their widespreaduse in the construction of energy-efficient building solutions is one of the main tasks today.

Keywords : insulation, inorganic, organic, mineral, arbolite.

As a result of the ongoing reforms in the Republic, today the production of construction materials and products on the basis of local raw materials is expanding. In particular, the resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated May 23, 2019 No. PP-4335 "On additional measures dor tgr accelerated development of the construction materials industry". According to this decision, the work to be done in the construction materials industry in 2019-2025 is specified [1].

From time immemorial, people have used many methods to heat their home, protecting the house from the cold. Our builders are carrying out a number of works on thermal insulation of walls, floors, roofs and facades in a modern way.

According to N.A.Mahmudova, "The lower the thermal conductivity, the more heat is stored, indicating that the general classification of thermal insulation materials is organic and inorganic [2].

Organic-based heat insulators are made on the basis of natural organic raw materials and synthetic polymers.Thus, organic-based thermal insulators include waste-based materials from the wood processing industry, waste paper (cellulose), sheep wool, cork, and some other natural materials [3]. However, all of them gradually absorb moisture, which can lose volume. They burn quickly, so they are rarely used in modern construction.

Let’s take a look at how much or how little benefit polystyrene has to one of the most popular organic heaters currently in construction.

Expanded polystyrene began its journey as a thermal insulation material in the 1960s and has remained virtually unchanged since then. Polystyrene - is a housing made of polystyrene plastic mass filled with 98% air is a material used for, as a result of which it has high thermal insulation properties, as well as low weights, does not affect the shrinkage of the foundation and facilitates installation. Expanded

polystyrene is a very convenient and popular insulation. However, it has a number of shortcomings, in particular:

* relatively brittle;
* flammable;
* maydi cannot breathe, requires additional ventilation;
* insects and rodents easily cross mazes and passages forms;
* dries from direct sunlight and decomposes over time.

The use of inorganic insulation materials is often more effective than materials produced on the basis of local raw materials. The structure of inorganic thermal insulation materials has fibrous, open and closed pores. Organic materials often have an interconnected porous fibrous structure. Mineral cotton is a material that can be obtained by melting a mixture based soluble rocks (limestone, combustible slag) at a temperature of 1300-1400 °C and then turning it into fiber. Inorganic-based heaters include heat insulators that use minerals (stones, glass, metallurgical slag) for production. As result of spraying the dissolved mineral substance, mineral wool, which is one of the inorganic materials, is formed. It is widely used in many types of construction. The terminology includes all heaters consisting of fibers and reoresenting the class of mineral heaters in accordance with GOST standards. The properties of mineral wool are higher than those of organic materials:

Used as a unit of measurement of the heat retention capacity of wool:

* sound insulation (keeps out sound);
* good vapor permeability;
* low flammability (can be used up to 650 °C);
* contains no organic elements and prolongs service life.

It is also worth nothing that another type of thermal insulation is composite insulation, which is produced from raw materials on the basis of asbestos with the addition of thermal insulators-dolomite, vermiculite, perlite. Such materials demonstrate good thermal insulation properties, non-flammability, corrosion resistance, but asbestos insulation, like polystyrene, does not allow the passage of steam and air.

With the above, we can compare thermal insulators and analyze which insulation material will be of good quality and good in construction. When we compare the properties of arbolite and basalt fiber materials belonging to organic and inorganic bases, the thermal condustivity of arbolite is 0,08 (W/m°C), while the thermal conductivity of basalt fiber is 0,35 (W/m°C). We know that is equal to. In this case, we see that the thermal conductivity of basalt fiber is higher by a factor of 0,27 (W/m °C) compared to arbolite. Basalt fiber is an export-oriented building material. The Uzbek-British join venture Mega Invest Industrial LLC, which operates in Forish distict, is the only one in our country and Central Asia to produce a new

type of construction material. The company has a production capacity of 2,500 tons of basalt fiber per year. According to experts, basalt is an environmentally friendly product, it is 4 times lighter and 3 times stronger than steel reinforcement, 2 times cheaper, highly resistant to external influences and a completely stainless building material. Basalt fibers do not exceed 50 mm in length during production and are approximately 5:7 microns thick. For example, a wall measuring 3×5 meters. If we want to divide the room using, it must be wrapped inthermal insulation material. Let's assume that the price of 1 sq.m. of basalt fiber is 30,350 soums. If the area of the wall is 15 m², the cost of basalt fiber, which will cost 15m² to cover the wall, will be 455,250 soums. This allows the house to use less heat energy on cold days, which increases savings. Therefore, basalt is used in the production of various combustible fibers, tapes, plates from fibrous materials. The use of inorganic thermal insulation materials in construction can be considered the most effective. Their areas of application include: roof insulation, floor and floor insulation, building facades, ventilation ducts, space between rooms, cooling equipment surfaces, thermal insulation of sandwich panels, insulation of industrial equipment we can use.

In short, thermal insulation protects against the external effects of moisture and wind, helps people to use heating equipment less and is more cost-effective, protects against heat loss and provides better environmentalbenefits. In particular, investment projects for the production of construction materials are being implemented jn Jizzakh region. In partificular, a "Basalt Wool" specializing in the production of thermal insulation materials from 35,000 tons of basalt fiber per year will be results in the future.

References:

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated May 23, 2019 PP-4335 Resolution No. "On additional measures for the accelerated development of the building materials industry".

2. N.A.Mahmudova, H.N.Nuritdinov. Decoration and thermal insulation materials. Toshkent - «NOSHIR» - 2010.

3. N.A.Samigov. Building materials and products. Tashkent - 2013.

СТРУКТУРА ПОТЕРЬ ЭЛЕКТРОЭНЕРГИИ В ЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СЕТЯХ УЗБЕКИСТАНА

Худаяров Музаффар Бурхонович
док. тех. наук, профессор Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова,
Узбекистан, г. Ташкент
Сухенёв Роман Александрович
магистрант, Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова,
Узбекистан, г. Ташкент
https://doi.org/10.5281/zenodo.6702360

Аннотация: Расчеты установившихся режимов работы распределительных сетей принадлежит к числу задач, решение которых имеет важное значение при их оперативном управлении. Как правило, для решения данной задачи используются итерационные методы, что предъявляет повышенные требования к ним, в плане быстродействия и надежности получения результатов в любых условиях эксплуатации. Учитывая данное в статье представлены модели оценки потерь мощности в распределительных сетях на основе различных типов искусственных нейронных сетей, использование которых позволяет повысить быстроту выполняемых оценок потерь мощности. Апробация теоретических утверждений выполнена на примере реальных схем распределительных сетей 6-10 кВ.

Ключевые слова: разомкнутые распределительные сети, установившийся режим, искусственные нейронные сети, нейронные сети прямого распространения, сети GMDH, сети ANFIS, сети LSTM.

STRUCTURE OF ELECTRICITY LOSSES IN UZBEKISTAN ELECTRICAL NETWORKS

One of the most important indicators of the level of operation and efficiency of electrical networks is the amount of electrical energy losses in them. The task of determining and reducing electricity losses both in the main and in distribution electrical networks of energy systems and large industrial associations is extremely relevant and economically important. Calculations of electricity losses are carried out by various methods, the results of which form the total structure of electricity losses. Currently, various structures are used to describe the components of electricity losses in electrical networks, but the classification of losses by voltage levels is not taken

into account. Therefore, the main purpose of the article is the classification of electricity losses, taking into account the voltage levels of the electric networks of Uzbekistan.

Key words: electrical networks, electricity losses, technical losses, technological losses, commercial losses, aggregated loss structure.

Введение

В Узбекистане основным документом регламентирующий порядок оценки технологических потерь электрической энергии при ее передаче и распределении по электрическим сетям (ЭС) является приказ, начальника государственной инспекции по надзору в электроэнергетике «Об утверждении инструкции о порядке расчета нормативов технологических потерь электрической энергии при ее передаче и распределении по электрическим сетям» [1]. В данном приказе представлена «Методика расчета технологических потерь электроэнергии при ее передаче по электрическим сетям в базовом периоде» [1, пр.1], где представлена укрупнённая структура потерь электроэнергии. Но при этом укрупненная структура не учитывает разбивку потерь электроэнергии по уровням напряжения электрических сетей. Поэтому данная статья посвящена классификации потерь электроэнергии с учётом уровней напряжения электрических сетей Узбекистана.

Современная классификация потерь электроэнергии

Главным и основным показателем эффективности передачи и распределения электрической энергии по электрическим сетям являются фактические (или отчётные) потери электроэнергии (ФПЭ), которая определяются как разница между поступлением электроэнергии в сеть и её полезного отпуска из сети потребителям.

Разделение ФПЭ на составляющие может проводиться по разным критериям: по характеру потерь, классам напряжения, группам элементов и т. д. При этом широкое распространение получила укрупнённая классификация [2,3,4], в которой потери разделены на составляющие, исходя из технологии процесса передачи и распределения, инструментального учёта электроэнергии по сетям (**технологические потери электроэнергии** - ТПЭ), а также ряда причин в сфере организации контроля за потреблением энергии (**коммерческие потери электроэнергии** - КомПЭ). КПЭ не имеют самостоятельного математического описания и, как следствие, определяются как разница между фактическими и технологическими потерями.

Технологические потери электроэнергии делятся на три укрупнённые составляющие:

– **технические потери** (ТехПЭ), обусловленные физическими процессами, происходящими при передаче электроэнергии по электрическим сетям и выражающимися в преобразовании части электроэнергии в тепло в элементах электрических сетей;

– **расход электроэнергии на собственные нужды подстанций** (РЭСНП), обусловлен необходимостью обеспечения работы технологического оборудования подстанций и жизнедеятельности обслуживающего персонала;

– **потери электроэнергии, обусловленный погрешностями приборов учёта (ПЭППУ)**, которые определяются в зависимости от погрешностей трансформаторов тока, трансформаторов напряжения, счетчиков и соединительных проводов.

ТехПЭ в свою очередь, состоят из потерь, не зависящих от передаваемой мощности (условно-постоянные потери - УППЭ) и потерь, зависящих от изменения нагрузки (нагрузочные потери- НПЭ).

Таким образом, **укрупненная структура потерь энергии** в электрических сетях, имеет следующий вид (Рис.1) [1-3,5].




Рис.1. Укрупненная структура потерь энергии в электрических сетях

Такая классификация составляющих ФПЭ не лишена недостатков. Например, ряд составляющих УППЭ могут меняться значительно в зависимости от погодных условий. Учитывая данное в [3] ряд составляющих УППЭ выделяются в отдельную группу климатических потерь (КлимПЭ).

Очевидно, что каждая укрупненная составляющая ФПЭ имеет свою более детальную структуру. ТПЭ можно разделить на поэлементные составляющие, РСНП подстанций включает в себя номенклатуру элементов потребляющие электрическую энергию, ПЭППУ включает составляющие, обусловленные измерительными трансформаторами тока, напряжения и электрическими счетчиками, КомПЭ также могут быть разделены на многочисленные составляющие, отличающиеся причинами их возникновения. Такая структура ФПЭ называется **детальной структурой потерь электроэнергии** [6,7].

Данная современная классификация потерь электроэнергии достаточно детальная, но при этом требует уточнения составляющих по уровням напряжения электрических сетей Узбекистана, что является полезным при

решении ряда задач связанных с расчётом потерь электрической энергии при ее передаче и распределении по электрическим сетям.

Классификация потерь электроэнергии с учётом уровней напряжения

В соответствии с Методикой расчёт технологических потерь электрической энергии при ее передаче по электрическим сетям следует выполнять как в целом, так и с разбивкой по уровням напряжения. Так по особенностям схем и режимов электрических сетей Узбекистана, их информационной обеспеченности выделяют следующие 4 группы сетей [8]:

1. Электрические сети 500-220 кВ и отдельные сети 110 кВ входящие в транзитную сеть;
2. Распределительные (разомкнутые) сети 110-35 кВ [9];
3. Распределительные электрические сети 10-6 кВ;
4. Электрические сети 0.4 кВ.

Рассмотрим каждую из составляющих укрупнённой структуры потерь электрической энергии с разбивкой по уровням напряжения электрических сетей Узбекистана.

Нагрузочные потери электроэнергии

Из составляющих технических потерь наибольшую сложность представляет определение нагрузочных потерь электроэнергии (НПЭ). В соответствии с Методикой нагрузочные потери электроэнергии включают в себя потери в: воздушных и кабельных линиях (ЛЭП); трансформаторах и автотрансформаторах (ТР); шинопроводах (ШП); токоограничивающих реакторах (ТОР).

По аналогии с УППЭ, нагрузочные потери по уровням напряжения электрических сетей Узбекистана можно представить в следующем виде:

$$\Delta W_{НПЭ}^{\Sigma} = \Delta W_{НПЭ}^{500-220} + \Delta W_{НПЭ}^{110-35} + \Delta W_{НПЭ}^{10-6} + \Delta W_{НПЭ}^{0,4}, тыс.кВт*час \quad (1)$$

где $\Delta W_{НПЭ}^{500-220}, \Delta W_{НПЭ}^{110-35}, \Delta W_{НПЭ}^{10-6}, \Delta W_{НПЭ}^{0,4}$ – величина нагрузочных потерь электроэнергии в ЭС 500-220 кВ, 110-35 кВ, 10-6 кВ и 0,4 кВ.

Величина нагрузочных потерь электроэнергии в электрических сетях в зависимости от класса напряжения определяется по следующим формулам:

в электрических сетях 500–220 кВ:

$$\Delta W_{НПЭ}^{500-220} = \Delta W_{наг.ЛЭП} + \Delta W_{наг.ТР} + \Delta W_{ШП} + \Delta W_{ТОР} \quad (2)$$

в распределительных сетях 110-35 кВ:

$$\Delta W_{НПЭ}^{110-35} = \Delta W_{наг.ЛЭП} + \Delta W_{наг.ТР} + \Delta W_{ШП} + \Delta W_{ТОР} \quad (3)$$

в распределительных сетях 10-6 кВ:

$$\Delta W_{НПЭ}^{10-6} = \Delta W_{наг.ЛЭП} + \Delta W_{наг.ТР} + \Delta W_{ШП} + \Delta W_{ТОР} \quad (4)$$

в электрических сетях 0,4 кВ: $\Delta W_{НПЭ}^{0,4} = \Delta W_{наг.ЛЭП}$ (5)

Согласно Методики, для расчёта НПЭ в электрических сетях используются следующие методы: 1) оперативных расчетов; 2) расчетных суток; 3) средних нагрузок; 4) наибольших потерь; 5) по обобщенной информации; 6) по падению напряжения.

Так для электрических сетей 500–220 кВ, ввиду наличия достаточного объёма информации выполняется поэлементный расчёт НПЭ. При этом используются методы оперативных расчетов и средних нагрузок.

В распределительных сетях 110-35 кВ и 10-6 кВ в зависимости от имеющейся информации для расчёта НПЭ можно использовать первые четыре метода. В редких случаях метод по обобщенной информации можно использовать для расчета НПЭ в распределительных сетях 10-6 кВ.

Методы оценки потерь по обобщенной информации и падению напряжения применяется для расчета НПЭ в электрических сетях 0,4 кВ.

Условно-постоянные потери электроэнергии

В соответствии с Методикой к УППЭ относят потери:

на холостой ход силовых трансформаторов (автотрансформаторов);

в компенсирующих устройствах (КУ): синхронных компенсаторах (СК), батареях статических конденсаторов (БСК), статических тиристорных компенсаторах (СТК);

в шунтирующих реакторах (ШР);

в соединительных проводах и сборных шинах распределительных устройств подстанций (СППС);

в системе учета электрической энергии (УЧ): в трансформаторах тока (ТТ), в трансформаторах напряжения (ТН) и приборах учета и соединительных проводах;

в вентильных разрядниках (ВР), ограничителях перенапряжений (ОПН);

в устройствах присоединений высокочастотной связи (УПВЧ);

в изоляции кабелей (ИК);

на корону в воздушных линиях 110 кВ и выше (КОР);

от токов утечки по изоляторам ВЛ (ТУИВЛ);

Последние две составляющие условно-постоянным потерь (КОР и ТУИВЛ) меняются в зависимости от погодных условий и соответственно являются составляющими климатических потерь электроэнергии (КЛ).

При этом УППЭ по уровням напряжения электрических сетей Узбекистана можно представить в следующем виде:

$$\Delta W_{УППЭ}^{\Sigma} = \Delta W_{УППЭ}^{500-220} + \Delta W_{УППЭ}^{110-35} + \Delta W_{УППЭ}^{10-6} + \Delta W_{УППЭ}^{0,4}, тыс.кВт*час \quad (6)$$

где $\Delta W_{УППЭ}^{500-220}, \Delta W_{УППЭ}^{110-35}, \Delta W_{УППЭ}^{10-6}, \Delta W_{УППЭ}^{0,4}$ – условно-постоянные потери электроэнергии в ЭС 500-220 кВ, 110-35 кВ, 10-6 кВ и 0,4 кВ.

Величина УППЭ вычисляются по следующим формулам:

в электрических сетях 500–220 кВ:

$$\Delta W_{УППЭ}^{500-220} = \Delta W_{хх.ТР} + \Delta W_{КУ} + \Delta W_{УЧ} + \Delta W_{ОБ} + \Delta W_{КЛ} \quad (7)$$

где, $\Delta W_{КУ} = \Delta W_{СК} + \Delta W_{БСК} + \Delta W_{СТК}$; $\Delta W_{УЧ} = \Delta W_{ТТ} + \Delta W_{ТН}$;

$\Delta W_{ОБ} = \Delta W_{ШР} + \Delta W_{СПТС} + \Delta W_{ВР} + \Delta W_{ОПН} + \Delta W_{УПВЧ}$; $\Delta W_{КЛ} = \Delta W_{КОР}^{220} + \Delta W_{ТУИВЛ}$

в распределительных сетях 110-35 кВ:

$$\Delta W_{УППЭ}^{110-35} = \Delta W_{хх.ТР} + \Delta W_{КУ} + \Delta W_{УЧ} + \Delta W_{ОБ} + \Delta W_{КЛ} \quad (8)$$

где, $\Delta W_{КУ} = \Delta W_{СК} + \Delta W_{БСК} + \Delta W_{СТК}$; $\Delta W_{УЧ} = \Delta W_{ТТ} + \Delta W_{ТН}$;

$\Delta W_{ОБ} = \Delta W_{ШР} + \Delta W_{СПТС} + \Delta W_{ВР} + \Delta W_{ОПН} + \Delta W_{УПВЧ}$; $\Delta W_{КЛ} = \Delta W_{КОР}^{110} + \Delta W_{ТУИВЛ}$

в распределительных сетях 10-6 кВ:

$$\Delta W_{УППЭ}^{10-6} = \Delta W_{хх.ТР} + \Delta W_{КУ} + \Delta W_{УЧ} + \Delta W_{ОБ} + \Delta W_{КЛ} \quad (9)$$

где, $\Delta W_{КУ} = \Delta W_{СК} + \Delta W_{БСК} + \Delta W_{СТК}$; $\Delta W_{УЧ} = \Delta W_{ТТ} + \Delta W_{ТН}$;

$\Delta W_{ОБ} = \Delta W_{ШР} + \Delta W_{СПТС} + \Delta W_{ВР} + \Delta W_{ОПН} + \Delta W_{УПВЧ}$; $\Delta W_{КЛ} = \Delta W_{ТУИВЛ}$

в электрических сетях 0,4 кВ: $\Delta W_{УППЭ}^{0,4} = \Delta W_{ТТ} + \Delta W_{ТН}$; (10)

Порядок расчёта всех составляющих условно-постоянных потерь электроэнергии представлен в Методике.

Расход электрической энергии на собственные нужды подстанций

РЭСНП это потребление электроэнергии электроприемниками, установленными на подстанции и обеспечивающими нормальную работу оборудования подстанции и жизнедеятельность ее обслуживающего персонала. РЭСНП определяется в соответствии с приборами учета установленные на низкой стороне трансформаторов собственных нужд. Номенклатура элементов расхода электрической энергии на собственные нужды подстанций представлена в [1, пр.2].

Потери электроэнергии, обусловленный погрешностями приборов учёта

ПЭППУ определяются по результатам расчета выполняемого на основе данных о метрологических характеристиках и режимах работы узлов учёта – счетчиков электроэнергии, трансформаторов тока и напряжения.

При наличии данных метрологической поверки о фактических погрешностях измерительных комплексов ПЭППУ рассчитывают, как сумму значений, определенных для каждой точки учета поступления электроэнергии в сеть и отпуска электроэнергии из сети.

При отсутствии таких данных ПЭППУ, определяют на основе данных о классах точности элементов измерительных комплексов – трансформаторов

тока и трансформаторов напряжения, счетчиков электроэнергии в соответствии с рекомендациями в Методике.

Обобщая вышеотмеченное детальную структуру потерь электроэнергии в электрических сетях Узбекистана можно представить в следующем виде (Рис.2.).




Рис.2. Детальная структура потерь электроэнергии в ЭС Узбекистана

Заключение

Определение потерь электроэнергии во всех элементах электрических сетей всех классов номинальных напряжений, находящихся на балансе энергосистемы Узбекистана или ее структурных подразделений, является весьма важной и актуальной задачей. Это необходимо для обоснования нормативов, выявления очагов потерь, оценки возможных резервов снижения потерь электроэнергии и разработки мероприятий по их снижению.

Представление результатов расчетов потерь электроэнергии на основе приведённой детальной структуры, обеспечивает ясность обоснования, прозрачность структуры и динамики изменения величин потерь электроэнергии в электрических сетях, что весьма актуально ввиду последних изменений в сфере энергетики Узбекистана [10].

Список литературы:

1. Приказ № 2871 от 31 марта 2017 г. «Об утверждении инструкции о порядке расчета нормативов технологических потерь электрической энергии при ее передаче и распределении по электрическим сетям».

2. Железко Ю. С., Потери электроэнергии. Реактивная мощность. Качество электроэнергии: Руководство для практических расчетов. - М.: ЭНАС, 2009. - 456 с.: ил.

3. Воротницкий В.Э., Калинкина М.А. Расчёт, нормирование и снижение потерь электроэнергии в электрических сетях. Учебно-методическое пособие. - М.: ИПКгосслужбы, 2003. - 64 с.

4. Yu.B. Shchemeleva, A.N. Shchemelev, S.K. Davidov. Analysis of the Electrical Energy Losses Structure. 2020 International Multi-Conference on Industrial Engineering and Modern Technologies (FarEastCon). doi:10.1109/FarEastCon50210.2020.9271129

5. Raúl Jiménez, Tomás Serebrisky, Jorge Mercado. Sizing Electricity Losses in Transmissio n and Distribution Systems in Latin America and the Caribbean. Inter-American Development Bank 1300 New York Avenue, N.W. Washington, D.C. 20577 www.iadb.org

6. Bakhadir Uzakov, Nurbek N Kurbonov, Qayratdin Kamalov, Abat Muratov. To the structure of electricity losses in distribution networks 6 - 110 kV. Energy Systems Research 2021. E3S Web of Conferences 289, 07022 (2021) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202128907022

7. Железко Ю.С., Артемьев А.В., Савченко О.В. Расчет, анализ и нормирование потерь электроэнергии в электрических сетях: Руководство для практических расчетов. - М.: Изд-во НЦ ЭНАС, 2004. - 280 с: ил.

8. Насиров Т.Х., Васильев В.Г. Методы расчёта потерь электрической энергии в сетях энергосистем. – Т.: Fan va texnologiya, 2016. – 336 с.

9. Sergio Dнaz, Christian Moreno, Kelly Berdugo, Jorge Silva, Jose Caicedo1, Jose Ruiz1, Javier Gordon. Electric power losses in distribution networks Turkish Journal of Computer and Mathematics Education. Vol.12 No.12 (2021), 581-591

10. Постановление президента республики Узбекистан, № 4249 от 27.03.2019 г. «О стратегии дальнейшего развития и реформирования электроэнергетической отрасли республики Узбекистан».

O‘QUVCHILARGA PYTHON TILIDA REKURSIV DASTURLASHNI O‘RGATISH VA UNING SAMARALI USULLARI

Kaipbayev Dauletbay Oralbayevich
NDPI Magistratura bo‘limi Ta’limda axborot texnologiyalari
ta’lim yo‘nalishi 2-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.6702459

Annotatsiya: Keltirilgan ushbu maqolada o‘quvchilarga dasturlashni o‘rgatish usullari, python dasturlashning afzalliklari, uning qo‘llanilishi, darsliklardagi dasturlashlarning amaliyotga tadbiq qilinishlari va shu bilan birgalikda o‘quvchilar bilan ishlashdagi turli xil metodikalar, komputer savodxonligini oshirishdagi qo‘llaniladigan texnologiyalar haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Dastur, tizim, malaka, uslublar, dasturlash tili, python, texnika, metodika, analiz.

Annotation: This article discusses methods of teaching programming to students, the advantages of python programming, its application, the application of programming in the textbook, as well as various methods of working with students, technologies used to improve computer literacy.

Key words: Program, system, skills, methods, programming language, python, technique, methodology, analysis.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019 yil yanvar oyida ilgari surilgan beshta muhim tashabbusidan uchinchi tashabbusida aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanish chora – tadbirlariga oid dasturi doirasida 2019 – 2020 yillarda tuman va shaharlarda raqamli texnologiyalar o‘quv markazi tashkil etish va ularda bepul ta’lim berish, 19 mingga yaqin ijtimoiy soha ob’ektini yuqori tezlikdagi internet tarmog‘iga ulash ko‘zda tutilmoqda. Hozirgi jadal rivojlanish va turli jarayonlarni avtomatlashtirish hamda robotlashtirish davrida dasturlashni bilish va uni o‘z ish jarayonida ishlata olish texnik va pedagogik yo‘nalishda ta’lim olayotgan o‘quvchi-talabalar uchun juda muhim deb hisoblanadi. Bu zamonaviy mutahassislar uchun eng zaruriy talablardan biridir. Sababi hozirgi kunda informatika turli-tuman sohalarda muvaffaqiyatli ravishda qo‘llanilishi mumkinligini hech kim ham rad eta olmaydi. Bugungi maqolamizda ham aynan dasturlashning python tilida dasturlashni o‘quvchilarga qiziqarli tarzda tushuntirish, ularning bilimini mustahkamlash haqida so‘z yuritiladi. Demak biz avvalo python dasturi o‘zi nima, uning ahamiyati qanday, undagi o‘rganish mumkin bo‘lgan o‘ziga xosliklarini bilib olamiz.

Python dasturlash tili samarador yuqori darajadagi ma’lumotlar tuzilmasini hamda oddiy, ammo samarador bo‘lgan ob’yektga yo‘naltirilgan dasturlash uslublarini taqdim etadi. Undan tashqari, bu til o‘rganish uchun oson va shu bilan birga imkoniyatlari yuqori bo‘lgan oz sonli dasturlash tillari jumlasiga kiradi va shu bilan birgalikda unda dasturlash jarayoni juda ham oddiy amalga oshiriladi. Python dasturlash tilining rasmiy sayti – www.python.org bo‘lib, uning muallifi Niderlandiyadagi Matematika va informatika ilmiy adqiqot institutida ishlagan Gvido van Rossum deb hisoblanadi. Pythonning o‘ziga xosligi esa uning oddiyligi, o‘rganishga osonligi, sodda sintaksisga egaligi va dasturlash jarayonini boshlash uchun qulay, erkin va ochiq kodlik dasturiy ta’minotga egaligidir. Undan tashqari, o‘z dasturingizni yozish davomida quyi darajadagi detallarni, misol uchun xotirani boshqarishni hisobga olishingizga hech qanday hojat qolmaydi. Bu dasturlash tili ko‘plab platformalarda hech qanday o‘zgartirishlarsiz ishlay oladi va u interpretatsiya qilinadigan tillar jumlasiga mansub. 4 Bulardan tashqari, Python dasturlash tili imkoniyatlari kengayishga moyil bo‘lgan dasturiy til hisoblanadi. Agar siz dasturingizning biror-bir joyini tezroq ishlashini xoxlasangiz, o‘sha qismni C yoki C++ dasturlash tillarida yozib, keyin shu qismni Python kodingiz orqali ishga tushirsangiz (chaqirsangiz) bo‘ladi. Bundan tashqari, Python juda ham ko‘p, foydali hamda xilma-xil dasturlar kutubxonalarga egaligi ham juda muhimdir. O‘quvchilarga ushbu dasturlashni o‘rgatishdan oldin eng birinchi navbatda uning afzalliklari, qulayliklari, unda o‘ziga xos bo‘lgan jihatlari haqida tushuncha berish lozim. Chunki o‘quvchilar o‘z qiziqmay turib u dasturlashning ichiga chuqur kira olmaydi, uni o‘rganishga xohish uyg‘onmaydi. Shuning uchun ham ularni qiziqtirish uchun turli xil ko‘rgazmali qurollar, dasturlashdagi qilingan natijalar haqida aytib o‘tish, ko‘rsatish joiz.

Pythonning o‘ziga xosligi **1.** Oddiy, o‘rganishga oson, sodda sintaksisga ega, dasturlashni boshlash uchun qulay, erkin va ochiq kodlik dasturiy ta’minot. **2.** Dasturni yozish davomida quyi darajadagi detallarni, misol uchun xotiraniboshqarishni hisobga olish shart emas. **3.** Ko‘plab platformalarda hech qanday o‘zgartirishlarsiz ishlay oladi. **4.**Interpretatsiya qilinadigan til. **5.** Kengayishga moyil til. Agar dasturni biror joyini tezroq ishlashini xoxlasak shu qismni C yoki C++ dasturlash tillarida yozib keyin shu qismni python kodi orqali ishga tushirsa(chaqirsa) bo'ladi. **6.**Juda ham ko'p xilma-xil kutubxonalarga ega. **7.**xml/html fayllar bilan ishlash **8.**http so`rovlari bilan ishlash **9.** GUI(grafik interfeys) **10.**Veb saytlarni yaratish. Ushbu qulayliklar, o‘ziga xosliklar o‘quvchilarni o‘ziga jalb qila oladi. Ular bu dasturlashni qiziqib o‘rgana boshlasa, computer savodxonligi yanada oshadi. Dasturlashlarni o‘rgana boshlaydi. Albatta dasturlashlarning xilma xil turlari mavjud. Ulardagi o‘ziga xosliklar ham bir-biridan ajralib turadi. Shuning uchun ham o‘quvchilar hozirgi kunda aynan computer sohasiga juda qiziqishmoqda. Zamon

talabiga monan hozirgi kunda barcha o‘quvchilar, o‘qituvchi-pedagoglar komputerni juda yaxshi bilishi kerak bo‘ladi.

Python dasturida ishlash tartibi quyidagicha:

1.Puskdan Python 3.7 ni topib, undan IDLEni ishga tushirish

